

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ARXIVSHUNOSLIK KAFEDRASI

TARIXIY GEOGRAFIYA

fanidan

MA'RUZALAR MATNI

Namangan – 2015

Soʻz boshi

Tarixiy geografiya fani - tarix fanining ajralmas qismidir. Mazkur fanni oʻrganishdan maqsad Oʻrta Osiyoning eng qadimgi tarixi, ibtidoiy jamoalarning joylashgan manzilgohlari, qadimgi davlat chegaralari, qadimgi savdo yoʻllari geografiyasi qaqida maʼlumotlar olishdir. Oʻzbekiston istiqlolga erishgach, mamlakatimizda juda katta tub sotsial-iqtisodiy oʻzgarishlar yuz berdi. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” asosida taʼlim tizimida sifat bosqichiga oʻtilib, bu sohada amaliy faoliyatlar boshlanib ketdi. Istiqlol yillarida ilm-maʼrifatga intilib yashagan ajdodlarimizdan qolgan madaniy merosni oʻrganishda ham katta yutuqlar koʻlga kiritildi. Bu borada Respublikamiz Prezidenti va Respublika xukumatining tariximizni, xalq milliy madaniyati va anʼanalarini chuqur oʻrganish, uni keng targʻib etishga qaratilgan qator farmonlari va qarorlari chiqarildi. Ularda ona-Vatanimizning, halqimiz boy tarixini yaxshi oʻrganmay turib, bugungi mustaqillik davri qadriga etmoq hamda yurtimiz istiqbolini koʻra bilmoq mumkin emasligi alohida qayd etilgan. Koʻxna va boy tariximizni oʻrganishda, uni ilmiy tahlil qilish va umumlashtirishda tadqiqotchilar asosan ikki manbaga suyanadilar. Talabalar ushbu fanni oʻrganish jarayonida quyidagi bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishlari kerak.

1 – Mavzu. Tarixiy geografiya fanining maqsadi va vazifalari. Tarixiy kartografiya Reja:

1. Tarixiy geografiyaning predmeti. Tarixiy geografiyaning boʻlimlari va asosiy vazifalari.
2. Tarixiy geografiyaning paydo boʻlishi va manbalari.
3. Tarixiy geografiyaning asosiy rivojlanish bosqichlari.
4. Kartografiya haqida maʼlumot.
5. Tarixiy kartografiya ilmiy fan sifatida. Tarixiy kartografiyaning turlari va vazifalari.
6. Tarixiy kartografiyaning paydo boʻlish bosqichlari va taraqqiyoti.
7. Tarixiy kartografiyaning yangi davrdagi asosiy yoʻnalishi.

Biz hammamiz maktabda Oʻzbekistonning, dunyoning fizik tarixiy geografiyasini oʻrganamiz. Tarixiy geografiya nimasi bilan farqlanadi. Hatto nomidan ham bilinib turibdiki, bu fan oʻtgan davrlarning iqtisodiy va siyosiy geografiyasini oʻrganuvchi fandır.

Bu fan "geografiya tarixi" fanidan farqli oʻlaroq (geografiya tarixi fani geografiya fanini paydo boʻlishidan to rivojlanishiga qadar oʻrganadi) jamiyatning turli davrlarda rivojlanish sharoitini oʻrganuvchi aniq geografiyani tashkil etadi. Tarixiy geografiya alohida tumanlardagi ishlab chiqarishning turli davrlarda oʻsishi haqidagi maʼlumotlarni aniqlashtiradi. Yoki tarixiy muhim voqea-hodisalarni boʻlib oʻtgan joylarini, geografik shart-sharoitlarini oʻrganadi. Tarixiy geografiya fani muammolarini tarix fani oʻrganadi, ammo shu bilan birga uni geografiya fanidan ham ajratib boʻlmaydi, chunki geografiya fanidan ochilayotgan yangi ilmiy maʼlumotlar tarixiy geografiya fani uchun juda muhimdir. Tarixiy geografiya fanining materiallari Tarixiy geografiya fanining asosi boʻlib xizmat qiladi. Tarixiy geografiya fanining rivojlanishi esa tarix fanining rivojlanishi bilan uzviy bogʻliqdir.

Tarixiy geografiya tarixiy bilimlarning asosiy tarmogʻi boʻlib qoldiki, usiz tarixiy jarayonlar geografiyasini oʻrganib boʻlmaydi. Usiz tasavvurlarimiz toʻliq va aniq boʻlmaydi.

Tarixiy geografiya bilan geografiya tarixini farqlay bilish kerak. Geografiya tarixiy geografiya fanining boʻlimi boʻlib, geografiya fanining rivojlanishi tarixini, sayohatlar tarixini, urning hududiy kashf etilishi bilan bogʻliq holda oʻrganadi. Geografiya fanining muammolari tarixiy geografiya fanioldida oldida turgan muammolar boʻlishi mumkin, oʻtmishning aniq geografiyasi boʻlishi mumkin emas. Tarixiy geografiya oʻtmish tarixining aniq geografiyasini oʻrganadi. Demak. Tarixiy geografiya fani tarix fanlari sirasiga kirib, insoniyat tarixini oʻtgan davrlari geografiyasini oʻrganadi. Boʻlib oʻtgan voqea-hodisalarning tarixiy haqiqiy baholash uchun oʻsha davrning tarixiy geografiyasini yaxshi bilish kerak. Bu narsa Oʻzbekiston tarixini, Oʻrta Osiyo tarixini obʼektiv, ilmiy asoslangan holda oʻrganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy geografiya zamonaviy geografiya kabi o'z bo'limlariga ega:

- 1.Tabiiy tarixiy geografiya.
- 2.Aholishunoslik tarixiy geografiyasi.
- 3.Xo'jalik geografiyasi yoki tarixiy iqtisodiy geografiya.
- 4.Siyosiy tarixiy geografiya.

So'nggi bo'limga ichki va tashqi chegaralar geografiyasi, siyosiy -ma'muriy bo'linishlar, shaharlar va qal'alar joylashishi, shuningdek tarixiy voqea-hodisalar, harbiy yurishlar yo'llari, muhorabalar xaritalari, milliy-ozodlik harakatlari geografiyasi ham kiradi. Fizik geografiya o'tgan bio necha ming yilliklar davomida o'zgarishsiz qoldi.

Lekin kishilik jamiyati, insoniyat tsivilizatsiyasini rivojlanishi uchun landschaftlar o'zgarishini o'rganish muhimdir, chunki daryolar o'zanining o'zgarishi, vodiylarning yo'qolib ketishi, sug'orish sitemalarining paydo bo'lishi, ko'l va dengizlar chegaralarining o'zgarishi, o'rmonlarning va hayvonot dunyosi ba'zi turlarining yo'q bo'lib ketish insoniyat tarixini o'zgartiruvchi omillar bo'lib xizmat qiladi.

Bu omillarning hammasi tarixiy fizik geografiya bo'limiga kiradi. Agar qaysilir davlatning tarixiy geografiyasini o'rganmoqchi bo'lsak, avvalo tarixiy-iqtisodiy va xo'jalik geografiyasini o'rganishimiz kerak.

Tarixiy geografiyani o'rganish mobaynida o'rganuvchi turli xil muammolarga duch kelishi mumkin. Masalan, qoraxoniylar davlati hududlarini X-XII asrlarda o'zgarib turishi, XVII-XVIII asrlarda Ashtarxoniylar davlati chegaralarining o'zgarib turishi, XVIII asrning ikkinchi yarmi, XIX asrning birinchi yarmi davrida Buxoro amirligi, qo'qon va Xiva xonligining asosiy savdo yo'llarining xaritasi, Chop Rossiyasi mustamlakasi bo'lgan Turkiston siyosiy-ma'muriy ishlari: Amir Temur davridagi voqea-hodisalar. Joylari: Moskva knyazligining XIV-XV asrlardagi yoyilishi va joylashishi kabi muammolardir.

Qaysidir davlatning tarixiy-iqtisodiy va tarixiy-siyosiy geografiyasini o'rganishda avvalo u davlatning iqtisodiy va tarixiy geografiyasini davrlar davomida rivojlanishini ko'rib chiqish darkor bo'ladi. Masalan, O'rta Osiyo, AqSh, Rossiya imperiyasi, Frantsiya, Xitoy, Germaniya, Hindiston va boshqa davlatlarni XVIII asrdan XX asr boshigacha bo'lgan davrdagi tarixiy geografiyasini o'rganishda iqtisodiy va siyosiy geografiya elementlarini birinchi bo'lib o'rganib chiqish kerak. Bk elementlar aholi soni, uning milliy tarkibi, aholining joylashishi, aholining qaysi davlatlarda yashaganligi, bu davlatlar chegarasi, bu geografik hududdagi ichki ma'muriy bo'linishlar tashkil etadi. Muammoning ichki ma'muriy bo'linishlar tashkil etadi. Muammoning eng qiyin tomoni-bu o'rganilayotgan hududning iqtisodiy geografiyasida ko'rsatkichlarning qayd qilinishi, ya'ni ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishini ko'rsatishdir. Shundan so'ng iqtisodiy va siyosiy geografiya asosiy elementlarining o'zgarishlari analizini qilish mumkin. Masalan, AqSh da 1861-65 yillardagi grajdanlar urushi davri Rossiyadagi islohotlarga va islohotlardan keyingi davrlar, Germaniyaning qo'shilishdan oldingi va keyingi davrlari kabilar kiradi.

Yuqorida qayd qilingan tarixiy geografiya predmeti haqidagi tushuncha zamonaviy tarixiy va geografik fanlarda qabul qilingan. Tarixiy geografiya fanining muhim vazifalaridan biri bu o'tgan davrdagi mamlakatlarsiyosiy chegaralarini aniqlash, tarixiy voqea-hodisalarjoyini aniqlash, o'rganilayotgan hudud yoki mamlakatdagi aholi joylashuvida bo'lib o'tgan o'zgarishlarni aniqlash kabilardir. Tarixiy geografiyaning bu qismi siyosiy voqea-hodisalar tarixini o'rganish bilan hukumat faoliyatini, ba'zida hukmdorlar, vazirlar va boshqa hukmron shaxslarni o'rganish bilan uzviy bog'liqdir. Bunday voqea-hodisalarni yaxshiroq tushunish uchun tarixiy geografiya juda kerakdir. Masalan, urushlar va ularning oqibatlarini to'laroq tushunish uchun qo'shinlar harakati, jangning borishi va bo'lib o'tgan joylarni o'rganish darkor. Bu planda Tarixiy geografiya bir qator tarixiy fanlar qatorida turadi. Shuningdek, tarixiy goeografiyaning mazmuni, ayniqsa hozirgi zamon nuqtai nazaridan qaraganda kengroqdir. Tarixiy goeografiyaijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, milliy-ozodlik harakatlarini kengroq o'rganadi. Keng mazmunda tarixiy geografiyani tarixiy jarayonni o'rganuvchi tarix fanining bir bo'limi desak adashmaymiz.

Yuqorida qayd etilganidek, tarixiy geografik izlanishlar tarix fani asoslanadigan manbalarga asoslanadi. Tarixiy geografiya uchun qimmatli bo'lgan manbalar-aholi ro'yxatlari, xo'jalik hisob-kitob daftarlari, yilnomalar, qadimgi geografiyaga oid kitoblar kabilardir. Tarixiy geografiya uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan manbalar yana bu arxeologik manbalardir, u o'tgan davr iqtisodiy geografiyasi uchun alohida muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek toponomik va antropologik manbalar ham tarixiy geografiya uchun muhim manbalar hisoblanadi. Daryolar, ko'llar, shaharlar va boshqa geografik ob'ektlar nomlari, ayniqsa, shu hududda qachonlardir yashagan xalqlar bergan nomlar shu xalqlar bu hududdan turli sabablarga ko'ra ko'chib ketishga ham, ular bergan nomlar saqlanib qoladi. Toponomika xalqlarning qaysi millatga tegishli ekanligini aniqlab beradi. Xalqlar turli joylarga ko'chganlarida o'z yashash joylariga nom beradilar, odamlar ko'proq o'zlari oldin yashagan joylarining nomlarini yangi yashash joylariga ham beradilar. Bu holni biz AqSh shaharlarini turli Evropa davlatlari shaharlari nomi bilan nomlanganligida ko'rishimiz mumkin. Bu nomlar o'sha shaharlar aholisining qayerdan ko'chib kelganligi haqida ma'lumot beradi.

Tarixiy geografiya avvalo tarix fani kabi tarix metodidan foydalanadi. Tarix fani metodologiyasi-ob'ektivlik va tarixiylik metodlaridir. Arxeologiya, toponomika, antropologiya manbalari yuqoridagi printsiplar asosida qayta ishlanadi. Tarixiy geografiya fan sifatida XVI asrda vujudga keldi. Uning vujudga kelishida ikki yirik tarixiy hodisa, ya'ni XV-XVI asrlarda gumanizmning paydo bo'lishi va Buyuk Geografik kashfiyotlar ta'sir qildi. Uyg'onish davrida odamlarda antik davrlarga qiziqish kuchaygan.

Antik dunyoda qiziqish antik davr geografiyasi bilan shug'ullanishga olib keldi. Tarixiy geografiya fanida birinchi bor yaratilgan yirik asar-qadimgi dunyo atlas edi. Uni XVI asrning ikkinchi yarmida aklamand geografi A. Ortemey yaratgan edi. U o'z asariga ilova tarzida zamonaviy dunyo Atlasini keltirgan edi. Ortemey o'z kartalarini qadimgi dunyo haqidagi qisqacha ma'lumotlar bilan keltirar edi. Ortemeyning asaridan so'ng tarixiy geografiya ilmiy targ'ibot sifatida vujudga keldi. Aytib o'tish kerakki, Ortemeyning o'zi antik davrlar ma'lumotlarini tanqidiy nazarsiz qabul qilgan va shu ma'lumotlar asosida o'z xaritalarini chizgan. Ortemeyning bu kamchiligini XVIII asrda Leyden (Gollandiya) universiteti professori Klyuver to'g'irladi. U tarixiy geografiya bo'yicha ikkita nomdor asar-qadimgi Italiya va qadimgi Germaniyaning tarixiy geografiyasini yozdi.

Tarixiy geografiyani rivojlantirish uchun XVII-XVIII asr frantsuz tarixchilari va shu davr frantsuz geografi J. B. Anvil' ham katta hissa qo'shdilar. Ular qadimgi dunyo tarixiy geografiyasi bilan birga o'rta asrlar tarixiy geografiyasini ham o'rgandilar. XIX asrning ikkinchi yarmidan umumtarixiy ilmiy ishlar ijtimoiy-iqtisodiy tarixni o'rganish hisobiga boyib boradi. Bu yo'nalish bo'yicha ko'zga ko'rinarli qilingan ishlardan biri bu 1936 yilda Kembridjda Dabri rahbarligidagi kollektiv tomonidan chiqarilgan Angliyaning tarixiy geografiyasi to'g'risidagi asarni aytishimiz mumkin. Ortemeyning o'zining aytishiga qaraganda, uning ishlari "Tarix nazarida geografiya" edi. Bu asar Angliyaning 1800 yilgacha bo'lgan tarixiy geografiyasi.

Evropada tarixiy geografiya asoschilari safiga A. Ortemey, F. Klyuver, J. B. Anvil', Darbi kabi olimlarning Rossiyadan V. N. Tatiev, N. N. Barsov, S. M. Seredonin, L. A. Svitsin, M. K. Lyubovskiy, M. N. Tixomirov, A. N. Nasanov, I. A. Golubtsov (tarixiy kartografiya asoschisi) O'rta Osiyo tarixida tarixiy geografiya elementlarini A. G. Beruniy, A. B. Narshaxiy, Mirxond, Xondamirning tarixiy asarlarida Z. M. Boburning mashhur "Boburnoma"sida ko'rishimiz mumkin.

O'rta Osiyo tarixiy geografiyasining muhim manbalari antik davr olimlari Gerodot, Polien, Diodot, Kvint Kurtsiy Ruf asarlari, o'rta asrlarga oid G. G. Klavixo, Ibn Battuta asarlarida, zamonaviy olimlar A. Byorns, Vitkevich, Demizon, Vamberi va boshqalar asarlarida aks etgan, yana muhim manbalardan biri Abulg'ozil Bahodirxonning "Shajarai turk" asaridir, undan tashqari XIX asr faylasufi va tarixchisi Ahmad Donish asarlarini ham kiritish mumkin. Tarixiy geografiyaning asosiy qismini yordamchi fanlar tashkil etadi.

Kartografiya-tabiati va jamiyatdagi voqea hodisalarning tarqalishini, ularning birgalikda o'zaro bog'liqligi (ularni vaqt o'tishi bilan o'zgarishini) kartografik tasvir-obrazli belgi modellar

vositasi bilan svirlashni va tadqiqot qilishni o'rgatuvchi fandır. Kartografiya qadimgi fanlardan biri bo'lib, dastlabki bu fan to'g'risidagi ta'rifni (kartografiya terminisiz) er. avv. II asrda yashagan olim Klavdiy Ptolomey bergan.

Kartalar mazmuniga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Umumgeografik kartalar (gidrogeografiya, rel'f, sanoat, siyosiy-ma'muriy bo'linishlar)ni o'z ichiga oladi.

2. Maxsus kartalar-maxsus ma'lumotlar keltirilgan (masalan, iqtisodiy) kartalar.

Masshtabiga ko'ra kartalar uch guruhga bo'linadi:

1. Yirik masshtabdagi kartalar: 1: 200000 va undan yirik.

2. O'rta masshtabdagi kartalar: 1: 300000 dan 1: 1000000 gacha.

3. Kichik masshtabdagi kartalar: 1: 1000000 dan kichia.

Hozirgi zamon kartalaridagi elementlarga quyidagilar kiradi:

1. Gidrogeografiya: suv inshootlarini dengiz, daryo, ko'l, kanal, sun'iy suv omborlari, buloqlar, quduqlarni o'z ichiga oladi.

2. Aholi punktlari shahar, shahar tipidagi posyolka, qishloq aholi punktlari kiradi.

3. Aloqa yo'llari: temir yo'llar, yo'llar, suv yo'li (dengiz va daryo), aviatsiyalar.

4. Sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy madaniy ob'ektlar, sanoat korxonalari, foydali qazilmalar, aerodromlar, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy-madaniy, tarixiy ob'ektlar kiradi.

5. Rel'f: past tekisliklar.

6. Siyosiy-ma'muriy chegaralar: davlat chegaralari va ma'muriy birliklarning chegaralari beriladi.

Tarixiy geografiya-ilmiy fan bo'lib, u asosan tarixiy xaritalar va atlaslarni, ularning metodikasini tuzish bilan shug'ullanadi. Kartografiya metodning tarix fanidan keng qo'llanishi tarixiy kartalarning keng qo'llanishiga, tarixiy geografik monografiyalar, maqolalar, darsliklar, qo'llanmalar yaratilishiga olib keladi. Tarixiy xaritalarda tarixiy jarayonlar, voqea-hodisalar, tarixiy davrlarni xarakterlovchi jarayonlar, shuningdek, geografik oqibatlar ko'rsatib o'tiladi. Umumiy tarixiy xaritalar bu jarayonlarni yanada to'liqroq ko'rsatishga, ochib berishga harakat qiladi. Tarixiy xaritalarning turli xillari bo'ladi: tarixiy-iqtisodiy, tarixiy-siyosiy, tarixiy-etnografik, arxeologik, milliy-ozodlik harakati bo'yicha xaritalar, dehqonlarqo'zg'oloni, inqilobiy harakatlari, harbiy-tarixiy, madaniyat tarixi bo'yicha va boshqa xaritalar kiradi. O'quv tarixiy xaritalar o'rta va oliy maktablarda o'qilayotgan tarixiy davrlarga mos bo'ladi. Tarixiy geografiyaning rivojlanishi har doim tarixiy geografiyaga bog'liq bo'lib kelgan. 1579 yili Orteliy geografik atlasga uchta tarixiy xaritadan iborat qo'shimcha tuzdi. Orteliyning bu qo'shimchasi keyinchalik 1603 yili 38 ta xaritadan iborat bo'lgan antik davrning geografik atlasini tuzilishiga olib keldi.

XVII asrning ikkinchi yarmida frantsuz geograflari Sanson va Dyuvall atlaslarida ham tarixga oid xaritalar bo'limi bor edi. XVIII asr oxirida frantsuz kartografi J. B. Anvil tomonidan tayyorlangan tarixiy xaritalar bosilib chiqdi. Orteliydan tortib to XIX asr oxiriga qadar tuzilgan xaritalarda xalqlarning hududiy joylashishi, siyosiy chegaralar, harbiy yurishlar, jang joylari, geografik sayohatlar marshrutlari, tarixiy voqea-hodisalar joylari aks ettirilgandi. Shuningdek, Orteliy va Dyuvall tomonidan tuzilgan xaritalarda afsonaviy voqea-hodisalar va Injildagi rivoyatlar tasvirlanadi. Masalan, avliy Pavelning sayohati, Ibrohim payg'ambarning sayohati, Troyalik Eneyning suzish marshruti, Odisey yurgan yo'llar tasvirlangan. Keyinroq xaritalarda tarixiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar ham qayd qilina boshlangan.

Tarixiy xaritalar tuzishda tarixiy davrlar ko'pincha chalkashib ketgan, milliy-ozodlik harakatlari aks ettirilmagan. Bir xil tarixiy xaritalarda tarix ataylab buzib ko'rsatilgan. Masalan, 1910 va 1936-38 yillarda Germaniyada chiqarilgan Putzger atlaslarida, Germaniyada avvalo Buyuk davlatchilik shovinizmi va keyinroq fashistcha g'oyalar rivojlanishi bilan xaritalarda Germaniya chegarasi sun'ii ravishda sharqqa surilib boradi. XX asrning ilmiy-tarixiy kartografiyasiga ikkita muhim yo'nalish xosdir. Birinchi yo'nalishga yuksak darajada detallashtirilgan xaritalarni kiritish mumkin. Bularda aholini ma'muriy, ba'zi holda cherkov tomonidan bo'linishgacha bo'lgan aniq dalillar aks ettiriladi. Bunday xaritalar turiga 1895 yilda

chop etilgan avtraliyalik Rixterning atlası, golland A. A. Bekmanning 1913-1938 yillarda chop etilgan atlası kiradi. Ikkinchi tur xaritalariga detallashtirilishi unchalik yuqori bo'lmagan, ammo faqatgina tarixiy-siyosiy emas, balki tarixiy-iqtisodiy, madaniyat tarixi ko'rsatkichlari ham aks ettirilgan xaritalar kiradi. Bunday xaritalar sirasiga 1926 yil chop etilgan nemis Aubinning atlası, Pollin rahbarligidagi 1932 yilda chop etilgan AqSh o'quv xarakteridagi atlası (AqSh ning tarixiy-geografik atlası). 1958-1962 yillari Myunxenda chop etilgan o'quv xarakteridagi "Katta tarix atlası" chop etildi.

Tarixiy kartografiyaning rivojlanishining birinchi bosqichi, Rossiya imperiyasida, XVIII asrning birinchi yarmiga to'g'rikeladi. Birinchi "Rossiya imperiyasining tarixiy xaritasi" 1793 yil chop etiladi.

Harbiy tarixiy xarakterdagi xaritalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bular 1779 yilda chop qilingan "rus-turk va rus shved urushlari davridagi qal'alar joylashuvi hamda jang joylari" atlası, Pyotr I ning fors yurishi kabilardir. XIX asr oxiri va XX asr boshida Rossiya imperiyasida chiqarilgan tarixiy xaritalar asosan o'quv va harbiy xaritalar edi. "Tarix, xronologiya, geografiya atlası" Karamzin va Axmatov tarixlari asosida tuziladi, bundan tashqari 1845 yilda N. I. Povlovning "Rossiyaning tarixiy atlası", E. E. Zamislovskiyning 1865, 1887 yillardagi atlası, A. Il'inning 1812-15 yillardagi urushni tasvirlagan atlası, rus-turk, rus-yapon urushlariga bag'ishlangan atlaslar tuziladi.

1923-25 yillarda V. K. Yatsunskiy tomonidan tarixiy iqtisodiy mazmundagi 1918-19 yillarga bag'ishlangan "Rus tarix atlası" bosilib chiqadi. Bu atlasning xaritalari bo'limlarga bo'lingan: feodalizmgaacha bo'lgan Rus, rus feodalizmi davri, sado kapitalizmi davri, iglab chiqarish kapitalizmi davri, ishlab chiqarish kapitalizmi davri kabi Pokrovskiyning nazariyasiga asoslanadi. Tarixiy xaritalar 1937 yilda tashkil etilgan jahonning "Katta Sovet Atlası" ga kiritildi. Urushdan keyingi davrda Geodeziya va Kartografiya bosh boshqarmasi tomonidan sitemali tarzda, o'rta va oliy maktablar uchun qadimgi dunyo, o'rta asrlar va yangi tarix bo'yicha tarixiy xaritalar chiqarib turildi.

Shu bilan birga yangi tarixiy-iqtisodiy xaritalar tuzildi. Masalan, "Rossiyaning XVII asr oxiridagi iqtisodiy xaritasi", "1861-1900 yillarda Rossiya imperiyasida kapitalizmning rivojlanishi", "XX asr boshida Evropa Rossiyasining ishlab chiqarish munosabatlari va er egaligi".

Yirik kartografik nashrlar orasida 1946 yilda chop etilgan, L. G. Beskrovno'ning "Pruss harbiy tarixi sxemasi xaritalari atlası" alohida ajralib turadi. Urushlarni borish usulini tasvirlab beruvchi harbiy-iqtisodiy xaritalar 1958 yilda tuzilgan. Dengiz atlasiga kiritilgan. Bundan tashqari anchagina tarixiy geografik atlaslar chiqarilgan. Urushdan so'ng chiqqan "SSSR tarixidan hikoyalar", "Jahon tarixi", "Ulug' Vatan urushi tarixi", "Ikkinchi jahon urushi", "Katta Sovet Entsiklopediyasi", "Sovet Tarix Entsiklopediyasi" va turli xil oliy va o'rta maktab darsliklari va qo'llanmalarining har biriga tarixiy xaritalar to'plashi ilova qilingan.

Tarixiy kortografiya rivojlanishida 1958 yil Pol'shada bosilib chiqqan Plots vosvodaligi tarixiga oid Atlasni alohida o'rni bor. Bunday atlaslar ishlab chiqarish kuchlarining joylashishini, ishlab chiqarish munosabatlarini, iqtisodiy o'sishlar ko'rsatkichlarini aniq tasvirlab beradi. Zamonaviy tarixiy geografiya rivojlanishining muhim elementi-bu tarixni aniq davrlashtirish, turli tarixiy jarayonlarni to'la aks ettirish tarixiy jarayonlarning iqtisodiy tomonini ochib berishdir.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, sovet davrida O'rta Osiyo tarixiga doir bir qator tarixiy xaritalar tuzilgan bo'lsa ham, ammo ularning ichida O'rta Osiyoni Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga doir xaritalar yo'q edi. Xuddi shuningdek xaritalar nashr qilinishida evropatsentrik nuqtai nazaridan qaralgandi. Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari tarixiga oid xaritalar yo'q. Bu davrda asosan qadimgi va o'rta asrlardagi Rus haqidagi tarixiy xaritalar ko'p sonni tashkil qilsa. O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid xaritalar juda oz edi.

Umuman olganda, O'rta Osiyo hududlari bo'yicha tarixiy voqealar bilan bog'liq bo'lgandagina tasvirlangan. Masalan, mo'g'ullarning O'rta Osiyoni bosib olishi kabi tarixiy hodisalar yaratilganligi bilan, ammo Amir Temur davlati haqida umuman tarixiy xaritalar

yaratilmagan. XV-XVIII asrdagi O`rta Osiyoda bo`lib o`tgan tarixiy jarayonlarning faqat rossiya tarixiga aloqador bo`lgan qismlarigina aks ettirilgan. Lekin bu xaritalar ham aniq detallashtirilmagan, ba`zi xaritalarda Shayboniylar va Xiva xonligi chegaralari chalkashtirib yuborilgan.

O`rta Osiyo xalqlari tarixiga oid siyosiy-ma`muriy tarixiy xaritalar yaratilgan bo`lsa, demografik xaritalar juda ko`p, hududlarning iqtisodiy tarixiga oid xaritalar umuman bo`lmagan.

Faqatgina XIX asrdan boshlab O`rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so`ng, Turkiston general-gubernatorligi va Chor Rossiyasi vassallari bo`lgan Buxoro amirligi va Xiva xonligining o`sha davrga oid ba`zi xaritalari mavjud. Bu xaritalarning kamchilik tomonlari ko`p bo`lgan. Бундай kamchiliklar O`rta osiyo, umuman O`zbekiston xalqlari tarixiga oid kartografik kamchiliklar, ya`ni xaritalarning etishmasligi O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng tuzila boshlandi. Tarixiy xaritalar ko`paydi., ya`ni O`rta Osiyoning eng rivojlangan davri bo`lgan temuriylar davriga bag'ishlangan xaritalar to`plami chop etildi. Lekin O`zbekiston tarixiy kartografiyasi oldida ko`p muammolar turibdi: Birinchi o`rinda zamon talabiga mos bo`lgan o`zbekiston xalqlari tarixining butun davrlarini qoplab olgan tarixiy xaritalar atlasini yaratish zarur. Agar hozir O`zbekiston xalqlari tarixiga oid tarixiy-siyosiy xaritalar oz bo`lsa ham bor bo`lsada, tarixiy-geografik, tarixiy-iqtisodiy, tarixiyqlegografik xaritalar yo`q hisobida va ularni yaratish O`zbekistonldik olimlarning birinchi shaldagi vazifalaridir. Bunday ishlar boshlandi, lekin hali oldinda og`ir ishlar bor va olimlarimizning vazifasi O`rta Osiyo, O`zbekiston xalqlari tarixining barcha davrlari bo`yicha to`liq va keng qamrovli xaritalar tuzish hamda tarixiy kartografiyani rivojlantirishdir.

Adabiyotlar:

- 1.Hasanov H. Sayyoh olimlar.-T., 1981.
- 2.Karavaev Z. F. Nekotoro`e voproso` sozdaniya istoricheskix kart.-M., 1956.
- 3.Preobrajenskiy A. I. I dr. sostavleniya i redaktirovanie spetsial'no`x kart.-M., 1961.
- 4.Yatsunskiy V. K. predmet izadachi istoricheskoy geografii. "istorik marksist". 1941 № 5.
- 5.Yatsunskiy V. K. istoricheskaya geografiya.-M.. 1955.
- 6.Golubtsov I. A. Voproso` istoricheskoy geografii, arxivovedeniya, arxeologiya i istochnikovedeniya.-M., 1963.
- 7.Mirzaliev T. Kartografiya.-T., 1982.
- 8.Salintsev K. A. kartovedenie.-M., 1990.
- 9.Garaevskaya L. S. Kartografiya.-M., 1971.

2 – Mavzu. Qadimgi davr O`rta Osiyo tarixiy geografiyasi.

Reja:

1. Yunon tarixchilarining O`rta Osiyo tabiati haqidagi tarixiy geografik ma`lumotlari.
2. Rim tarixchilarining O`rta Osiyo tabiati haqidagi tarixiy geografik ma`lumotlari.
3. O`rta Osiyoning qadimgi davridagi xalqlari va madaniyati.
4. Ahmoniylar xukumronligi davridagi O`rta Osiyo tarixiy geografiyasi.
5. Makedonskiy yurishlari davrida O`rta Osiyo.
6. O'zbek davlatchiligi Kushonlar davrida.

O`rta Osiyo g'arbda Kaspiy dengizi, janub va sharqdan Eron Islom Respublikasi, Afg'oniston va Hitoy Halq Respublikasi, shilomdan 45032 shimoliy kenlik bilan chegaralanuvchi ulkan hududda joylashgan bo`lib, jami 1 mln. 984 ming kv. km. ni tashkil etadi.

Bu o`lka qadimiy tsivilizatsiya markazlaridan biridir va yirik imperiya tarkibida jahon siyosiy hamda iqtisodiy tarihida katta o`rin tutgan. qadimgi g'abr va Sharq o`rtasidagi iqtisodiy savdo aloqalarida muhim vositachilik vazifasini bajargan.

O`rta Osiyo haqida geografik, jumladan kattegrafik tasavvurlar tarihi ham ancha qadimgi, aniqrog`i antik davrdan boshlanadi. O`rta Osiyo to`g`risidagi dastlabki kattografik ma`lumotlar antik davrning tsivilizatsiya markazlari bo`lish qadimgi Yunoniston va qadimgi Rimda yozilgan manbalarda uchraydi. Chunki "antik davr mamlakatlari Sharqning ko`plab mamlakatlari bilan ijtimoiy iqtisodiy va madaniy aloqalar bo`lgan, shu tufayli o`z tarixiy geografik va kattegrafik tasavvurlarini kengaytirganlar va boyitganlar". Gerodot, Strabon, Klavdiy, Ptolemey va boshqa antik davr mualliflarining aslardagi O`rta Osiyoning ilk tarihiy tattografiyasiga oid ma`lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Chunonchi, Gerodot (mil. avv. 484-425 yillar) o`zining "Tarix" asarida ko`spiy dengizdan sharqqa bepayon kenliklar mavjudligi haqida ma`lumot beradi. U Kaspiy (Girkan) dengizi yopiq havza deb, uning ko`lami haqida shunday fikr yuritadi: "Uzunligini eshkakli kemada 15 kunda, kengligini esa hammasi bo`lib, 8 kunda suzib, o`tish mumkin". Araks (Amudaryo) haqida ma`lumot berib, Gerodot: "Araks, aytishlaricha, Isterga qaraganda kattaroq va (boshqa daryolarga ko`ra) kichikroq, Lesbos kattaligidan ko`plab orollarga ega... Araks Matiyonlar yurtidan oqib keladi. Gindis (Hind) daryosi ham o`sha erdan oqadi", -deb qayd etgan. R.Ə.Lentsning fikriga ko`ra, Gerodo yozgan Araks daryosi Sirdaryo yoki Tajan daryosi bo`lishi kerak. Ammo ko`plab olimlarning fikriga ko`ra, u Amudaryodir. Gerodot Amudaryoning bir o`zani (O`zboy) Kaspiyga quyilgan deb o`ylagan bo`lsa kerak.

Professor A.Sa`dullaev ham "Araks bu Amudaryo, Matiyon tog'lari, Gerodotning tushunishicha, Pomir yoki Hinduqush tizmalaridir, chunki tarixning (Gerodotning) aytishicha, Matiyon tog'laridan Hind daryosidan ham boshlanadi", -deb yozadi.

Gerodot massegetlarning erlari haqida fikr yuritib, ular "Kasbiy dengizidan sharqqa, quyov chiqish yulidagi joylashgan" deb yozadi. Uning Baqtriya va Xorazm haqidagi ma`lumotlari ham qiziqarlidir: "Osiyoda bir vodiy bor. Uning hamma tomoni tog' bilan o`ralgan, tog'ni esa beshta dara kesib o`tadi. Bir vaqtlar bu vodiy horazmliklarga qarashli bo`lib, horazimlik, partiyaliklar, saranglar va tamaneylarning chegaradosh erlarida joylashgan".

Yuqoridagi ma`lumotlardan kelib chiqib, J.Tomson. V.Fedchina. V.Dement'ev. O.Andryushenkolar Gerodot ma`lumotiga tayanib, kartalar yatargan. J.Tomson Kasbiy dengizining kenligini uzaytirib yuborgan, bu esa Gerodot yozganlariga mos tushmaydi. V.Dement'ev. O.Andryushenkolar Araks (Amudaryo)ni birmuncha to`g`riroq chizganlar, lekin uning Kaspiyga quyiluvchi irmog`itasvirlanmagan. Shuningdek, baqtriyaliklar yurti ham aks etmagan. V.Fedchina tiklagan kartada Gerodot tilga olgan "botqoqlik va ko`llar" mavjud hududlar tasvirlangan bo`lsa-da, biroq baqtriyaliklar va massagetlar erlari chizilmagan.

Yana bir yunon olimi Gerodotning tarixiy an`analarini davom ettirgan Ktesiy O`rta Osiyoda bo`lmagan bo`lsa-da, lekin bu erlar haqida bir qadar ma`lumotlarga ega bo`lgan. Uning qayd etishicha, qariyb barcha halqlar satrapliklarga bo`lingan bo`lib, fa-atgina sak qabilalarigina satrapliklarga kirmagan. Ktesiy davrida sharqdagi yirik va ahamiyatli satrapliklardan biri Baqtriya, Sug'diyona, Hind daryosi yo`nalishidagi hududlarni o`z ichiga olgan edi.

Baqtriya erlarida kumush konlari haqida gapirib, Ktesiy ushbu zaminni chuqur er qatlamlarida ushbu metalning ko`pligini yozadi.

Ktesiyga ko`ra, sharqda yirik Shimoliy dengiz (Kasbiy dengizi), bo`lib, dengiz bo`yiga girkanlar va ularning qo`shnisi darbiqlar istiqomat qilganlar. Ulardan ham sharqda esa parfiyalik va barkaniyaliklar horamney va Karmoniylar istiqomad qilishgan. Baqtriya "tekisliklari"ga esa g'arbdan faqatgina kichik tog' yo`li orqali o`tish mumkin. Baqtriya erlari Tanais daryosidan Hind daryosi bo`ylarigacha bo`lgan erlarni egallagan. Tanais Baqtriya erlarini Evropadan Hind va Hindistonni ajratib turgan. Ktesiy tasavvuriga ko`ra, Tanais Hind darsiga qarama-qarshi bo`lib, Pont (qora) dengiziga quyilgan. Shu o`rinda ta`kidlash kerakki, Ktesiyning Tanais deganda ikki daryo-Don va sirdaryo haqida ma`lumotlar bir-biriga ziddir. Ktesiy yozganidek, Baqtriya erlarini Tanais bo`ylariga cho`zilganligini etiborga oladigan bo`lsak, u holda Tanais daryosi bu Sirdaryo bo`ladi va bu nisbat noto`g`ri tushuncha. Baqtriya satrapligi Ktesiy davrida ham, Aleksandr Makedonskiy zamonida ham Sirdaryogacha bo`lgan hududlarni qamrob olgan edi.

O`rta Osiyo haqida ma`lumotlar keyinroq Aleksandr Makedoniskiy yurishlari (mil. avv. 329-327 yillar) davrida to`plandi. Julmadan, antik davrning yirik geograf olimi Strabon milodiy birinchi asrda 17 ta kitobdan iborat "Geografiya" asarini yaratdi. U "miloddan avvalgi V asrdan milodiy I asrdacha bo`lgan barcha geograf va tarixchilarni asrslaridan tanqidiy foydalandi".

"Geografiya"ning XI kitibida O`rta Osiyoning Parfiya va Gerkaniya kabi o`kalari, Amudaryo, Sirdaryo haqida ma`lumotlar uchraydi. Shuningdek, kitobda O`rta Osiyoda yashovchi sak, so`g`d, skif, massaget kabilalari haqida ham ma`lumotlar bor. Yaksart (Sirdaryo), Politimet (Zarafshon), Эpard (Murg'ob) daryolari haqida yozilgan; Amudaryo Araks yoki Oks deb atalgan. Uning suvlari esa botqoqliklarga emas, "suvlar mamlakati"ga singadi. "Suvlar mamlakati", Shimoliy dengiz deganda, Strabon Orol dengizini tushungan, Amudaryoni bir o`zini Girkan qultug`iga quyiladi, deb o`ylagan.

Yaksart haqida Strabon quyidagicha yozadi: "Yaksartning boshlanishi Oks daryosi (boshlanishi)dan boshqa joyda, ammo ular bitta dengizga quyiladi". Bu dengizni Strabon Kaspiy deb tushungan. Sababi Kaspiydan sharqdagi o`lkalar haqida yozganda, "birorta ham yunon va rim mualliflari o`z asarlarida Orol dengizi haqida bevosita yoki bilvosita eslatmagan". Ammo akademik L.S.Berg bir tadqiqotida Shimoliy dengiz deganda Strabon Orol dengizini tushungan, deb yozadi.

Strabon "Geografiyasi"da Politimet (Zarafshon) daryosi haqida ham ishonchli ma`lumotlar uchraydi: "So`g`diyona ichidan oqayotgan daryoni aristotelning aytishicha, makedonlar Politimet edeb atashgan. Ariylar eridan oqayotgan Ariy daryosiga o`xshab bu daryo ul diyor erlarini sug`orib, so`ngra cho`l tomonga davom etadiva va qumlar ichida yo`qolib ketadi". Bu ma`lumotlardan bilishimiz mumkinki, Zarafshon antik davrda ham xech bir daryoga quyilmas dan qumlarga singib ketgan.

Strabon Yaksart va Oks daryolari bo`ylarida yashovchi qabilalarning joylashuv holatiga ham to`g`ri baho beradi. U parompis (Hinduqush) tog`larining ishmoliy tarmog`ini Imaus (Pomir) tog`lari deb biladi. Strabonga ko`ra, O`rta Osiyoda massaget qabilalarining bir qismi tog`larda, yana bir qismi tekisliklarda, uchinchi qismi botqoqliklarda, to`rtinchi qismi esa ana shu botqoqliklardagi orollarda istiqomat qilganlar.

Strabon tilgan olgan tog`lar Orol dengizi va Kaspiydan Sharqdagi tog`lar, ya`ni Tyanshan va Pomirni, vodiylar deganida esa Amudaryo va Sirdaryo oralig`idagi eralrni nazarda tutgan.

qadimgi dunyoni geografik hamda kartografik bilimlarini umumlashtirgan mashhur olimlardan biri milodiy II asrda yashagan. Yirik kortograf olimi Klavdiy Ptolemeydir. Uning "Geografiyadan qo`llanma" asari antik davrning o`ziga hos geografik entsiklopediyasidir. Ptolemen mazkur asarni birinchi bobida geografiyaning vazifalari va dunyo kartasini tuzishda qanday kortografik proektsiyani qo`lash lozimligini bayon etgan. Umuman, bu asarni dunyoning geografik atlasida ham bo`lidi. Ptolemey bu asaridan tashqari 27 kartani o`z ichiga olgan dunyo atlasini tuzdi. Ptolemeyning boshqa yunon mualliflaridan afzalligi shundaki, u o`ziga ma`mul barcha faktik ma`lumotlarni kartalarga tushirdi va shu tariqa katta geografik asar yaratdi. Ana shuning uchun ham u "Uyg`onish davrigacha va uyg`onish davrida ham ko`plab evropalik olimlar uchun oliy darajadagi geograf sanalgan". Ptolemeyning "geografiya" asarini ayniqsa, kartalarini yuqori baholab, A.Gumbol'dt shunday yozgan edi: "Shubhasiz, Ptolemey "Geografiya"si shunisi bilan qadirligi, ubizga butun qadimga yunonni faqatgina tasvirlar emas, hisob yo`li ya`ni joylarning kengligi , qutb balandligi va kun davomiyligini aniqlash bilan tasavvurlar hosil qildiradi". Ya`ni Ptolemeyning kartalarida gradu to`ri ishlatilgan бўлиб ular o`z davriga nisbatan ilmiy jihatdan ancha yuksak darajada edi.

o`rta Osiyo Ptolemey "Geografiya"sining V-VII boblarida 12 ta kartada berilgan bo`lib, 48 ta viloyatga bo`lingan. Uning atlasidagi 22 kartada O`rta Osiyoning 810-1470 sharqiy uzunlik va 350-650 shimoliy kenlik orasidagi O`rta Osiyo hududlari ham aks ettirilgan. Ushbu karta tahlili bo`yicha S.A.Vyazigin, B.P.Ditmar, V.V.Latishevlar mahsus shug`ullanishgan.

Mashhur sur geografi I.V.Mushketov fikriga ko`ra, Ptolemeyning bu kartasida hatto XVIII asrning birinchi yarmidagi evropalik olimlarning ma`lumotlariga qaraganda ham Turkiston tug`risida kengroq va to`g`ri ma`lumotlar bor. Ptolemey qadar barcha

yunon muarrixlari Kaspiy dengizini dunyo okeani qultig'i deb, noto'g'ri tasavvurga ega edilar. Ptolemey ana shu hukumron hato tasavvurni inkor qilibgina qolmay uning noto'g'riligini isbotlab ham bera oldi.

Ptolemey kartasida Yaksart(Sirdaryo), Politimet(Zarafshon), Oks(Amudaryo va uning irmoqlari), Ox(Tajan)vaMarg(Murg'ob) daryolari, boshqa ko'plab kichik daryolari bor. Biroq, O'rta Osiyoning yirik daryolari Kaspiy dengiziga quyiladigan qilib tasvirlangan. Kaspiy dengizi esa sharqdan g'arbga cho'zilib chizilgan.

Kartada tarixiy hududlar (So'g'diyona, Baqtriya, Marg'iyona), xalqlar (xorazmliklar, zariasplar, massagetlar) shaharlar (Tribaktra, Astkana, Xaraxarta, Marakanda, Turkana, Antioxiya-Marg'iyona) aks ettirilgan. Shuningdek kartada Sirdaryo va Amudaryoning o'rta oralig'idagi xudud Transoksiana deb atalgan.

Klavdey Ptolemey kartasi yana shu jihatdan ahamiyatli, unda O'rta Osiyodagi davlatlar chegaralab berilgan. Bundan tashqari, u etnografik jihatdan ham harakterli. Kartada 12 qabila (horozimliklar, toharlar, massegetlar vahokazo) ajratib ko'rsatilgan.

O'rta Osiyo tog'lar orasidagi bir vodiy qilib ko'rsatilgan: janubda-Paropamis tog'lari, sharqda-meridional cho'zilgan Imaus (Pomir) tog'lari bor.

Biroq shahar va qabilalar tasvirida ham bir qancha hatolar uchraydi. Ba'zi shaharlarning nomi xar hil berilgan bo'lib, geografik o'zni ham turlicha aniqlangan. Masalan, Samarqand (Ptolomeyda-Marakanda) shahri Shaxri xaqiqiy geografik o'rnidan bir necha gradus janubda ko'rsatilgan. Ammo ba'zi bir tadqiqotlarda bu shaxar haqidagi Ptolemey tasavvuriga yangiliklar ham kiritilgan. Ptolemey bu shaharni koordinatalarini quyidagichaaniqlagan: 1120 shimoliy uzunlik 390 15 sharqiy kenglik. Ptolemey kartasida Marakanda uchun aniqlangan kenglikning Samarqand shahri kengligiga to'g'ri kelishi tasodifiy xol bo'lsa kerak.

Ammo So'g'diyonaning Marakanda shahrini o'zining VIII kitobida eslatgan Ptolemey bu mashxur shaharni kartada ko'rsatmasligi mumkin emas.

Antik davr olimlarining O'rta Osiyo haqidagi deyarli etti asr mobaynidagi, ya'ni Gerodotdan Ptolemeygacha bo'lgan kartografik tasavvurlarini mumumlashtirib, quyidagicha hulosa qilish mumkin.

- antik davrning kartografik tasavvurlari o'z davri uchungina emas, balki keyingi avlodalar (ayniqsa, evropaliklar)uchun ham ancha vaqtgacha O'rta Osiyo haqidagi asosiy ma'lumotlar bo'lib qoldi;

- Ptolemeyning kartografik materiallari antik davr olimlarining O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlarini boyitdi;

- antik mualliflarning cheklangan va bir biriga zid tasavvurlari vaqt o'tishi bilan keyingi tadqiqotchilarni qanoatlantirmadi. Bu esa, yangi kartografik ma'lumotlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Barcha dalili ashyolar miloddan avvalgi so'nggi ming yillik boshlarida, aniqrog'i VIII-VII asrlarda ajdodlarimizning Vatanimiz hududlarida Xorazm va Baqtriya nomi bilan mashhur bo'lgan dastlabki davlatlarni barpo etganidan, bu davlatlar o'ziga xos rivojlanish jarayonini bosib o'tganligidan guvohlik beradi.

Xorazm davlati egallagan hududlar hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki undan ancha janubga, ya'ni Marv (Turkmaniston), Hirot (Afg'oniston shimoli) atroflariga qadar ham yoyilgan.

Miloddan avvalgi so'nggi ming yillikning boshlariga tegishli «Amirobod madaniyati», quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o'ziga xos sun'iy sug'orish inshooti tizimi hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar-Qal'aliqir, Ko'zaliqir va boshqalar bular Xorazm vohasida davlat tuzilmalari mavjudligidan dalolat beradi.

Qadimshunos olim Yahyo G'ulomov tomonidan Xorazmda aniqlangan 200 km uzunlikdagi, eni bir necha o'nlab metrda iborat bo'lgan kanal o'zani, obod dehqonchilik madaniyati Xorazm davlati qadimdan insoniyatning yirik madaniy maskanlaridan biri sifatida shuhrat topganligidan guvohlik beradi.. «Avesto»da Xorazm Markaziy Osiyodagi rivoj topgan,

o'z hududi, chegaralariga ega bo'lgan o'lka (davlat)lardan biri sifatida tilga olinishi ham bejiz emas. Gerodot ma'lumoticha qadimda Oks daryosi bo'ylab 360 dan ziyod sun'iy sug'orish kanallari, suv inshootlari barpo etilib, cho'lli, sahroli yerlarga suv chiqazilib dehqonchilik uchun ekin maydonlari kengaytirib borilgan. Gerodot taasurotlarida Xorazm o'lkasida yashagan aholi dehqonchilikda katta tajribaga ega bo'lib, ular donli, dukkakli ekinlar, chunonchi, bug'doy, sul, arpa, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini mo'l-ko'l yetishtirganliklari qayd etib o'tiladi. Xorazm shaharsozligida xom g'isht, paxsalardan keng foydalanilgan, binolarning tashqi va ichki ko'rinishlariga maxsus ishlov berilib, ularning mustahkamligi, o'ziga xos ko'rkamligi ta'minlangan. Bu qo'hna hudud bag'rida ming yillar davomida zamonlar silsilasidan o'tib, saqlanib kelayotgan ko'plab asori-antiqalar, shahar-qal'alar xarobalari, qoldiqlari ham buni isbot etadi. Xorazm vohasida hunarmandchilik, tog'-kon ishlari ancha rivojlangan. Bu yerdan qazib olingan qimmatbaho zumrad toshlar ishlov berilib, yuksak sifat ko'rsatkichiga yetganidan keyingina u muhim tayyor mahsulot sifatida foydalanishga chiqarilgan. Xorazm zumradi Sharqning bir qator, jumladan Eron, Xitoy, Hindiston, Misr singari mamlakatlariga ham yuborilgan.

Xorazmda aholisining bir qismi chorvachilik bilan shug'ullangan, ularning tuya, ot, qo'y-echkilardan iborat suruvlari bo'lgan. Savdo bozorlarida g'alla, meva, chorvachilik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari ayirbosh qilingan.

Afsuski, Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolalar to'g'risida ma'lumotlar hozircha aniq emas. Rivoyatlarga ko'ra, Xorazmning qadimiy siyosiy sulolasi Siyovushiyalar bo'lganligi zikr etiladi. «Avesto»da ta'kidlanishicha, Siyovarshon Kaykovusning o'g'li bo'lgan. Siyovarshon o'limidan so'ng uning nabirasi Kova Xisrav bobosi qotilidan o'ch olib, hokimiyatni egallab Xorazmda Siyovushiyalar sulolasiga asos solgan.

O'zbek davlatchiligining yana bir asosi-Baqtriya podsholidir. Uning tarkibiga hozirgi Surxondaryo, Tojikiston janubi, Afg'onistonning shimoli-sharqiy qismi, shuningdek, Sug'diyona va Marg'iyona yerlari ham kirgan.

Baqtriyadagi ko'pdan-ko'p yirik shaharlar orasida Baqtra mashhur shahar bo'lib, mamlakatning poytaxti hisoblangan. Baqtra baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan, unda hukmdor qal'asi alohida joylashgan.

Rim tarixchisi Kursiy Rufning guvohlik berishicha, «Baqtra daryosi nomidan shahar, viloyatning nomi kelib chiqqan». Umuman tarixiy ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, qadimgi davlatlar nomlari ko'pincha daryo, qabila, xalq yoki shaharlar nomiga qiyosan kelib chiqqan bo'ladi.

Binobarin, «baqtriyaliklar», «Baqtriya xalqi» iboralari juda qadimgi manbalarda tilga olinib, bitta xalqni yoki bir necha qarindosh qabilalarni birlashtirgan tushunchani anglatadi.

«Avesto» kitobida ham Baqtriya «Eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan biri bo'lgan, baland bayroqli, go'zal o'lka» sifatida ta'riflangan, Bu xildagi fikr-mulohazalar Baqtriyaning o'z davrining yirik davlatlaridan biri bo'lganligidan dalolat beradi.

Ktesey ma'lumoticha, Baqtriyaga qarashli Vaxsh-Oks vodiysi obi-hayotga mo'l-ko'lligi, unumdor yerlari ko'p bo'lganligidan, bu hududda dehqonchilik madaniyati taraqqiy topgan, aholi bog'dorchilik, mevachilik mahsulotlari yetishtirishda omilkor bo'lgan. Qashqadaryo vohasining miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga oid Sangirtepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Zarafshon vodiysida Afrosiyob, Ko'ktepa singari aholi manzilgohlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu joylarda o'troq turmush kechirgan qavm, elatlar dehqonchilik bilan faol shug'ullanganlar. Xuddi shunday fikrni So'g'diyona hududlariga nisbatan ham aytish mumkin.

Shunday qilib, Xorazm va Baqtriya davlatlarida kechgan siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy madaniy jarayonlar ajdodlarimizning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot yo'lidan ilgarilab borib, o'z davlatchilik tuzilmalarini vujudga keltirib, boshqaruv usullarini takomillashtirib borganligidan

guvohlik beradi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, shaharsozlik, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish qurollarining takomillashib borishi ulug' bobokalonlarimiz o'lmas dahosi, salohiyatining yorqin ifodasidir. Bular qadimgi o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribasining muhim jihatlari, namunalari sifatida alohida qimmatga egadir.

Xorazm salavkiylar davrida ham o'z mustaqilligini saqlab qoldi va yuksalib bordi. Mil.av.II asrda So'g'diyona va Shosh (Toshkent) Xorazm tasarrufiga olinadi. Bu davrda Xorazm davlati tarixiga, rivojlanish jarayoniga oid bo'lgan eng ko'p ma'lumotlar Xitoy manbalarida uchraydi. Xitoy manbalarida Xorazm Qang'a davlati degan nom bilan tilga olinadi. Aftidan, Xitoyning Xan sulolasi hukmdorlari O'rta Osiyo xalqlari hayotiga va hududning muhim jo'g'rofiy mavqei, tabiiy boyliklariga alohida qiziqish bildirib, o'z elchilarini yuborganlar hamda ular bilan yaqindan bog'lanishga harakat qilganlar. Bugina emas, hatto mil.av II asr boshlarida bu hududni qo'lga kiritish maqsadida katta qo'shin tortib bostirib kelganlar ham.

Xorazm mil.av. II asr boshlarida yanada kengayib, sharqda Farg'ona, shimoliy-sharqda usun, yuehji qabilalari bilan, shimoliy g'arbda Sarsu daryosi bo'ylab chegaralangan. Janubda Baqtriya va Parfiya chegaralari yetib borgan. Boshqacha qilib aytganda, Amu va Sirdaryo oralig'idagi katta hududlar shu davlat tarikibiga kirgan. Uning yirik shaharlari sirasiga mil.av. II-I asrlarda Aris daryosi sohilidagi O'tror va hozirgi Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani hududida joylashgan Qanqa shaharlari ham kirgan. Bu shaharlar o'sha davr shaharsozligining yuksak namunalarini o'zida mujassamlashtirgan. Davlatni boshqarishda podshohning roli va o'rni katta bo'lgan. Shu bilan birgalikda davlat va jamiyat hayotiga oid ko'plab muhim masalalarni hal etishda urug' va qabila oqsaqollaridan iborat Oliy Maslahat kengashining mavqei ham alohida o'rin tutgan. Binobarin, podshoh o'z ichki va tashqi siyosatini yuritishda mazkur kengash bilan maslahatlashgan. Viloyat boshliqlari turkiy maqomda jobu yoki yobular deb atalganlar. Ular o'z hududlarini boshqarishda bir muncha mustaqillikka ega bo'lib, markaziy hokimiyatga boj to'lab turganlar. Davlat hukmdorlari mintaqadagi siyosiy vaziyatga ham faol aralashib, undagi muvozanatni saqlash bobida izchil siyosat olib borganlar. Ayniqsa, ular Xitoyga nisbatan mustaqil siyosat yuritganlar. O'z qo'shnilari-Dovon, Qashg'ar, Yorkent singari mustaqil hududlarga nisbatan Xitoyning da'vosi va istilochilik yurishlariga keskin qarshi chiqqan va lozim bo'lganda o'z harbiy kuchlari bilan ularga yordamga kelgan. Mamlakat aholisining asosiy tarkibini turkiy etnoslar tashkil etgan. Ular asosan o'troq hayot kechirganlar. Aholining ma'lum qismi ko'chmanchilik bilan shug'ullangan. Daryo va soylarga tutash vohalarda dehqonchilik madaniyati rivojlangan. Chunonchi, Toshkent vohasida boshqoli, dukkakli o'simliklar ko'p miqdorda o'stirilgan, shirin-sharbat mevalar yetishtirilgan. Shaharlarda savdo-sotiq, hunarmandchilik rivoj topgan. Mahalliy hunarmandlar tayyorlagan urush qurollari (qilich, xanjar, oybolta, o'tkir uchli nayzalar va boshq.), xo'jalik asbob-uskunalariga talab talab-ehtiyoj katta bo'lgan. Qoramozor, Qurama va Chotqol tog'larida temirchilik, miskarlik hunarini rivojlantirish uchun kerak miqdordagi mis, temir, kumush, qo'rg'oshin singari ma'danlar qazib olingan. Toshkent atrofidagi Oqtepa 1, Oqtepa 2, Choshtepa, Qovunchitepa, shuningdek, O'tror, Sirdaryo havzasida topilgan ko'plab noyob dalillar yuksak moddiy va madaniy hayot tarzi mavjud bulganligidan dalolat beradi. Buni «Qovuntepa madaniyati» nomi bilan tarixga kirgan qadimgi madaniyat namunalari ham isbot etadi. Chorvachilik va yilqichilik to'g'risida ham alohida fikr aytish mumkin. Xitoyliklarni maftun etgan zotdor, tulpor otlar xuddi mana shu hudud va qo'shni Davan yaylovlarida boqilgan. Xitoy solnomachilari chorva mollarining mo'l-ko'lligini, sut-qatiqlarning g'oyatda mazali va to'yimligini ta'rif etganlar. Xorazm davlatining xalqaro karvon savdosidagi mavqei ham baland bo'lganki, bunda Buyuk ipak yo'lining roli katta bo'lgan.

Davan yoki Parkana nomi bilan mashhur bo'lgan, ajdodlarimiz tomonidan Farg'ona vodiysida barpo etilgan yana bir davlat Vatanimiz hududidagi qadimgi davlatlardan sanalsa-da, biroq uning haqqoniy tarixi xususida hozirgacha to'la ma'lumotlar topilmagan. Xitoylik elchi Chjan Syan yozma manbalarida Farg'ona vodiysidagi davlatni Davan (ulug' Van) deb atalgan. Vaholanki, Farg'ona vodiysi ham ajdodlarimizning madaniy, o'troq hayot kechgan, o'z davlatchi-

ligiga ega mustaqil hudud sifatida Xorazm, Baqtriya singari qadimgi davlatlar bilan tenglasha olishga hech bir shubha yo'q. Buni mil.av. II asr boshlarida tashrif buyurgan. Xitoy elchisi Chjan Syan yozib qoldirgan esdaliklar ham isbot etadi. Manbalarda aytilishicha, bu davrda Farg'onada 300 ming nafar aholi yashagan. Uning 70 dan ziyod katta-kichik shaharlari bo'lib, ularda savdo-sotiq, hunarmandchilik yuksak darajada rivojlangan. Mamlakat poytaxti Ershi (hozirgi Andijon viloyatining Marhamat tumanida joylashgan) o'z davrining obod, ko'rkam va aholisi gavjum shaharlaridan sanalgan. Qadimgi O'zgan, Koson ham davanning eng mashhur shaharlari sirasiga kirgan. Davan hududida 10 dan ortiq yirik dehqonchilik manzilgohlari mavjud bo'lib, ularda yerli mirishkor aholi sholi, bug'doy, paxta va boshqa dehqonchilik ekinlari yetishtirish bilan shug'ullangan. Bularga Aravonsoy, Oqbo'ra, Sultonobod, Qo'rg'ontepa, Andijonsoy, Maylisoy, Ulug'nor, Yilg'insoy, Shahrixonsoy kabi dehqonchilik makonlarini aytish mumkin. Xitoy sayyohi vodiya uzumchilik nihoyatda rivojlanganiga, shu bilan birga undan noyob sharbat va uzoq muddat saqlanadigan, quvvati o'tkir vinolar tayyorlash yuksak darajada yo'lga qo'yilganligi alohida urg'u beradi. Davandagi ijtimoiy-siyosiy hayotning yana bir muhim jihati-bu ayollarning jamiyatda tutgan mavqeining alohidaligidadir. Chjan Syanning e'tiroficha, bu yerning erkaklari ayollarga alohida hurmat ko'rsatganlar. Boshqacha qilib aytganda, xotin-qizlarning har qanday topshirig'i erlar tomonidan bajarilishi shart hisoblangan. Davlat hukmdori mamlakat hayotiga oid har qanday ichki va tashqi masalalarni hal etishda Oqsoqollar kengashiga, ularning maslahatlari va yo'l-yo'riqlariga suyangan. Ayniqsa, urush va tinchlik, elchilik aloqalari masalalasida Oqsoqollardan iborat oliy kengash alohida vakolatlarga ega bo'lgan. Hukmdor buni e'tirof etishga majbur bo'lgan.

Xitoy Farg'ona davlatining boy-badavlat turmushiga, uning boyliklariga ko'z olaytirib, unga qarshi bir necha bor katta qo'shin tortib bostirib kelgan. Chunonchi, mil.av. II asr oxirlarida (104 yilda) va milodiy 1 asrning 80-yillarida xitoyliklar Davan davlatini o'zlariga bo'ysindirish uchun u bilan shiddatli urush olib borganlar. Davanliklar o'z qo'shnilarini-Xorazm va Kushonlarning harbiy yordami bilan yurt mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ladilar. O'rta Osiyo hududlarini kuch bilan egallash mumkin emasligini tushungan Xitoy tomoni shundan so'ng Davan davlati bilan shartnoma tuzadi. Bunga ko'ra ikkala davlat o'rtasida diplomatik va savdo-sotiq munosabatlarini yo'lga qo'yish, jumladan Farg'onaning uchqur arg'umoqlarini xitoyga sotishga kelishib olinadi. Farg'ona hududi O'rta Osiyo ijtimoiy siyosiy hayotida sodir etilgan keyingi muhim o'zgarishlar jarayonida ham o'zining nisbiy mustaqilligini bir muncha saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan.

Mil.av. II asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkiston hududlarida yashovchi turkiy qavmlar qo'shnisi xunlar tazyiqiga uchrab, ularning siquviga bardosh berolmay G'arbga tomon siljiydilar. Xitoy manbalarida ular yuyechjilar deb atalgan. Yuyechjilar Issiqko'l atrofida sak qabilalari bilan to'qnashib, ularni janubiy-g'arb tomonga suradilar. Biroq. Yuyechjilar usun qabilalari zarbasiga uchrab janubga siljib, mil.av. 130 yillarda So'g'diyona hududiga kirib keladilar. Yuyechjilar, Xitoy tarixchisi Chjan Syan ta'kidlashicha, Sug'diyonadan Baqtriyaga yuradilar va Baqtriyadagi yunonlar hukmronligini ag'daradilar. Yuyechjilar Farg'ona vodiysini ham egallaydilar.

Xitoy manbalarida ta'kidlanganidek, yuyechjilar beshta siyosiy xonadonga mansub edilar. Go'yshuan, (Kushon). Xyumi, Shuanmi, Xise, Xuanmi. Ularning har biri qariyb yuz yilgacha alohida-alohida siyosiy kuch hokimlik bo'lib, yagona hukmdorga bo'ysunmagan holda faoliyat yuritadilar. Milodning I asrida Kushonlar xonadoni boshlig'i Kujula Kadfiz (Kioszyukyu) barcha yuyechji qabilalarini birlashtiradi va butun Baqtriyada siyosiy hokimiyatni egallaydi.

Kujula Kadfiz qo'shni hududlarga yurish uyushtirib, So'g'diyona, Marg'iyona, Hindistonning Shimoliy G'arbiy qismini zabt etadi. Kujula Kadfiz keyinchalik Amudaryo bo'ylari, Qobul va Qandahor hududlarini ham egallaydi. Bu davrda mamlakat poytaxti Dalvarzintepa (Hozirgi Surxondaryo viloyatida) shahri bo'lgan. Shu tariqa, Kushonlar sulolasi davrida O'zbek davlatchiligi salatanatlik bosqichiga ko'tariladi.

Kushon hukmdorlari to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, bunda bu davlatga asos solgan Kujula Kadfiz (milodning I asri boshlari), uning o'g'li Vima Kadfiz (Milodning I asri o'rtalari), Kanishka (78-123 y.y.) va ularning avlodlari-Vasishka, Xuvishka, Kanishka II, Vasudeva, Kanishka III, Vasudeva II nomlarini tilga olib o'tmoq joiz bo'ladi.

Kadfiz I davrida zarb etilgan tangalarda «Kujula Kadfiz Yabg'u» degan so'zlar uchraydi. Uning o'g'li Vima Kadfiz davri ham muhim o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu davrga kelib Shimoliy Hindistonning bir qator muhim hududlari egallanadi. Vima Kadfiz mamlakatda pul islohoti o'tkazib, vazni 8 gr og'irlikdagi oltin tangalarni zarb qildirib muomilaga chiqartiradi. Bu esa xalqaro savdoda davlat obro'sining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Xuddi shu vaqtda Rim imperiyasi bilan savdo-sotiq aloqalari kuchayadi. Kushonlar mavqeining kuchayishi Kanishka davriga to'g'ri keladi. Bu paytga kelib Hindistonning Peshovor, Panjop, Kashmir va boshqa markaziy hududlari, shuningdek, Sharqiy Turkistonning ancha qismi saltant tarkibiga kiritiladi. Bu davrda mamlakat poytaxti ham Peshovorga ko'chirilgan. Usta siyosatchi, yetuk sarkarda bo'lgan Kanishka mamlakat ichki hayotida muhim ijtimoiy siyosiy va ma'naviy o'zgarishlarni amalga oshirish barobarida tashqi siyosatda ham g'oyatda uddaburonlik bilan faoliyat yuritadi. Uning din sohasida o'tkazgan siyosati muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Garchand uning davrida Budda dini davlatning rasmiy dini darajasiga ko'tarilsada, biroq mamlakatning turli hududlarida mahalliy aholi oldindan e'tiqod qilib kelgan boshqa dinlar erkinligi va daxlsizligi saqlanib qoldi. Hatto zarb etilgan oltin va kumush tanga pullarda budda xudosi bilan bir qatorda mahalliy xalqlar e'tiqod qo'yib kelgan xudolar-Anaxita, Mitra, Veretragna, Vaxsh va boshqalarning ham tasvirlari tushirilganligi bunga yorqin dalildir. Bu davrda zarb etilgan tangalar avvalgidek yunon tilida emas, balki mahalliy Kushon-Baqtriy tilida chiqarilganligi alohida e'tiborga loyiqdir. Bunday uzoqni ko'zlab oqilona yuritilgan siyosat turli aholi qavmlari, ijtimoiy guruhlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Biroq Kanishkadan so'ng hokimiyatga kelgan Vasishka, Xuvishka, Vasudevalar davriga kelib Kushonlar sulolasi bir qator ob'yektiv va sub'yektiv sabablar orqasida asta-sekin inqirozga uchray boshlagan. Ayniqsa, III asr o'rtalariga kelib qo'shni davlat-Parfiya o'rnida yangidan vujudga kelib, tobora kuchayib borgan Eron Sosoniylari hukmdorlarining to'xtovsiz olib borgan urush harakatlari natijasida Kushonlar mavqei zaiflashib, hududlari kichrayib bordi. Janubda Hind yerlarining Kushonlar tasarrufidan mustaqil bo'lib ajralib chiqish jarayoni kuchaydi. Keyinchalik Xorazm, So'g'diyona sarhadlari ham o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritadi. Buning oqibatida Kushonlar sulolasi oxir-oqibatda halokatga uchradi.

Kushonlar sulolasi hukmronligi davri ko'hna tariximizda katta iz qoldirgan ekan, buni uning tarkibiga kirgan har bir hudud yohud elatlar misolida yaqqol ko'rsa bo'ladi. Uning dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryo), unga tutash Xalchayon (Denovda), Zartepa, Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom (Termiz atroflari) va boshqalar Kushonlarning eng rivoj topgan savdo-sotiq, hunarmandchilik sohalar o'sgan gavjum shaharlari hisoblangan. O'lkamizda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati nihoyatda taraqqiy etgan, ko'plab sug'orish inshootlari barpo etilgan. Surxondaryo vohasida Eski Angor, Zang, Sug'ddagi Darg'on kanallari shular jumlasidandir. Vatanimiz hududida shaharsozlik, me'morchilik xaykaltaroshlik, kulolchilik singari hunarmandchilik turlari yuksak darajada taraqqiy etgan. Buni ko'xna Tuproq qal'a, Ayritom, Termiz, Axsikent shaharlari o'rnida olib borilgan tarixiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

Turkiy elatlarning keng hududlarda qadim-qadim davrlardan buyon yashab, o'zlaridan munosib madaniy iz qoldirib kelganligini juda ko'p tarixiy manbalar tasdiq etadi. Mo'tabar Xitoy manbalari mashhur «O'g'iznoma» Urxun-Enasoy yozuvlari, Kultegin bitiklari bunga ishonchli guvohdir. Oltoy, Tuva hamda ularga tutash hududlarda turli turkiy qabilalar, chunonchi Ashin, Arg'u, O'g'iz, To'qqiz o'g'iz, O'ttiz tatar, Karluq, Kitan, Toliz, Turk, Uyg'ur, To'qri, «Toxarlar», Quriqan, Duba «Tuba-Tuva» va boshqalar yashardilar.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: O'zbekiston, 1998 y.
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.:Sharq, 2000 y.
3. Bunyatov Z.M. Gosudarstvo Xorezmshaxov Anushteginidov.-M.: Nauka, 1986 g.
4. Vamberi Herman. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi.-T.:Adabiyot va san'at, 1990
5. Jaloliddin Mirzo. Termiz Saljuqiylar davrida. O'zbekiston tarixi.-2001.-№1.-B 20-25
6. Karayev O. Gosudarstvo Karaxanidov.-Frunze: 1983 g.
7. Nabiyev A. Mustaqillik uchun kurash yohud parchalangan Turkiston tarixi.-T.,1998
8. Narshahiy. Buxoro tarixi. «Meros».-T.: Kamalak, 1991 y.
9. Shoniyozov K.Sh. Qang' davlati va qang'lilar.-T.: Fan,1990y.
10. O'zbekiston tarixi. 1-qism.-T.: O'qituvchi, 1994 y.

3 – Mavzu. Ilk o`rta asrlar geografiyasi va arablarning O`rta Osiyoga istisi davri tarixiy geografiyasi.

Reja:

1. 1.Er egaligining shakllanishi.
2. 2.Əfalitlar tarixiy geografiyasi.
3. 3.Turk xoqonligi.
4. 4. Ilk feodalizm davriga oid geografik bilimlar.
5. 5. Arablarning O`rta Osiyoni istilo qilishi va uning geografik xususiyatlari.
6. 6. Arablarga qarshi xalq ozodlik kurashlari.
7. 7. Arablardan keyin tashkil topgan davlatlar geografiyasi.

O`rta Osiyoda V asrlarga kelib erga egalik munosabatlari shakllandi. Bk feodal ishlab chiqarish munosabatlari, deb ham ataladi ("feod"-er, mulk). Kushon davlati inqirozga uchragach, ko`plab mustaqil mulklar paydo bo`ldi. Buxorodagi buxorxudod, Chog'oniyondagi chog'onxudod, Toshkentdagi to`dik, Iloqdagi dehqon, Samarqanddagi ixshid, Termizdagi termizshoh, Farg'onadagi ixshid, Vardanzidagi vardanxudod mulklarining paydo bo`lishi feodal munosabatlar bilan bog'liq edi.

Ilk o`rta asrlarda O`rta Osiyo tarixiy geografiyasining o`zgarishi faqatgina feodal munosabatlar bilan bog'liq bo`lmay, aholi migratsiyasi bilan ham bog'liq edi. IV asr o`rtalarida O`rta Osiyo hududiga ettisuv va sharqiy Turkistondan ko`chmanchi xiyoniylar kirib keldilar.va IV asrning 2 yarmida Sirdaryodan to Amudaryogacha bo`lgan hududda o`z davlatini barpo etdilar. V asrning 20 yillarida esa Xorazm va Amudaryo xavzasiga sharq tomondan yana bir ko`chmanchilar, kushonlarning avlodi bo`lmish toxarlar kirib keldi. Ular So`g'd erlarini tez orada ishg'ol etishib Kidariylar (hukmdor nomidan kelib chiqqan) davlatiga asos soldilar. Balx shahri kidariylarning poytaxtiga aylandi. Kidariylar o`z hududlarini janub tomonga kengaytirishga uringanligi uchun sosoniylarning asosiy dushmanlariga aylandi. Kidariylar o`z hududlarini janub tomonga kengaytirishga urunganligi uchun sosoniylarning asosiy dushmanlariga aylangan. Keyinchalik Tolikon yaqinida Kidariylar va Sosoniylar o`rtasida chegara belgilangan (456 yilgi jangdan keyin kidariylar tushkunlikka yuz tutganlar).

V asr o`rtalarida o`rta Osiyoga yana bir ko`chmanchiqabila-eftallar shimol tomondan kirib keldilar va kidariylarni janubga-Hindistonga ketishga majbur qildilar. Vaxshunvor boshchilik qilgan Əftal davlati birin-ketin Chog'oniyon, Toxariston va Badaxshonni zabt etadi. Əftallar Tolikon yaqinidagi chegaradan ham o`tib VI asr boshlarigacha qobul, Panjob, qarashar, Kuchu, qoshg'ar va Xo`tanni ham zabt etib O`rta osiyo, Sharqiy Əron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkistonni birlashtirgan qudratli davlat tuzadilar.

Ėftallar davlatining tabiiy geografiyasi qanchalik keng va xilma-xil bo'lsa. Shunga mos ravishda aholisi ham xilma-xil edi. Orolidan qoshg'argacha, Balxashdan to Hindistongacha bo'lgan ulkan Ėftaliylar imperiyasi hududida bir necha etnoslar istiqomat qilganlar. Ėtnoslarning xilma-xilligi, aholi ijtimoiy kelib chiqishining turli-tumanligi xo'jalikka ham ta'sir etmay qolmadi. Ko'chmanchilarning asosiy mashg'uloti chorvachilik edi. Mayda va yirik shoxli hayvonlar, tuyachilik va yilqichilikka yaxshi e'tibor berilgan. Ayniqsa yiliqichilik qadimdan mashhur bo'lib kelgan, Farg'onada yaxshi rivojlangan edi.

V asrlarda erga egalik qilish (yoki feodalizm)ning asosiy o'ringa chiqa boshlashi eftaliylar davlati uchun ham ahamiyatli edi. Bir tomondan tushkunlikka uchragan kushon davlatidan qolgan meros: qul mehnatidan foydalanish, quldorchilik davom etib kelayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan mulkdor tabaqa vakili "dehqon" va ularga qaram bo'lgan ersiz, kambag'al "kadivar" munosabatlari shakllandi. Aholining muntazam ko'payib borishi, hunarmandchilikning rivojlanishi va tashqi savdoning o'sishi bir-biriga bog'liq ravishda oziq-ovqat, umuman qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xom ashyoga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirdi. Natijada qishloq hududlari kengaydi. Dasht va tog'oldi hududlaridagi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi o'troq hayotga ko'chdi. Er tanqisligi paydo bo'lib, yangi qo'riq va bo'z erlarni o'zlashtirish tezlashdi. Jamoa erlariga va yangi erlarni o'zlashtirishga jamoa oqsoqchilikollari, sarkorlar boshchilik qilar edilar. Shu sababli xususiy er-mulklarning rivojlanishida ularning imkoniyatlari kengroq edi. Ular "qishloq hokimi" nomini olib ekspluatatsiya qiluvchi sinfga aylandi.

Yangi erlarning o'zlashtirilishi katta kuch, mehnat bilan birga aql ham talab qilar edi. O'rta Osiyo erlarini o'zlashtirishni sun'iy sug'orish inshootlarisiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Baland erlarga suv chiqarish uchun o'q, gupchak, charxpalak, chig'irdan foydalanilgan. Ėng yirik sun'iy sug'orish inshootlari damba va kanallar yo'q edi. O'sha paytda Janubiy qozog'iston, Toshkent vohasi (hozirgi paytdagi) erlarining bir qismini sug'orish uchun Zog'ariq va Bo'zsuv, Samarqand viloyati (hozirgi paytdagi) janubiy erlarini sug'orish uchun Darg'om kanallarining barpo etilganligi to'g'risida ma'lumotlar bor.

Ėftaliylar davlati xo'jaligining eng asosiy tarmoqlaridan biri ichki va tashqi savdo edi. Chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilikning rivojlanishi savdo bilan bog'liq edi. Davlat xo'jaligining rivojlanganligidan savdoga katta ahamiyat berilganligini his qilish qiyin emas. Keng hududni egallagan Ėftaliylar davlati Xitoy, Hindiston, Ėron va Vizantiya davlatlariga olib boruvchi savdo yo'llari ustida joylashgan edi. Ėftaliylar davlati asosiy etnoslaridan biri bo'lmish so'g'diylar tashqi savdo aloqalarida juda faol ishtirok etishardilar. Ularning asosiy raqiblari hisoblanmish eronliklarda ham pul-tovar munosabatlari yaxshi rivojlangan. Shuning uchun bo'lsa kerak V asrda sosoniylarning tangalari eftaliylar davlati hududida keng qo'llanilgan. Keyinroq esa eftaliy hukmdorlarning sosoniylarga taqlid qilgan tangalari muomalaga kiritilgan. Bundan tashqari Buxoro, Paykand, vardona, naqshab va samarqandda mahalliy hokimlarning o'z tangalari ham muomalaga kiritilgan.

Ėftaliylar davlatining katta yaxlit hududni egallagandigi, buning ustiga Buyuk ipak yo'li tarmoqlarining shu hududlardan o'tganligi ipak, turli matolar, lak-bo'yoqlar, rangli shishalar, qurol-yarog'lap, arg'umoqlar, hamda bog'dorchilik obikor dehqonchilik mahsulotlari bilan savdo qiluvchi tashqi savdoning rivojlanishiga sharoit yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan tog'-kon sanoati rivojlanishiga: temir, mis rudasi qazish va eritish, kumush, oltin, neft, nodir toshlar va mineral binokorlik materiallarni qazib chiqarish yuksaldi. Ijtimoiy hayotda esa ozod-mulkdorlar, ozodkor-shahar hunarmandlari, guvakor-savdogarlar, kashovarz-ziroatkorlar, korikor-xizmatkorlar, kadivar-qaram qo'shchilar, bantak va doya-qul va cho'rilar kabi tabaqalarning shakllanishiga olib keldi.

Turk hoqonligi V asr oxiri VI asr boshlaridan boshlansada, turkiylarning tarixi I. Bichurin, N. Gumilev, V. radlov kabi olimlarning fikrlariga ko'ra bir necha 100 yil qadimiyroqdir. qadimda "Xunlar", "Gunlar" deb atalgan xalqlar turkiy xalqlarning ajdodlari bo'lib ular Evropa va Osiyoning katta qismlarini zabt eta olganlar, "Turk" atamasi to'g'risida turli taxminlar mavjud. Xunlarning bir urug'i o'zlarini bo'ri urug'iga mansub bilib, "Bo'z qurt"

deb ataganlar. Boshqa qabilalar ularni mo'g'ulcha "turk-utu" deb atashni qulay bilganlar. Shu qabila uyushmasi son jihatdan oshib borib boshqa qabilalarni ham bo'ysundiradi va keyinroq Turk hoqonligiga asos solinadi. qabila boshlig'i nomi Ashin ham bo'ri ma'nosini berishi aytiladi. Turkiylar to'g'risidagi afsonalarda ham bo'ri ishtiroki ko'p (totemizm).

Yana bir taxminga ko'ra "Turk" atamasi tog' nomidan olingan, kuchli, baquvvat, navqiron ma'nolarini beradi, deyiladi. Ular temir qazib chiqarish bilan shug'ullanganlar. "Turk" so'zi afsonalarga ko'ra Oltoy tog'ining qadimgi nomidir.

Ilk feodalizm davrida geografik bilimlar.

V asr oxiri - VI asr boshlariga oid geografik ma'lumotlarga qadimgi xorazm va sog'd yozuvlari kiradi. Bu yozuvlar turli xil xujjatlar (ahdnomalar, nikoh shartnomalari, oldi-sotdi xujjatlari tilxatlar) va So'g'd, Shosh, Turk va Farg'ona xukmdorlari o'rtasidagi yozishmalar hamda xo'jalik xujjatlaridir. Ular Mug' qal'asidan, Afrosib, Qirg'iziston va sharqiy Turkistondan topilgan.

Mug' qal'asi dagi yozuvlar 1932 yili Tojikiston Respublikasi Zahmatobod tumani Xayrobod qishlog'idan topilgan. Xujjatlar jami 80 ta bo'lib 74 tasi Qadimgi so'g'd, 1 tasi arab, 3 tasi xitoy va 1 tasi turk tilidadir. Xujjatlar sovet olimlari tomonidan o'rganilib 1934 yili Leningradda "Sogdiyskiy sbornik" nomi bilan birinchi marta e'lon qilingan.

Shunday yozuvlardan yana biri Samarqandda Afrosiyob xarobasida topilgan bo'lsa Xitoyning Dun'xuyan va Turfon viloyatlarida, Qozog'istonda va Qirg'iziston qoya tosh yozuvlari topilgan. Topilgan xujjatlarning barchasi, ayniqsa, xo'jalik xujjatlari tarixiy geografiya fani uchun beqiyosdir.

Ilk feodalizm davriga oid tarixiy geografik ma'lumotlarga qadimgi turk manbalari ham kiradi. A) Enisiy bitiklari XVII asr oxiri, XVIII asr boshlarida yashagan rus xaritagraf olimi S.Ch.Remezov tomonidan topilgan. Ma'lumotlar 1884 yil "Sibirskiy vestnik" jurnalida e'lon qilingan.

B) Mo'g'iliston bitiklari

1. To'nyuquq bitigi Ulan-Batardan 66 km janubi-sharqda Bian Tsoktoda topilgan Ilterish xoqonning maslahatchisi sarkarda To'nyuquqqa baqishlanib 712-716 yillarda yozilgan

2. Qultegin bitigi Bilga xoqonning (716-734 yil) ukasi Qultegin sharafiga bitilgan. Mo'g'ilistonning Kosho Tsaydan vodiysida Ko'kshun Urxun daryosi bo'yida rus axreolog va etnografi N.M. Yadrintsev tomonidan topilgan.

3. Bilga xoqon bitigi esa Qultegin bitigidan 1 km janubiy- G'arbda joylashgan. 735 yili yozilgan. V.V. Radlov boshchiligida o'rganilgan.

4. Ongin bitigi ham Kosho Tsaydan vodiysidan topilgan. 1892 yili V.V Radlov tomonidan nashr etilgan. Kimga atalgan aniq emas.

Biz uchun eng muhim topilmalaridan biri Oltoydan topilgan Chorish, Katandan daryolari, Qo'sh oqoch hamda tog'li rayonlardan topilgan bitiklar muhimdir.

Bitiklarning muhimligi shundaki, ular Turk xoqonligining chegaralari, aholisi va xo'jaligi haqida ma'lumot beradi.

Xitoy manbalaridan ayrimlari ham ilk feodalizm davriga oid ma'lumotlarni beradi. Masalan: 629 yili Xitoy sayyohlaridan biri Syuan' Tszan Issiq ko'l xavzasi, Chuv vodiysi, Chimkent, Jambul, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz shaharlari va Janubiy Tojikiston bo'ylab safar qilgan bo'lsa kerak shu erlarning geografik tasvirini yaxshi yoritgan. M. Issiq ko'lni tasvirlar ekan uzunligi, shakli, suvining xususiyati ko'l atrofidagi tog'lar, daryolar haqida ma'lumot bergan. VII-IX asrlardagi Tan dinastiyasi davrida tuzilgan xaritalar Xitoyliklar ilk o'rta asrlarda Osiyoning 69 issiq o'lkalardan sharqiy qismini durust bilganligini ko'rsatadi. (ayrim noto'g'ri tasvirlar ham bor).

Ilk o'rta asrlarga oid eng muhim tarixiy geografik manbaga M.Qoshg'ariyning "Devonu Ilug'ati turk" asarini kiritish mumkin. Garchi asar XI asrla yozilgan bo'lsa ham undagi ko'plab she'riy namunalar oldingi asrlarga oiddir.

Avvalo arabiston yarim oroliga qisqacha xarakteristika beriladi. So'ng Muhammad payg'ambarning qisqacha tarjimai-holi va islom dinini paydo bo'lish shart-sharoitlari hamda islom dinini asosiy qonun-qoidalarini tushuntiriladi. Yakka xudolikka sig'inish haqida targ'ibot qilish 622 yil Madinaga ko'chish, 630 yil bahorida Makka urushsiz olinadi. 632 yil iyun oyida madinada Muhammad payg'ambar vafoti. Keyin Abu Bakr (632-34) Oyshani dadasi, Xalifa Umar (634-644), Arabiston yarim orolini to'la zabt etilishi, Usmon (644-656), Ali (656-661), Muoviya I (661-680) davrida 673 yil Ubaydulla ibn Ziyod boshchiligida arab qo'shinlari Amudaryodan o'tib Buxoro muzofotiga bostirib kirishi. (Ungacha 654 yil Maymura, 667 yil Chog'oniyon egallangan edi). 673 yil Buxoro, 676 yil Samarqand, Termiz egallanadi va talanadi. 704 yil qutayba ibn Muslim Xurosonga noib qilib tayinlangach 705 yil Balx va Chog'aniyonni bosib oladi va arablarni Movarounnahrda II-yurishi boshlanadi. 707-709 yillar Buxoro va uning atroflari, 710 yil Shumon, Nasaf va Keshni bosib oladi. 711 yil Farg'ona vodiysi egallanadi. Shu yili qutayba o'ldiriladi. (Volid vafot etib, Sulaymon taxtga chiqqan edi).

Bosib olingan erlarda xo'jalik izdan chiqadi. Katta miqdorda tovon to'lashga majbur qilinib, xizmatga yaroqli erkaklar ko'pincha jalb etiladi.

Bosib olingan hududlarda ekin erlaridan 4 g' 1 xiroj, chorva va hunarmandchilikdan 40 g' 1 zakot, islomga kirmaganlardan "Jiz'ya" kabi jon solig'i olinadigan bo'ldi. Hududdagi boshqa dinlar soxta deb e'lon qilindi. Ibodatxonalar vayron etilib, o'rniga masjidlar qurilib, dastlab islomni qabul qilganlar xiroj, jiz'ya solig'idan ozod etildi. qarzini to'lamaganlar sazoyi qilindi. Biroq ko'p o'tmay dinni qabul qilganlardan ham soliq olina boshlandi. 720 yil Samarqand ixshidi Turak va Panjikent hokimi Divashtich qo'zg'olonga rahbarlik qildi. 721 yili Xuroson noibi Said Xurosoniy muzokara olib boradi va so'g'd mulkdorlarining bir qismi arablar tomonga o'tadi. (Gurak boshchiligida) qolganlari Xo'janddagi jangda mag'lubiyatga uchraydi, Divashtich o'ldiriladi. 736-737 yil Toxariston va so'g'dda qo'zg'olon bo'ladi. Nasr ibn Sayyor 737 yil qator islohotlar qiladi. Barcha musulmonlar huquqiy jihatdan tenglashtiriladi. Mulkdorlar imtiyozli tiklanadi. qon-qardoshlik siyosati yurgiziladi. Ma'lumki Ummaviylar 661 yildan Alidan so'ng hokimiyatni boshqarar va ayniqsa Xalifa Marvon II (744-750) davrida soliqlar ko'payib xalif ishiga jalb etish, siyosiy va iqtisodiy ziddiyat nihoyatda keskinlashdi. 746 yil Abbosiylar harakatiga rahbar etib Abu Muslim (Xuroson) tayinlanadi. Bu harakat tisoli qaro kiyim va tim

qora bayroq. Abu Muslim qo'shini safiga kelib qo'shilganlarga avval 3, so'ng 5 dirhamdan maosh to'lanadi. Aholining hamma tabaqalaridan 100000 kishi to'planadi (ko'pchiligi qullar). 748 yil noib Naf ibn Sayyor Marvni jangsiz topshirib Nishopurga chekinadi. 749 yil xalifa Marvon ag'darilib Abbosiylardan Abulabbos Saffoq (749-754) taxtga chiqadi. Abu Muslim Xuroson va Movarounnahrqa noib etib tayinlanadi.

Buxoro qo'zg'oloni (750) bostiriladi. 751 yil Xitoy qo'shinlari Talasdan haydaladi. 755 yil Abu Muslim Bag'dodda o'ldiriladi. VIII asr 70-80 yillari "oq kiyimlilar" (Muqanna-niqobdor) qo'zg'oloni. Kesh yaqinidagi Som qal'asi qo'zg'olonchilar markazi edi. qo'zg'olonchilar engiladi. Sababi, uyushmaganligi, uzoq davom etishi, mahalliy ma'murlar sotqinligi. Maqsadlarning har-xilligi, 806 yil Rof'e ibn Lays Samarqandda boshlanib Movarounnahrqa yoyildi.

Xuroson noibi Ma'mun (806-819) Somonxudotni nabiralari Nuh, Ahmad va Yahyolardan iltimos qilib, qo'zg'olonni bostiradi va hokimiyat mahalliy amaldorlar qo'liga o'tadi.

Xalifa Xorun (786-809) vafotidan so'ng uning o'g'illari ma'mun va amin o'rtasida 809-813 yillar taxt uchun bo'lgan kurashda taxt Ma'mun foydasiga hal bo'ldi. Markazda esa, Aminni xolifa qilib ko'tarishdi. Ma'mun bunga qarshi Tohir ibn Husayn bilan 813 yil Bag'dodga yurish qilib, poytaxtni qo'lga kiritadi. Ma'mun Nuhga Samarqand, Ahmadga Farg'ona, yahyoga Shom va Ustrushona, Ilyosga esa Hirot tegadi (Somonxudot avlodlari). 821 yil Tohir Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlanadi va 822 yil xutbadan xalifani nomini chiqarib tashlaydi. O'g'li Abdulabbos Abdulloh (830-844) davrida poytaxt Marvdan Nishopurga ko'chiriladi. Somoniylar Tohiriylarni tan olishadi. Soliqlar hammaga bir xil. 873 yil g'oziiylar Nishopurni egallab Safforiylar davlatiga asos soladi. Movarounnahr Xurosondan ajrab mustaqil davlat bo'ladi. VII-VIII asrlarda geografik tasavvurlar: Mahalliy manbalarda saqlanib qolgani bu O'rxun-Enisey yodgorligi va XI asr tilshunos olimi va sayyohi Mahmud qoshg'ariyning "Devoni lug'ati-turk" asari. O'lkamiz tabiiy geografiyasi haqida ayrim ma'lumotlarni beradi. Bu bitik turklar davlati chegaralari, tabiati, aholisi va uning kasb-kori haqida ayrim ma'lumotlar bor.

Ammo bu yozuvlar to'la o'rganilgan emas. Mahmud qoshg'ariy asarida o'sha davrdagi ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, tabiat va uning manzaralari, qabilalar va ular o'rtasidagi janglar tasvirlanadi. Ayniqsa mavsum qo'shiqlari va peyzaj lirikasi tabiiy-geografik jihatdan ma'lum ahamiyatga ega. Masalan, qish-qiyinchilik timsoli, yoz esa to'kin-sochinlik. Yoz qishdan g'olib keladi. Hatto odamlar suv xo'jaligi taqvimini tuzganlar.

629 yil Xitoy sayyohi Syuan' Tszan Issiqko'l havzasi, Chu vodiysi, Chimgent, Jambul, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz shahrlari va janubiy Tojikistonda bo'lib, bu joylarning geografik tasvirini beradi. Masalan, issiqko'lni uzunligi, shakli, suvini xususiyatlari, ko'l atrofidagi tog'lar, unga quyiluvchi daryolar haqida ma'lumotlar beradi. VII-IX asrlarda hukmronlik qilgan Tan sulolasi davrida tuzilgan kartalar ilk o'rta asrlar O'rta Osiyoning 690 shimoliy uzunlikdan sharqdagi qisminigina durust bilganliklarini ko'rsatadi. Xitoy manbalari geografiyasi emas, balki ijtimoiy va boshqacha hayotga qaratilgandir. Arab bosqinchiligi davrida VIII asrda O'rta Osiyoning iqtisodiy va madaniy hayotiga zarar etkazildi. Madaniy meros yo'q qilindi. Kutubxona va ko'plab ilm ahli nobud bo'ldi. Mahalliy o'quv va til ta'qib qilindi. IX asrdan tabiiy fanlar yana rivoj topa boshladi.

Adabiyotlar:

1. Raximbekov R.U, Dontsova Z. O'rta Osiyo tabiatini geografik o'rganish tarixi, Toshkent 1982 yil.
2. Hasanov Xo'jalik Sayyox olimlar Toshkent 1981 yil
3. YAkutskiy. Istoricheskaya geografiya, Moskva 1982 yil
4. Mirzaliev. Kartografiya. Toshkent 1982 yil
5. Karimov Sh, Shamsiddinov R Vatan tarixi. (1 kitob). Toshkent 1997 yil.
6. Tarixiy geografiya ma'ruzalar matni. Namangan 2001 yil.
7. Nizom ul Mulk, «Siyosatnoma», Toshkent, «Adolat» 1997 yil.
8. Farobiy. Fozil odamlar shahri, Toshkent, 1993 yil.

9. Abu Rayxon Beruniy Qadimgi davlatlardan qolgan yodgorliklar, tanlangan asarlar, 1-jild.
T. 1968 yil.

4 – mavzu. IX-XIV asrlar tarixiy geografiyasi.

Reja.

1. Somoniylar davlati tarixi geografiyasi.
2. Qoraxoniylar davlati tarixi geografiyasi.
3. G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar tarixi geografiyasi.
4. IX-XII asrlarda geografik bilimlar.
5. Mo'g'illarning O'rta Osiyoni istilo qilishi.
6. Chig'atoy ulusi davrida O'rta Osiyo
7. Mug'illar davrida geografik bilimlar.

IX asrning oxirgi choragida Movoraunnarxning barcha viloyatlari Samoniylar tasarrufiga o'tib u o'z mustaqilligini tiklab oladi. Samoniy davlati 888 yilgi aka ukalar jangidan so'ng Ismoil Samoniylar davlatiga asos soladi. Uning davrida Buxoroning Komprak devori qurilishi to'xtatib qo'yiladi. Tarixshunos mutafakkur Narshoxiyning yozishicha Amir Ismoil kuchli qo'shinini nazarda tutib, "Toki men tirik ekanman Buxoro viloyatining devori men bo'laman" - deb aytgan edi. Somoniylar davlat boshqaruvida amir devonlar boshqaruvidan foydalangan. Somoniylar davlati o'nta devon asosida boshqarilgan. Nasr II (914-943) davrida Buxoroning Registon maydonida podsho qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib davlat mahkamasi mana shu maxsus binoga joylashtirilgan edi. Ular orasida "Vazir devoni" bosh boshqaruv maxkamasi hisoblanar va davlatning ma'muriy siyosiy xo'jalik tartiboti uning bevosita nazorati ostida tutib turilardi. Barcha devon boshliqlari vazir devoniga tobe edi.

"Mustafiy devoni" bu devon davlatning butun moliyaviy ishini boshqargan. "Devoni Amir - al mulk" davlat ahamiyatiga molik bo'lgan rasmiy xujjatlarni tuzish bilan shug'ullangan. Bundan tashqari bu devon chet davlatlar bilan olib boriladigan o'zarol munosabatlarni boshqargan.

"Sohibi-ash shur'at" bu devon davlat ahamiyatiga molik bo'lgan xujjatlarni, xabarlarini etkazish bilan shug'ullangan.

"Muxtasib devoni" bozorlarni, sotuvchilarni qadoq toshlar og'irligi bozordagi mollarning narxini sifatini nazorat qilish bilan shug'ullangan.

"Mushtarif devoni" xazinaning daromadini xarajatlarini nazorat qilgan.

"qozi az-ziya devoni" davlat erlarini "vaqf devoni" hadya etilgan erlarni va musulmon ruxoniylarning boshqa mol mulklarini nazorat qilish.

Er egaligining quyidagi shakllari: Mulki sultoni-shaxsan amirga tegishli er, suv, tegirmon, do'konlar, bu mulklarni qishloq chorikorlari ijaraga olganlar. Yana er egaligining tu'ma (umrbod berilgan er) iq'to (merosiy) turlari bo'lgan.

Xususiylar shaxslarga tegishli mulk erlari xukmdor tabaqa honadoni, dehqon, zodagonlarga, sayidlar, spahsozlar, davlat savdogarlarga tegishli mulklar hisoblangan. Shartli er egaligi ham bo'lgan.

Vaqf mulklari diniy-muassasalarga va madrasalarga tegishli mulk, bu mulkni muassasa mutavvalisi boshqargan.

Jamoa erlari - yaylov tog' bag'irlaridagi suvsiz lalmikor erlar kirgan. Xiroj sharoit va davlat qonunlariga asoslanib olingan. Somoniylarning Buxoro va Karmana viloyatlari Xurojdan tushga ndaromad 11116866 dirhomni tashkil qilgan. Somoniylar davrida erni qaytadan taqsil qilinadi. Er egaligining yangicha guruhi tashkil qilinadi. Ularnig ko'pchiligi spohiylardan chiqqan edi. Bu davrda Movoraunnaxr va Xuroson sharqning iqtisodiy jixatdan eng rivojlangan o'lkalardan hisoblanar edi. Hususan va ayniqsa Movoraunnaxr dexqonchilik o'lkasiga kiritilgan edi. Bu erlarda dehqonchilik asosan sun'iy sug'orishga asoslangan. Buxoro vohasida Shopurkon, Shohrud, Karmana, Koykand, Samarqand vohasida Darg'am, Barmashi, Buzmadisoy, Ishtihon kabi kanallar shahar va qishloqlarni suv bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari bunday kanallar Xorazm, qashqadaryo Farg'ona va Shoshda ham bo'lgan. Dalalarda bug'doy, arpa, sholi va boshqa boshqoli ekinlar ekilgan. Dehqonchilik solig'i - xirojdan xazinaga tushadigan daromad davlat kirim chiqimlarining kattagina qismini qoplar edi.

Dehqonchilik paykallariga suv etkazib berish uchun mirob, jo'ybor va poykar kabi xalq ichidan chiqqan sug'orish bo'yicha mutaxassislar yoz bo'yi oyoqqa turganlar. IX asrdan boshlab Buxoro vohasining suv ta'minoti bilan shahsan shahar qozisining o'zi shug'ullangan.

Somoniylarda paxtadan tashqari rang olish uchun zafaron va ro'yon kabi nodir texnik o'simliklar o'stirilgan.

Bog'dorchilikka ham katta ahamiyat berilgan. Bog' va Chinorbog'larda uzum, anor, anjir, olma, nok, behi, o'rik, shaftoli, olxo'ri, rocha, tut, jtyda va boshqa mevalar etishtirilgan. Xususan uzumning o'nlab navidan nixoyatda ko'p xosil olingan. Uzumdan mag'iz, shinni, sirka va musullas tayyorlanar edi. Movoraunnahr va Xorazmda sabzlvlt va poliz ekinlari serob bo'lib, qovunlari nixoyaida shirin bo'lap edi.

Somoniylar davrida chorvachilik ham taraqqiy etgan. Ot, eshshak, tuya, xo'kizlar qo'sh arava va moyjuvozlarga qo'shib ishlatilgan. Davlat xarbiy qo'shinlari uchun ot etkazib berish chorvachiliknihr muxim vazifasi edi. Aholining go'sht va teri, jun bilan ta'minlash ham chorvadorlar qo'lida edi. Somoniylar davrida ayniqsa Movoraunnaxir va Xorazmda to'qmachilik, kulolchilik, degrezlik, chilangarlik misgorlik, zargarlik shishasozlik kabi xunarlarancha rivojlanadi. O'sha davrda Buxoro "zandonachi", Samarqand esa "Vadoriy" nomli to'quvchilikdagi matolari bilan nom taratgan.

Konchilikda somoniylar davrida Zarafshon vodiysidan (tog'laridan) temir), mis, qo'rg'oshin, feruza. Oloq viloyati kumush va qo'rg'oshin Farg'ona vodiysidan ko'mir va neft topib ishlatilgan.

Ichki va tashqi savdo somoniylar davrida rivojlandi. Savdoning rivoji uzoq davlatlar bilan savdo o'sha davrda keskin tusda avj oldi. X asrda tashqi savdo masalalalirda savdogarlar "sorrojlilik cheklaridan" foydalanganlar. Somoniylar davrida ichki savdoda "foiz" deb atalgan mis chaqa, tashqi savdoda esa kumush tanga - dirxom ishlatilar edi. Kumush tangalar faqat xukumdor boshlig'i nomidan Marv, Samarqand, Buxoro va shashda davlat zorbxonalarida so'qilar edi. Somoniylar "ismoiliy" "Muhammadiy" "g'itrifiy" nomli kumish dirxomlar zarb ettirishgan. Kumush tanga xolida ko'proq sharqiy Evropa mamlakatlariga olib chiqilgan.

X ars o'rtalarida Issiq ko'lining Janubiy va qashg'arda yashagan yagmo qabilalari kuchayib avval o'zlaridan Shimoliy Sharqdagi jikiy qabilalari bilan itfoq tuzadilar. Dastlab ular Ettisuvga xujumm qilib qorluqlarni bo'ysindiradi va qoraxoniylar davlatini tashkil qiladi. Yo!zma manbalarda yaxmolarning turkiy qavmlari ichida madaniy jixatdan eng qolog'i deb tariflaydilar. Bu yangi turk davlati podsholari "Arslonxon" yoki "Buxroxon" nomi bilan yuritilgan. Bu unvonlar bu ikki qabilaning totemi xisoblangan. Arslon - jikul qabilasining totemi. "Bug'ro" esa yag'mo qabilasining totemi bo'lgan. U og'ir yuk ko'taradigan tuya manosini bildirgan.

992 yilda Xason Buxroxon boshliq qoroxoniylar Movaraunaxrga xujum boshlaydilar. Ular Buxoroga yurish qilib qiyinchiliksiz somoniylarni engadilar va Buxoroni egallaydilar. Bug'roxon kasalligi tufayli qoshg'arga qaytadi. 996 yili qoraxoniylar yana Buxoroga yurish boshlaydi. Endi Somoniylar davlatiga putur etadi va uning o'rnida qoshg'ordan Amudaryogacha cho'zilgan, Sharqiy Turkistonni bir qismini, Ettisu, Shosh, Farg'ona qadimgi So'g'dni o'z ichiga olgan qoraxoniylar davlati tashkil topadi. 1038 yilda mahalliy hukmdor. Ibroxim Bo'ritakin Amudaryo bo'yi viloyatlari Hutalon, Vaxsh, Chog'oniyonni g'aznaviylardan tortib oladi. U Farg'ona va Movaraunaxrni o'ziga bo'ysindirib mustaqil davlat boshqara boshlaydi. Natijada qoraxoniylar ikki mustaqil davlatga bo'linib ketadi. Birining poytaxti Bolasog'in bo'lgan qoraxoniylar davlati. Ikkinchisi Movaraunaxrdagi qoraxoniylar davlati edi.

qoraxoniylar davlati el-yurt va viloyatlarga bo'lib boshqariladi. El-yurt hokimligi "Oloqxon"viloyat noiblari esa "Tekin" deb yuritilgan. Oloqxonlar o'z nomlari bilan chaqa tangalar chiqarar, viloyat mustaqilligi uchun intilar edi.

Xo'jaligi Movaraunaxrdagi qoraxoniylar dehqonchilik mavzellarini ham yaylovlarga aylantirganlar, ekinzorlar qoraxoniylar xonadonining tayanchi xisoblanar, turk qabilalarining asosiy mulkiga aylantirildi. XI asrda Movaraunaxr va ayniqsa, Zarafshon vodiysida dala, poliz va bog'lar barpo bo'ldi. Ekin maydonlari qisqarib ketadi. Abu nasir Ahmadning yozishicha

"Buxoro va uning atrofidagi erlar shunchalik (tushi) qadri tushib ketgan edig hatto uni tekinga ham berar edilar. Ammo u erlarni hech kim olishni istamasdi. qoraxoniylar davrida "Dehqon" degan nom o'zining "qishloq hokimi" ni anglatuvchima'nosini yo'qotib, qishloq mehnatkashlari uchun umumiy nomga aylanib ketdi.

XI asrda erdan foydalanishning iqto tartibi juda keng yoyiladi. Bu tartib orqali qoraxoniylar bo'ysindirgan erlardan soliqni osonlikcha to'play olishgan. Shunday qilib XI-XII asrlarda Movaraunnaxr va Xurosonda mulkchilikning yangi turi - iqto' eralari kengayib uning asosiy shakllaridan biriga aylanadi. Bu davrda musulmon ruxoniylarga bo'lgan etibor kuchayishi va mamlakatda ular siyosiy tasirinig tobora ortishi vaqf erlari ancha ortishiga olib keldi. Biroq mayda xususiy mulklar turli vositalar orqali yirik erdorlar tasarrufiga o'tib, ularning maydoni kamayib boradi. O'sha davrda Movaraunnaxr va Xurosonda er egaligining to'rt turi mavjud edi:

A) Mulki sultoniy - davlat erlari.

B) Iqto' - davlat tomonidan inom etilgan erlar.

V) Vaqf erlari - masjid va madrasalarga qarashli erlar.

G) Mulk erlari - shaxsiy erlar.

Erlarning hammu turida ham barzikor (dehqonlar) yonlanib ijaraga ishlagan. Etishtirgan xosilning 0,3 qismini olgan. Xosilning yana 0,3 qismi davlatga soliq sifatida to'lashgan, qolgan qismini er egasi o'ziga olgan.

XI-XII asrlarda shaharlar kengayadi va rivojlanadi. Samarqand, Buxoro, Termiz, O'zgan, Toshkent, Marv, Obivard va Niso kabi shaharlar ichki va tashqi savdo uchun xalma-xil xunarmandchilik maxsulotlari uchun hamda chaqa tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratning markaziga aylandi. Bu davrda ayniqsa kulolchilik shishasozlik, misgarlik va chilangarlik kabi sohalari rivoj topdi. Bu davrda sirli koshinkor, qobartma naqshli sopollar, rangdor shisha buyumlari, naqshinkor shisha idishlarixilma-xilligi va yuqori darajagi naqshinkorligi bilan ajralib turar edi. Hunarmandchilikning kengayishi ichki va tashqi savdoning rivajiga katta xissa qo'shdi. qoraxoniylar davrida Bolosog'un, Taroz, O'zgan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarida zarbxonalar bo'lgan. XI-XII asrlarda Movaraunnaxr va Xurosondatovar-pul munosabatlari nihoyatda rivojlanib bu mamlakatning hamma viloyatlarini qamrab olgan edi.

G'azna shaxri Xurosonning siyosiy markaziga aylanishi X asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. g'aznaviylar davlatining asoschisi Sobuqtegin bo'lib, bu davlat uning o'g'li Muhammad g'aznaviy davrida musulmon olamining eng kuchli davlatiga aylandi. Bu davlatning hududi g'aznaviyning istilochilik yurishlari natijasida Shimol va Shimoliy Hindiston, Chog'oniya va Xorazmgacha cho'zilgan bo'lib, unga Eronning ham katta qismi kirgan. Masudbek davrida siyosiy kurashlar kuchayadi. Xorazm (1034 yil) Xorin ibn Oltintosh boshchiligida mustaqil bo'lib oladi. Lekin Masud ayg'oqchilari tomonidan Xorun o'ldiriladi. g'aznaviylar sultoni Masud Xurosonga yurish qilgan turkiy-saljuqiylar bilan ko'p bor to'qnashishga majbur bo'ladi. Xurosonga joylashib olgan saljuqiylar g'aznaviylarga katta havf tug'dirardi. 1035 yilda Saljuqiy lar Xurosonga yana xujum boshlaydilar. Saljuqiylarning nabirasi Tug'rul va Changri boshchiligidagi turkmanlar g'aznaviylar qarorgohiga xujum qiladi. 1037 yilda aprel' oyida turkmanlar Marv uzil-kesil egallaydilar. Shu tariqa Xurosonda yangi davlat - Saljuqiylar davlatiga asos soladilar. g'aznaviylar va Saljuqiylar o'zaro Xuroson uchuni ko'p bor to'qnashadilar. 1040 yil Dandanakon degan joydagi jang eng katta to'qnashua hisoblanadi. Bu jangda saljuqiylar to'liq ustunlikka erishadilar.

Saljuqiy hukmdori Turg'ulbek g'oyat ko'p istilochilik urushlari uyushtiradi. Balh, Aroqning shimoli, Ozarbo'yon, qurdiston va qo'xistonni bosib oladi. Saljuqiylar davlati poytaxti Gay shaxri bo'lgan. 1055 yilda Saljuqiylar Bog'dodga bostirib xalifadan o'z nomiga xutba o'qitishni talab etadi. Xalifa shundan keyin hokimiyatga egalik qilib dunyoviy hokimiyatni sulton unvoni bilan Tog'rubekka topshiradi. Saljuqiylar xohi Malikshoh 1089 yil qoraxoniylar ichki nizosidan foydalanib Buxoro va Samarqandni egallaydi. Sulton Sanjar davrida Saljuqiylar poytaxti Marv shahriga ko'chiriladi. 1141 yil qutbiddin Muhammad Xorazmshoh saljuqiylarga

xujum qiladi va ularni engadi. Shu tariqa Saljuqiylar davlati yakun topadi. Uning vrnida esa Xorazmshohlar o`z tasarrufiga oladigan buyuk Xorazmshohlar davlatiga asos solinadi.

Xorazmshohlar davlati XII asrga kelib davlat sifatida shakllana boshlaydi. Bunga Xorazmshoh Otsizning xizmatlari katta. Saljuqiylar davlatidagi xar-qanday siyosiy variantdan Otsiz unumli foydalandi. U dastlab Xorazm bilan iqtisodiy jixatdan bog`liq bo`lgan Sirdaryoning etagi va Mang`ishloq yarim orolini egallaydi. Otsiz davrida Kaspiy dengizi ro Sirdaryoning o`rta oqimigacha bo`lgan erlarni bosib olgan edi. Xorazm davlati, ayniqsa Otsizning nabirasi davrida hududi ancha kengaydi. U Nishopur, Ray va Marv shaharlarini bosib oladi. 1194 yil Saljuqiylar sultoni Tug`rulga zarba berib Oronni Xorazmga bo`ysindiradi. 1195 yil Iroqqa bostirib kiradi. Takash vafotidan so`ng uning o`g`li Sulton Muhammad taxtni egallaydi. Lekin bu davlat ichki siyosati yaxshi ahvolda emas edi. Takashning katta xatosi xotini Turkanxotunga mansub bo`lgan qipchoq qabilalariga erkinlik berish va davlat ishlariga Turkanxotinning arlashuvi ichki nizolarning kuchayishiga olib keldi. Bo`lib berilgan hududlarda vakillarning markaziy hokimiyatga ega emasligi XIII asrga kelib Chingizxon bosqiniga sabab bo`ladi. qolaversa Xorazmshohlarning ichki siyosatidan norozi bo`lgan xalq ko`p bora isyon ko`tardi. Shu tariqa Xorazmshohlar zaiflashib Mug`ullarga osonlikcha egiladi.

IX-XII asrlar tarixiy geografiyasi bilimlari.

IX-XII asrlarda O`rta Osiyo geografiyasi tarixida o`ziga xos muhim va yorqin davrlardan biridir. O`rta Osiyo tabiati haqidagi IX-XII asrlardagi tasavvurlarning ikki muhim manbai bor. Birinchisi O`rta Osiyolik olimlarning ilmiy asoslari bo`lsr, ikkinchisi chet el geogriflari va sayyohlarining ilmiy ma`lumotlaridir. Bu davrga oid geografik bilimlar Xorazmiy, Farg`oniy, Jayxoni, Abu Zayd Balxiy, Beruniy, qoshg`ariy Zamaxshariy va Chag`mini asarlarida o`z aksini topgan. Xorazmiyning eng yirik kartografik asari "Surat al-az" ("Erning tasviri") bo`lib, 1878 yil qohiradan topilgan. IX-XII asr geografiyasiga oid maxsus asar yaratgan O`rta osiyolik olimlardan biri At-Termiziydir. Uning "Salnoma va ro`znoma" asarida qadimiy turkiy kalendar'-muchal yili tahlili qilingan, dehqonchilik ishlari, ob-havo va tabiiy ofatlar berilgan. Abu Abdulla Xorazmiyning "Mafotix al-ulum" (Ilmlar kitobi) asari ham muayyan geografik ahamiyatga ega. Terminologik lug`at harakterdagi bu asarda tabiiy geografiyaga oid bo`lgan ko`plab terminlar izohlab berilgan. Abu Rayhon Beruniy o`zining "Al asor al-boqiya an al-qurun alqaxolil" (O`tmish zamonlardan qolgan yodgorliklar) asarida turli tildagi ko`plab manbalar asosida yunrnlr, rimliklar, forslar, so`g`dlar, xorazmliklar, va boshqa xalqlarning barcha tarixiy davlari oid bayram hamda kalendar' sistemalari madaniy va adabiy tarixi aniq bayon qilingan.

O`rta Osiyo geografiyasiga oid nodir manbalardan yana biri XI asrning turkshunos olimi Mahmud qoshg`ariyning "Devoni lug'oti turk" asaridir. Uning bu asarida butun dunyo xaritasi berilgan. Hamda juda ko`plab geografik hududlarga nomlar berilgan. O`rta Osiyo va unga tutash erlardagi qabilalar geografiyasi aks ettirilgan, geografik terminlar to`plapib ular izohlangan.

Bundan tashqari ko`plab boshqa shu davr olimlarining asarlarida O`rta Osiyo tabiati, geografiyasi va boshqalari haqida ma`lumotlar berilgan.

XIII asr arafasida mo`g`il qabilalari Urug'-aymoqchilik tizimida yashamoqda edilar. 1204-1205 yillarda ichki kurashlar natijasida Temuchin boshchilik qilgan qabila boshqa mo`g`il qabilalarni qo`l ostiga birlashtirib yagona ulusni tashkil etdilar. Ular xozirgi Mo`g`iliston xududidagi Toli, Kerulan, Onon daryolar bo`ylarida chorvachilik bilan shug`ullanib kelishgan edi. Birlashtirilgan davlat poytaxti etib qoraqoqo`rim belgilangan. 1206 yil chaqirilgan quriltoyda temuchin yagona xukmdor deb elon qilinib unga "Chingizxon" nomi berildi. Bu payt u Mo`g`illarga naymonlar keroitlar, tatarlar, ungutlar, uyg`urlar va boshqa qabilalarni birlashtirgan edi. Chingizxonning davlat chegarasi Irtishdan Manchjuriyagacha Boyko`ldan Tang`utgacha cho`zildi. 1206 yilgi qurultoyda "Yaso" qonuni qabul qilindi. Yaso mo`g`il davlatini konstitutsiyasi bo`lib qoldi. Buyuk xondan tortib to oddiy fuqorogacha qonunga amal qilishi shart edi.

1207 yili Chingizxonning bosqinchilik yurish boshlandi. Shu yili Tong`utlar boj to`lamaganlikda ayblanib er mulklari talon-taroj qilindi. 1207-1208 yillarda O`nasoy xavzasi,

Ettisuvning shimoliy qismi hamda mo`g'il erlari egallandi. 1211 yili Xitoyga yurish boshlandi. Bu yurish 1215 yili Pekinni egallash bilan yakunlandi. Xitoyni egallashi Chingizxonning keyingi yurishlarida muxim ahamiyat kasb etdi.

Bu paytga kelib "Iskandar Soniy" deb elon qilindi. Sulton Muxammad Xorazm shox (1200-1220) erlari Daytu qipchoqdan Iroq g'aznagacha Kasbiydan Ettisuvgacha cho`zilgan edi. O`zlarini davrining eng buyuk tojdori deb xisoblashgan. Ikki davlat arboblari o`rtasida, ikki davlat o`rtasida diplomatik munosabatlar o`rnatilgan, lekin asosiy maqsad ayg'oqchilik ma'lumotlarini yig'ish edi.

Oldindan tayyollangan bahonalar asosida 1219 yili Mo`g'illarning O`rta Osiyoga yurishi boshlandi. Birinchi zarba Turkiston va Etti suvga qaratildi. 200 ming kishilik Mo`g'il, Tatar qo`shinlari 4 yo`nalishga bo`lindi. Birinchi qismga o`g'illari Chig'atoy va O`qtoy boshchiligida O`rtor qamalida qoldirildi. Ikkinchi qismga kata o`g'li Shuji boshchilik qilgan. Bu qism Sirdaryoning etagi orqali Sig'noq, O`zgan, Jan dva Yangikent shaxarlariga chiqishi kerak edi. Uchinchi qism Oloqko`yon va Suketuchorbiy qo`mondonligida Sirdaryoning o`rta qismi orqali Binokat va Xo`jandga chiqishlari kerak edi. To`rtinchi asosiy qismga Chingizxonning o`zi boshchilik qilib Buxoro yo`nalishda yurish boshladi. 1221 yili qishda Xorazmshoxlar poytaxti Urganch egallandi. Shaxar olingach Mo`g'il-tatarlar janubga-Balx, Xirod Marv va g'azna shaxarlarini talash uchun yo`l oldilar. O`rta Osiyo va uning xanubidagi erlar egallagach Chingizxon 1223 yili Kavkazga chiqdi va rus inyazlarini tor-mor keltirdi. Sarkardalar Jebe va Subatay boshchiligida qo`shinlar Kalkada Ruslar Bilan to`qnashdilar, 1223 yili Bulg'or egallandi.

Chingizxon tiriklik paytidayoq zabt etilgan butun erlarni o`z o`g'illariga bo`lib berdi. Katta o`g'li Jujiga Janubiy Sibiry, Ddashtqipchoq , Volga bo`yi Shimoliy Xorazm va Darbongacha bo`lgan erlar berildi. Ikkinchi o`g'li Chig'atoyga Sharqiy Turkiston, Ettisuv Movorounaxr Xorazmning janubiy xududlari va yana Balx, Badaxshon, qobul, g'azna to Sind daryosigacha bo`lgan erlar. Uchinchi o`g'li O`qtoyga vatani Mo`g'iliston va Xitoy. To`rtinchi kenjatoy o`g'li To`liga Xuroson va Eron erlari berildi. Har to`rt ulus ulug' xoqonga bo`yin egar edi. Xoqon poytaxti qoraqo`rim edi.

Chig'atoyga berilgan erlar Chig'atoy ulusideb nomlanib poytaxti Beshbalig' shahri edi. Mo`g'illarning o`troq halqni boshqarish tajribalari bo`lmaganligi tufayli mahalliy zodogonlar xizmatidan foydalanganlar. Muxmud Yalovoch ham shular jumlasidan edi. Bundaylar noib etib tayinlanib, ular orqali butun aholidan soliq yig'ishtirilib olinar edi. Soliqlar miqdori "Yaso" qonunlariga ko`ra belgilanar edi. Asosiy soliq "kalon" bo`lib xosilning 1g'100 qismidan olingan. "qopchur" solig'i(1235) chorva solig'i bo`lib har 100 boshdan bita olinar edi. Davlat xazinasi uchun "Shulen" yoki "Shulsi" solig'i belgilangan bo`lib, har bir podadan 2 yashar qo`y va qimiz uchun har mingta otdan 1 ta biya olinar edi. "Yom" larning xizmat xarajati ham aholidan undirib olinarji. Mo`g'il xukmdorlariga yaxshi xizmat qilgan mahalliy zodogonlar va savdogarlar turli payzalar Bilan taqdirlanar edi. Kun tabaqa vakillari esa ikki tomonlama zulm ostida qoldilar. Shu tufayli 1238 yilgi Maxmud Tarobiy kabi qo`zg'olonlar kelib chiqadi.

XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mo`g'il zodogonlari o`troq xayot tarziga ko`cha boshladilar. 1269 yili Chig'atoy ulusi xoni qaydu mo`g'il shahzoda va no`yonlarini quriltoyga chaqirib tog' va cho`llarda yashashga, shahar atrofiga manzil ko`rmaslik, sababsiz, ekinzorlarni payxon qilmaslik qaror qabul qildi. Lekin mo`g'il zodogonlarining o`troqlashuvi davom etdi. Chig'atoy ulusida erga egalik qilishning 4 turi mavjud edi: 1-chisi Mulki devon-davlat erlari, 2-chisi mulki inju-xon noiblari va ularning avlodlariga qarashli erlar, 3-chisi mulki vaqf-masjid, madrasa, xaloqo, mozar va maqbaralarga qarashli erlar, 4-chisi Xususiy mulk.

Chig'atoy ulusida savdo xo`jalikni asosiy turlaridan biri edi. Ma`sudxon davrida (12 - 1289) pul tavar munosabatlarini tartibga solish maqsadida 16 ta shaxarni bir xil vazn va o`lchovda bo`lgan sof kumush zarb ettirildi. Asta sekinlik bilan savdo, xunarmandchilik, dexqonchilik iziga tushadi. Yana bir pul isloxoti Kepekxon (1309; 1318-1326) davrida o`tkaziladi. O`roqlikni va Islom dinini afzal ko`rgan Kepakxon iqtisodiy xayotni tartibga solish maqsadida ma`muriy va pul isloxoti o`tkazildi. U davlatni viloyat va tumanlarga bo`ladi. Tijorat

uchun umumiy nomi "kepaki" deb ataluvchi yirik kumush tangalar-dinor, mayda kumish tangalar-derhamni muomilaga kiritdi. "Kepaki" temuriylar davrida ham muomilada bo'lgan.

O'troqlasha boshlagan mo'g'il xonlari shaxar qurilishga ham etibor Bera boshladilar. Duvoxon (1291-1306) davrida Andijon shaxriga asos solindi. Kepekhon Nasaf shaxri janubida saroy qurdirdi va joy qarshi nomini oldi. Bu shahar Kepekhon davlatini poytaxti bo'lib qoldi.

Mo'g'illar hukmdorligi O'rta Osiyo fan arboblari uchu no'ta og'ir davr bo'ldi. Ko'pchilik olimlar xalok bo'ldi, bir qismi chet elga ketib o'sha erda ijod etishga majbur bo'ldi. Mo'g'illar davriga oid o'lkamiz geografiyasi haqidagi malumotlar ikkiga: sharq olim va sayyoxlarining asarlari va mo'g'il xukmdorlari xuzuridagi Rim papasi elchilarining sayyoxlik malumotlariga bo'linadi. Shunday asarlardan biri Xitoylik sayyox Chan Chunning Chingizxon topshirig'iga ko'ra 1221-1223 yillarda O'rta Osiyoga qilgan sayyoxati asosida vujudga kelgan. "SiYuTszi" "g'arbga qilingan sayyoxat tasviri" asaridir. Uning sayyoxati qozag'istonning shimoliy-sharqi-Shimoliy q'irg'iziston-Chuv vodiysi-Talas vodiysi-Sirdaryo-Samarqand-Amudaryo-Balx marshuriti bo'yicha o'tgan. Chan Chun asarda o'zi bo'lgan xududlarning rel'efi, iqlimi, erlari haqida yozgan. M. Sirdaryoning oqimi, suvga chanqoq Mirzacho'l va qizilqum. Iqlimga e'tibor bergan va uni Oltoy Bilan solishtirgan. O'rta Osiyo tabiatiga xos mexalar haqida. . .

Yana bir agar Muhammad Avfiy qalamiga mansub bo'lib "Javomial-xikoyat va al-rivoyat" (1227) asaridir. Asar bir necha bobdan iborat bo'lib urning umumiy tasviri va unda yashaydigan turli xalqlar haqida ma'lumot bergan. Xitoy haqida, shimoliy-Sharqiy Evropa va O'rta Osiyodagi turkiy xalqlar haqida, Rim va Yunonlar haqida, Arabiston, Xindiston, Xabashiston tasviri, Kaspiy dengizdagi orollar, Kaspiyga yaqin xalqlar va ularning xayti haqida keng ma'lumotlar berilgan. Ushbu asarga Sho'rolar davrining Rus olimlari juda yuqori baho berganlar.

Tarixiy geografiya faniga o'z xissasini qo'shgan O'rta Osiyolik olimlardan yana biri Faxriddin Banokatiy (XIV asr boshlari) dir. Binokatiyning "Tarixi Binokatiy" (yoki "Ravzat ulul al-bob fi tavorix ul akobir va ansob" - "Ulug' kishilarning tarixi va nasabi bobida donishmandlar bog'i") asarining VII bobbi geografiyaga bog'liq. Unda Xindiston, Armaniston, Eron, Rum, Xitoy, Mo'g'iliston, arab va yaxudiylerlaridan hamda O'rta Osiyoning tabiati, aholisi to'g'risida zarur ma'lumotlar bor.

O'rta Osiyoda mo'qullar hukmronlik qilgan davrdagi o'lkamiz geografiyasi, uning tabiati, tarixi, shaharlari va aholisi haqidagi ma'lumotlar tarixchi Rashididdin (1247-1318), Jamol qarimiy, Abul Fido (1273-1332) va mashhur arab sayyohi Ibn Batuta (1304-1377) asarlarida ham uchraydi. Biroq bu ma'lumotlar geografik mohiyati jihatidan ilk o'rta asr klassiklari ma'lumotiga deyarli muhim yangilik qo'sha olmaganligi uchun ulrga maxsus to'xtab o'tmaymiz.

Evropalik o'rta asr elchilari orasida Osiyo geografiyasi tarixida eng katta iz qoldirgan sayyoh venetsiyalik dvoryan Marko Polodir (1254-1324). Biroq bu mashhur sayyoh o'z sayyohatida O'rta Osiyo territoriyasida Pomirdagina bo'lgan. Marko Polo 1274 yil eron-Balx-Pomir orqali qashqarga Matteno Poloning 1260 yil. O'rta Osiyoda bo'lib, Xiva-Samarqand-Turkiston-Shimoliy Tyanshan' marshuriti bo'yicha kezib, O'rta Osiyo haqida to'plagan ma'lumotlaridan ham foydalangan.

Xulosa qilib aytsak, O'rta Osiyoda mug'ullar hukmronligi bu o'lkamiz haqidagi geografik tasavurlarning rivojlanishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu davrdan SAqlanib qolgan kamdan-kam manbalar O'rta Osiyo tabiati to'g'risida bir butun va mukammal tasavvur hosil qilmaydi.

Adabiyotlar.

1. Ulug'bek. To'rt ulus tarixi.
2. Raximbekov R. U Dontsova 3,4 O'rta Osiyo tabiatini geografik o'rganish tarixi. Toshkent 1982 yil.
3. Karimov Sh, Shamsiddinov R Vatan tarixi. (1 kitob). Toshkent 1997 yil.
4. Tarixiy geografiya ma'ruzalar matni. Namangan 2001 yil.

5 - mavzu. Amir Temur va temuriylar davri tarixiy geografiyasi.

Reja.

1. Temur davlatining tarixiy geografiyasi.
2. Temuriylar davri tarixiy geografiyasi.
3. Temur va temuriylar davrida geografik bilimlar.

Amir Temur roʻta murakkab bir sharoitda maydonga chiqdi. XIV asrning 60-yillarida Movoraunnahr siyosiy jixatdan tarqoq boʻlib, mugʻil shahzodalar bir-birlari bilan toʻxtovsiz urush olib bormoqda edilar. Chigʻatoy ulusiga qarashli Movoraunnahr oʻnlab mustaqil bekliklarga boʻlinib ketgan edi: Shahrisabzda - Xoji Barlos, Xoʻjandda - Boyazid Jaloir, Balxda - Amir Xusayin, Shibirgʻonda - Muhammad Aperdi Nayman, Koʻxistonda - Amir Sotilmish, Arxang Saroyda - Oʻljoy Aperdi va xakozo. Oʻzaro feodal urushlar Movoraunnahr iqtisodini yoʻldan chiqardi, xalqning turmush sharoiti ogʻirlashdi.

Amir Temurning xokimiyat uchun yoʻli 1360 yili Keshda Toʻgʻliq temur xizmatiga kirishdan boshlandi. 1365 yil 22 mayda Temur va Xusayn qoʻshinlari Ilyosxoʻjadan magʻlubiyatga uchradi (Chinoz "Jangi loy"). Sarbadorlar harakatidan soʻng 1366 yili ittifoqchilar Samarqandga kiradilar. 1370 yili Amir Temur Balxni egallaydi. U Movoraunnahr Amiri deb eʼlon qilinadi 1371 yili Xorazmni egallaydi. 1376 yilgacha qamaruddinga zarba berib, Fargʻona vodiysining katta qismini egallaydi. 1391 yilda qunduzchada Toʻxtamizga katta zarba beradi. 1395 yili Tarak daryosi (Kavkazda) yaqinida shu zarba qaytarildi. 1380 yillardan boshlab Temur qoʻshni davlatlarni bosib olishi boshlandi. 1381 yili Xirotda, 1384 yilgacha Eronning katta qismi, 1386-1388 yillarda (uch yillik urush) Jn. Ozarbayjon, Shimoliy Iroq, Gruziya va Armaniston egallandi. 1392-1396 yillarda (besh yillik urush) Iroq, gʻarbiy Eron egallandi. 1398-1399 yillarida Hindiston, 1404 yilgacha Damash, Bogʻdod, Turkiya erlari egallandi. Oqibatida Xitoydan qora dengizgacha, Orol dan Fors qultigʻigacha boʻlgan ulkan davlat barpo qilindi.

Amir Temur davlatni boshqarishda syurgʻol usulida foydalandi. Jahongir Mirzoga Balx, Umarshayh Mirzoga Fors, Mironshohga Ozarbayjon, Armaniston, Iroq, Shohruhga Xuroson, Jurjon, Mozandaron, Seyiston boʻlib berildi.

Amir Temur davlati iqtisodi toʻgʻrisida gapirganda shuni aytish mumkinki, Movoraunnahr bu davrda tarixdagi eng rivojlangan choʻqqilaridan birida edi. Barcha ishlar aniq belgilab qoʻyilgan qonun - qoidalar asosida olib borildi. Xoʻjalikning asosiy turi xisoblanmish dexqonchilikga katta eʼtibor berildi. Yangi erlarni oʻzlashtirish uchun suniy sugʻorish inshootlari qurildi. Bunday erlardan uch yilgacha soliq olish taqiqlandi. Soliq tizimi ham davlat tomonidan tartibga solindi.

Samarqand bozori atrofidagi misgarlik, kulolchilik, zargarlik, maxsidoʻzlik, duradgorchilik, temirchilik, toʻqimachilik ustaxonalari rivojlandi. Amir Temur chet el hunarmand ustalarini toʻxtovsiz Movoraunnahrga keltirdi. Natijada keng turli hunarmandchilik mahsulotlari koʻpaydi. Binokorlik ayniqsa keng avj oldi. Koʻpriklar, yoʻl qurilishida tortib, yirik inshootlar qurilishi shu paytgacha bu darajada koʻpaymagan edi. Samarqand atrofida Sultoniya, Sheroz, Damashq, Bogʻdod, qohira kabi yirik davlatlar nomlari berilgan butun bir qishloqlar vujudga keldi.

Ichki va tashqi savdo xoʻjalikning boshqa turlari rivojlanishiga qarab tez rivojlandi. Shahar markazlarida Chorsu, deb nomlangan bozorlar vujudga keldi. Bozor atroflarida esa ustaxonalar bilan birga savdo doʻkonlari binyot etildi. Xattoki (Roʻza oylarida) kecha-yu kunduz savdo tinmaydigan "bozori shab" urfga kirdi.

Chegaralarning mustahkamligini, qatʼi qonunlarning mavjudligi savdo va karvon xavfsizligini taʼminlovchi chora-tadbirlar tashqi savdoni kuchaytirdi. Buyuk ipak yoʻli tiklandi. Sharq va gʻarb oʻrtasida doimiy tavar ayrboshlash davlat xazinasini boyitdi.

Temuriylar. Temurning davlat erlarini syurgʻol shaklida boʻlishi temuriylar davrida (Amir Temur oʻlimidan keyin) feodal tarqoqlika bosh sababchi boʻldi. Pirmuhammadning taxt

vorisi etib vasiyat qilinishiga qaramasdan taxtni Xalil Sulton egalladi va 1405 yil 18 martda o'zini oliy hukmdor deb e'lon qildi. Lekin ko'p o'tmay Amudaryoning chap sohilida uning ukasi Mirzo Surton Xusayn bo'ysinishdan bosh tortdi. Turkistonda Amir Xudaydod, Farg'onada Shayx Nuriddin bosh kutardi. Paytdan foydalangan Pirmuhammad Amudaryoning o'ng sohiliga - Xalil Sulton erlariga kechib o'tdi. Umuman, Xurosonda Shohruh, Balx, g'azna, qandahorda Pirmuhammad, g'arbiy Eron va Ozarbayjonda Mironshohning o'g'illari Umarshayx Mirzo va Abu Bakr Mirzolar mustaqil hokimlarga aylanishdi. Farg'onada Xudaydod, Xorazmda Idiku temuriylarga bo'ysinmay quydilar. 1407 yil Pirmuhammadning, 1408 yili Mironshohning o'ldirilishi vaziyatni yanada chigallashtirdi. Faqatgina 149 yilda Shohruhning taxtni egallashi birmuncha osoyishtalikni boshladi. U Xirotda qaytgach Samarqand taxtiga o'g'li Ulug'bekni qoldirdi. Ulug'bekdan so'ng 1469 yilda Sulton Xusayn davrida rivojlandi. Lekin amalda Movoraunnahr va Xuroson ajratib yuborilgan edi.

Temuriylar davrida geografik bilimlarning rivojlanishi.

XIV asrning 60-70 yillaridan to XV asr oxirigacha hukm surgan temuriylar hokimiyati davrida, aksincha, O'rta Osiyoda geografik bilimlar ancha rivojlandi.

Amir Temurning ilm-fan taraqqiyotiga etarlicha homiylik qilmadi. U asosan mashxur quruvchi ustalarni to'plab Movoraunnahrning ulkan qurilishlarida foydalandi hamda tarixnavis olimlarni to'pladi. Mana shunday tarixnavis va geograf olimlardan biri Hofizi Abrudir.

Hofizi Abru taxminan 1361-1362 yillarda Xirotda tug'ilgan va 1431 yil Ozarbayjondan Xirotda qaytib kelayotganida Zinjon shahrida vafot etgan.

Binobarin, olim hayoti va ijodining bir qismi Amur Temur davriga to'g'ri kelsa, bir qismi uning o'g'li, Xuroson hokimi Shohruh davriga to'g'ri keladi. Hofizi Abru deyarli yarim asr davomida temuriylar davrida O'rta Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlarida ro'y bergan, siyosiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar shoxidi bo'lgan. Ayni vaqtda "ulug' amir" xizmatida munshiy (kotib) vazifasini o'tagan. Olim juda ko'p o'lka shaharlarda bo'lganligini yozadi.

Hofizi Abru o'zi ko'rgan erlar tarixi hamda geografiyasiga doir ko'plab ma'lumotlar to'plagan va keyinchalik Shohruh saroyida tarixchi sifatida xizmat qilar ekan, bu ma'lumotlardan keng foydalangan.

Hofizi Abruning ko'plab asarlaridan bizgacha birgina geografik-tarixiy asari etib kelgan.

Bu asar O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondidagi 5361- sonli qo'lyozmadir. Bu qo'lyozmaning geografik qismida butun Dune haqidagi o'rta asr geograflariga ma'lum bo'lgan dunyoning tasviri, shuningdek, Eronning Fors, Kirmon viloyatlari hamda Xurosonning qisqacha geografiyasi berilgan. Hofizi Abru asari tasviriy-geografik va kartografik qismlardan iborat.

Hofizi Abruning o'zidan oldin o'tgan ko'plab geograflarning ma'lumotlaridan bahramand bo'lganligi, bu ob'ekilarning bevosita kuzatganligi, uning tasviri ahamiyatini yanada oshiradi. Sayyoh o'lkamizning ikki asosiy daryosi - Amudaryo bilan Sirdaryonigina emas, boshqa yirik daryolarni ham (jumladan Murg'ob daryosini) ham yuqoridagi tarzda batafsil tasvirlagan.

Hofizi Abru o'zi tasvirlagan yirik tabiiy geografik ob'ekilarning (Hind okeani, dengizlar orollar, shaharlar va h.k.) chizmalarini ham berganki, bu hol ham uning asariga bo'lgan qiziqishini ko'paytiradi. Xullas, Hofizi Abru ma'lumotlari umumgeografik jihatdan ham o'lkashunoslik jihatdan ham o'z davrining eng ajoyib ilmiy durdonasidir.

XV-XVI arslar O'rta Osiyoda geografik tasavvurlarning rivojlanishida juda muqim tarixiy bosqichdir. Bu davrda, O'rta Osiyoda yuqori aytib o'tanimiz Hofizi Abrudan tashqari, jahon geografiyasi uchun boy ilmiy meros qoldirgan ajoyib sayyoh, tarixnavis va geograf olimlar Giyosiddin Naqqo'sh, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirzo Ulug'bek, Ali qushchi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Haydar Mirzo, Hofizi Tanish Buxoriy, O'tamish Hoji va Sulton Balxiylar etishib chiqdilar.

Masalan, Xuroson hokimi Shohruh Xitoyga elchilar sastavida yuborgan g'iyosiddin Naqqo'sh (1418-1422) uch yil davomida Xirotdan Pekingacha bo'lgan mashrut bo'ylab juda katta territorianing tarixi, aholisi, shaharlari va tabiati haqida ajoyib ma'lumot to'plagan. "Uning

Xitoy tarixi" va "Ajoyi Ul Latif" nomi bilan mashhur kundaiklaridan iborat asarida O`rta Osiyoning Sharqiy qismi geografiyasiga oid boy materiallar bor.

Ulug`bekning istedadli shogirdi va olim ishning davomchisi Ali qushchi (1403-1474) o`z davrining Ptolemeyi nomini olishga muvassar bo`ldi. Ali qushchi Ulug`bekning fojiali o`limidan (1449) so`ng bir necha yil o`tgach, Eron va Turkiyaga ketib, astronomiya, geografiya va tematikaga oid ilmiy tadqiqotlarini o`sha erlarda davom ettirdi.

Adabiyotlar.

1. Amir Temur jaxon tarixida. T. 1996 yil.
2. Ibin Arabshox Amir Temur tarixi. 1-2 kitobi. T. 1992 yil.
3. Ibroximov N. Ibn Batuta va uning O`rta Osiyo sayoxati. T. 1993 yil.
4. Mo`minov N. Amir Temurning O`rta Osiyo tarixida tutgan o`rni va roli. T. 1993 yil.
5. Temur tuzuklari. Barcha nashrlari.
6. Ulug`bek. To`rt ulus tarixi.
7. Bobur. Boburnoma. T. 1960 yil. 1982 yil.
8. Raximbekov R. U Dontsova 3,4 O`rta Osiyo tabiatini geografik o`rganish tarixi. T. 1982 yil.
9. Tarixiy geografiya. Ma`ruzalar matni. N. 2001 yil.
- 10.

6 - mavzu. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri tarixiy geografiyasi.

Reja:

1. Ko`chmanchi o`zbeklar istilosi. Shayboniylar davlatining ma`muriy tuzilishi.
2. Ashtarxoniylar davri tarixiy geografiyasi.
3. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida xo`jalik.
4. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida geografik bilimlar.

Sirdaryoning quyi oqimi va Balxash ko`lidan tortib to Dnepr daryosining quyi oqimigacha bo`lgan erlap XI asrdan boshlab Dashti qipchoq deb atala boshlagan. Bu terminni birinchi bo`lib Xusrav (1003-1088) qo`llagan. Bu atama keyinroq arab va fors manbalarida uchraydi. Rus sharqshunos olimi V.V. Bartoldning so`zlariga ko`ra Dashti qipchoq aholisi sharq manbalarida qipchoqlar, rus solnomachilari polovetslar va Vizantiya manbalarida kumanlar deb atalib Xorazmga qo`shni bo`lgan (1030 y), tez-tez rus erlariga bostirib kirishgan. XIII asrning 20-yillarida Dashti qipchoqning bir qismi Jebe noyon va Subatay bahodir tomonidan bosib olingan. 1236 yildan Dashti qipchoq Botuxonga tegishli bo`ladi va Jo`ji ulusi nomi bilan atalgan. (Chingizxon o`z erlarini uluslarga ajratganida Dashti qipchoq Jo`jiga berilgan). Dashti qipchoq ikki qismga ajraladi: Yoyiq (Ural) daryosi va Sirdaryoning quyi oqimidan to Balxash ko`ligacha bo`lgan Sharqiy hamda Yoyiq va Volga daryosidan to Dneprgacha bo`lgan (Volganing o`rta va quyi oqimi, qrim va Janubiy Rossiya erlari) g`arbiy qismlar.

XV asrning 20-yillaridan boshlab Dashti qipchoq erlarini Abulxayrxon birlashtiradi va ko`chmanchi o`zbeklar davlatiga asos soladi (Jo`jining beshinchi o`g`li Shaybon naslidan) Abulxayrxon davlatining kuchayishi temuriylarning inqiroz davriga to`g`ri keladi. 1440 yillarda Abulxayrxon Dashti qipchoq va Movarounnahr o`rtasida savdo yo`llari chorrahasi hisoblangan Sig`noq, Oq qo`rg`on, Arquq, Smuzoq va O`zgand shaharlarini bosib oladi. 1448 yili Samarqandga yurish qilib uni talaydi. Dashti qipchoq va Movarounnahr tarixiga oid muhim davr bu Muhammad Shayboniyxon bilan bog`liq. U 1480 yili ilgarigi o`zbeklar davlati shuhratini tikladi. 1499 yil Movarounnahrni zabt etishni boshladi. 1500 y Samarqand, 1503 yili Toshkent va Shohruxiya, 1504 yili Farg`ona, 1505 yili Urganch, 1506 yili Balx egallanib 1507-1509 yillar Xuroson egallandi. Shayboniy Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni egallagan ulkan davlatga asos soldi. Shayboniyxon o`z davlati hududlarini udel (syurg`ol) tizimiga bo`lib boshqardi. Xonning harbiy yurishlariga katta yordam bergan qabila boshliqlari - sultonlar sovg'a sifatida

erlar olgan (syurg'ol). Hirot - Jonvafbiyga, Hisor - Madhi va Xamza sultonlarga, Marv - qo`biz, Naymanga, balx - Sultonshohga, qunduz - Ahmad Sultonga, Toshkent - Sultonhojaga, Turkiston - Ko`chkunjixonga, Andijon - Mahmud Sultonga, Xorazm - Kepakbiy qushchiga, Buxoro va qorako`l - Mahmud Sultonga, Samarqand va Kesh - Muhammad Temurga syurg'ol qilib berilgan edi. Bunday er egalari yurish paytida xon atrofida birlashgan bo`lsalarda aslida mustaqil siyosat olib borilar edi. Keyinroq ular markazga bo`ysunishdan bosh torta boshladilar. Markazlashtirish uchun xon Kuchkinchi sultondan Turkistonni, Ubaydullodan Buxoroni, madhi Sulton va Hamza Sultonlardan Hisorni tortib olgan bo`lsada umumiy holda udel tizimini yo`q qilmadi. Markazlashtirish uchun kurash uning dushmanlarini ko`paytirdi.

Dashti qipchoq aholisining katta qismini ko`chmanchi va yarim ko`chmanchilar tashkil etganligi uchun ham xo`jalikning asosiy tarmog'i chorvachilik va ovchilik bo`lgan. B.Ahmedovning ma`lumot berishicha, daryo va ko`l yoqalarida istiqomat qiluvchi aholi dehqonchilik, shaharlari (Saroy Botu, saroy Berka, O`rdubozor, Sig'noq, Arquq va h.k)dagi aholi hunarmandchilik bilan shug'ullangan. O`rta Osiyo istilo qilingach Movarounnahr va Xurosonning eng yaxshi erlari Shayboniyxon qabilalari qo`liga berildi. Ko`chmanchi o`zbeklarning Movarounnahr va Xurosonga kirib kelishi iqtisod va madaniyatni o`zgartirib yubordi, deb aytish qiyin. Urushlar natijasida erlar, sug'orish inshootlari va shaharlar vayron bo`ldi. Lekin shayboniylarning xo`jalik rivojlanishiga hissasi ham etarli darajada bo`ldi. Masalan, Shayboniyxon og'ir soliqlar va feodallar zulmidan er-suvini tashlab ketgan xo`jaliklar erlarini ishga tushirish masalasini ko`rib chiqdi. 1502 yili Zarafshonning Oqdaryo va qoradaryoga ayriladigan joyida suv ayirg'ichi qurdirdi. Uning avlodlari davrida Keshda 10 lab kanallar, Abdullaxon II davrida Zarafshon daryosida Karmana, mehtar qosim, Choharmikor, jondor suvayirg'ichlari, Nurota tog'ida Oqchob, Murg'ob vohasida Xovuzixon suv omborlari qurildi (1556-1585). Yana Zarafshon daryosidan Jizzax vohasiga Tuyatortar kanali, Somonjuq dashtini o`zlashtirish uchun Xoja Ka`ab, Afshona kanallari, Amudaryodan Chorjuyg'a, Murg'obdan Marvga, Vaxshdan uning atrof vohalariga kanallar qazildi.

O`sha davr manbalarining ma`lumot berishicha zarafshon va Farg'ona vodiylari asosiy dehqonchilik hududlari bo`lgan. Termiz, atrofi esa bug'doy ekishga qulay edi. Xorazmga ham g'alla Amudaryo orqali shu erdan olib kelingan. Don ekinlaridan bug'doy, arpa, tariq, qo`qonda makkajuxori ko`p ekilgan. Ma`lum bir tumanlarda sholi, dukkakli ekin (mosh, no`xot, loviya) ekilgan. Texnika ekinlaridan paxta faqat xo`jalikdagina emas, davlat miqyosida ham, tashqi savdoda ham muhim ahamiyatda bo`lgan.

Bog'dorchilik va mevachilik Zarafshon, qashqadaryo va Farg'onada keng rivojlangan. Farg'ona meva va poliz ekinlari haqida "Boburnoma" asarida aniq ma`lumotlar berilgan. qishloq xo`jaligida temir tishli omoch, mola, ketmon, belkurak, panshaha kabi asboblardan foydalanishgan.

Pillachilik xo`jalikning muhim tarmog'i hisoblangan. Pilla qurti ariq chetiga ekiladigan tut bargi bilan boqilgan. Pillaning davlat ahamiyatida bo`lganligi uchun tut daraxtlarini asosan yirik er egalari sotib olganlar. Aholining ayrim qismini bo`yoq, ayrimlari esa dori-darmon uchun o`simliklar etishtirganlar.

Chorvachilikning asosiy sohasi yilqichilik edi. qo`shin, transport (ulov), sport o`yinlari va qishloq xo`jaligida foydalanish uchun minglab otlar boqilgan. Zotdor otlar juda qimmat turgan. Yilqichilikdan tashqari qoramol, mayda shoxli hayvonlar boqilgan. qishloq xo`jaligi, savdo karvonlari uchun xo`kiz va tuyalar boqilgan.

Soliqlarning asosiy turlari hiroj, ushr edi. Lekin uning katta qismi mahalliy feodallar qo`lida qolar edi. Davlat byudjeti asosan zarbxona daromadi va bojxona hisobiga qoplanar edi.

Hunarmandchilikning asosiy tarmoqlaridan birito`qimachilik bo`lib, xom-ashyosi paxta, pilla va jun edi. Buxoro, Samarqand va Shahrisabzda yuqori sifatli olacha (Buxoro olachasi) to`qilardi. Bu mahsulot Rossiyaga ham eksport qilinar edi. Eng ko`p to`qiladigan gazlama bu bo`z (karbaz) edi. U ham o`z navbatida mayin, dag'alkabi turlarga bo`linardi. Bo`zga gul bosish yo`li bilan chit tayyorlanardi. Yana futa, tafta singari yupqa gazlamalar to`qilardi. Samarqand chiti, Zandana gazmoli mashhur edi. Shoyi Farg'onada muhim edi. XVI asrdan boshlab

Samarqandda yuqori sifatli qog'oz chiqarila boshlandi. Ipak, paxta qo'shib tayyorlangan va ipak qog'oz nomini olgan qog'ozlar keng tarqaldi. Shunday qog'ozlardan biri usta nomi bilan "miri Ibrohimiy" deb nomlangan. Samarqand qog'ozini tayyorlash siri faqat otadan o'g'ilga meros bo'lgan. (Shu sababli keyin sir g'oyib bo'lgan). Rangli qog'ozlar (och rangli) keng tarqaldi. Metall buyumlarning xalq xo'jaligidagi o'rni katta bo'lganligi uchun rudalar qazish rivojlandi. Bunday konlar, ayniqsa, Toshkent atrofidagi tog'larda ko'p edi. Metall mahsulotlarni tayyorlashga qarab hunarmandlar bir necha kasblarga bo'linganlar.

qimmatbaho toshlar, shuningdek oltin, kumushga ishlov berish - zargarlikdan aholining yuqori qatlami orasida keng foydalanilar edi.

XVI asrda metallardan qurol-yaroq yasashda foydalanishga e'tibor berildi. qilich, kamon va o'q, xanjar, oybolta, nayza, qalqon yasash uchun ustalar ixtisoslashtirdilar. Miltiqlar va to'plar paydo bo'ldi. Abdullaxon II buyrug'i bilan 7 ta o'z davri uchun mukammal to'p quyilgan.

Kulolchilik - hunarmandchilikning rivojlangan etakchi tarmog'i edi. Oddiy ro'zg'or buyumlaridan tortib silliq g'isht, koshin va tandirgacha bo'lgan buyumlar yasalgan. Samarqand atrofida kulolchilik uchun yaroqli tuproq bo'lganligi uchun shu erda bu tarmoq kengroq avj oldi. "g'ijduvon" kabi usullar vujudga keldi.

Duradgorlik, yog'och o'ymakorligi ham keng rivojlandi. Ro'zg'or buyumlari, deraza, eshik, ustunlar, murakkab tasvirli darvozalar yasaldi. Savat to'qish keng tarqaldi.

Davlatni markazlashtirish, xo'jalikni tartibga solish va ichki-tashqi savdoni rivojlantirish maqsadida 1507, 1515, 1529-1530, 1583, 1598 yillarda pul islohotlari o'tkazildi. Dastlabki islohotni 1507 yili Shayboniyxon o'tkazgan bo'lib barcha shaharlarda vazni bir xil - 5,2 gramga teng bo'lgan kumush tanga va mis chaqalarni zarb qilib muomalaga kiritdi. 1515 yili pul islohotini o'tkazdi. Islohotga 1527 yilga kelgandagina o'z natijalarini ko'rsatdi. Eng muhim pul islohotini Abdullaxon II davrida o'tkazildi. U oltin pul zarb etishni yo'lga qo'ydi va uning tarkibini qattiq nazorat qildi. Bu islohot markazlashuvda ham, xo'jalik hayotida ham, savdoda ham muhim yutuqlarkeltirdi. XVI asrlarda O'rta Osiyo tabiiy geografiyasiga ozmi-ko'pmi hissa qo'sha olgan olim va sayyohlardan Mahmud g'ijduvoni, O'tamish hoji, Sulton Baalxiy va Xofiz Tanish Buxoriylarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Sayyoh va tarixnavis olim Mahmud g'ijduvoni XVI asrning birinchi yarmida yashab, ijod etgan. U ustozlari Kamoliddin Husayn Xorazmiy va Hoji Muhammad al-Xabushoni bilan birga Osiyoning juda ko'p mamlakatlarida sayohatda bo'lgan. Keyinchalik o'zi ham O'rta Osiyoning juda ko'p mamlakatlarida sayohatda bo'lgan va Eron bo'ylab ko'plab sayohat qilib, 1543 yil barcha sayohatlarida to'plagan ma'lumotlari asosida "Miftoq at-tolibin", ya'ni "Ilm toliblarining kalidi" nomli asar e'zran. Bu asarni XIX asrda Ogahiy fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Mahmud g'ijduvoni qoraqum cho'li, kaspiy dengizi, jumladan uning sharqiy qirg'og'idagi eng yirik Mang'ishloq porti haqida, 1532 yil Xorazmda yuz bergan dahshatli vabo kasali haqida yozadi.

Umuman bu asar o'z davriga xos tarixiy-o'lkashunoslik xarakteridagi asarlardan biridir. Ma'lumki, Bobur xalqimiz orasida avvalo ajoyib g'azalnavis shoir sifatida mashhur. Hatto uning g'azallarida ham tabiiy bo'lgan go'zalliklariga va o'z vataniga bo'lgan muhabbati aks etgan. Ayni vaqtda u O'rta Osiyo va hind xalqlari tarixi sahifalarida serqirra entsiklopedist olim, tarixchi, geograf, tilshunos va adabiyotshunos sifatida ham sharaflari o'rin tutadi.

Boburga olim sifatida eng katta shuhrat keltirgan asar - uning "Boburnoma" yoki "Boburiya" deb ataluvchi ulkan memuar asaridir. "Boburnoma" jahon fani va madaniyatini boyitgan. Monumental tarixiy yodgorlik bo'lib, unda 1494 yildan to 1530 yilgacha yuz bergan voqea va hodisalar, ular bilan bog'liq yuzlab tarixiy xaxslarning hayoti, ijtimoiy faoliyati xronologik tarzda har taraflama yoritilgan. Geografik jihatdan muhimi shuki, bu barcha voqea va hodisalar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati, joylarning konkret geografik xususiyatlari fanida berilgan. Shu munosabat bilan Farg'ona vodiysidan to janubiy Hindistongacha bo'lgan ulkan terrioriyaning geografiyasi: tabiati, shaharlari, boyliklari, odamlari, urf-odatlar, xo'jaligi mukammal tasvirlangan.

"Boburnoma" o'zbek geografik terminologiyasi va toponimikasi jihatidan katta ilmiy xazinadir. Bu jihatdan "Boburnoma"ni "Devonilug'otit turk" taqqoslash mumkin.

XVI asrda - Shayboniylar hukmronligi davrida geografik tasavvurlarning rivojlanishi.

XI-XII asrlardan boshlab O'rta Osiyoning Sirdaryodan shimoldagi keng cho'l va dashtlardan iborat qismi Dashti qipchoq deb atalar hamda unda bir nechta ko'chmanchi qabilalar orasidan etishib chiqqan Muhammad Shayboniynon bu qabilalarni markazlashgan katta davlatga birlashtirishga erishdi. U Dashti qipchoqdan tashqari quyi Sirdaryo havzasidagi shahar va vohalarni ham egallab, 1499-1500 yillar O'rta Osiyoning asosiy qismi Movarounnahrda kirib keldi. Shayboniynon temuriylarning feodal tarqoqligidan foydalanib, birin-ketin barcha yirik shaharlarni egallab, (1499-1500) Xurosonga ham o'tib bordi. Temuriylardan Farg'ona viloyati hokimi Zahiriddin Muhammad Boburgina unga bir necha bor qattiq zarba berdi. Biroq, boshqa temuriylardan etarli madad ololmagan Bobur ham nihoyat chekinishga majbur bo'ldi. Natijada shayboniylar qisqa vaqt ichida deyarli butun O'rta Osiyoni egallab, bu erda butun XVI asr davomida hukmronlik qildilar.

O'rta Osiyo to'g'risidagi geografik tasavvurlarning XVI asrning birinchi yarmidagi rivojlanishida Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Haydar Mirzaning boy ilmiy merosi markaziy o'rin tutadi.

Adabiyotlar.

1. Ahmedov B. Gosudarstva kochevo'x uzbekov. M., 1965.
2. Ahmedov B. o'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. Barcha nashri.
3. Karimov Sh, Shamsuddinov R., Vatan tarixi. T., (II kitob). 1996.
4. Bobur Z. "Boburnoma". Barcha nashri.

7 – mavzu. Xonliklar davri tarixiy geografiyasi.

Reja.

1. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining ma'muriy hududiy tuzilishi, axolisi.
2. Xonliklar davrida xo'jalik.
3. Ichki va tashqi savdo.
4. Geografik bilimlar. O'rta Osiyoni o'rganish.

1747 yili Eron shohi Nodirshohning o'ldirilishi Eronda ichki kurashni boshlab berdi. Bu esa Buxoro mangitlariga ham qo'l kelib Muhammad Rahimbiy feodallarining qo'llab quvvatlashi bilan 1753 yili o'zini amir deb e'lon qildi. Shu bilan Buxoroda 1920 yilgacha xukumronlik qilgan o'zbeklar sulolasi xukumronligi boshlandi. Buxoro erlari geografik jihatdan shimoldan janubga: Sirdaryoning chap sohilida to Amudaryoning (o'rta kismi) o'ng sohiligacha bo'lgan erlar kirib sharkdan qo'qon xonligi, g'arbdan Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Bundan tashqari Amudaryoning chap sohilida Xiva va Buxoro o'rtasidagi Jizzax, O'ratepa xududlaridagi Buxoro va qo'qon o'rtasidagi baholi erlar mavjud edi. Buxoroning umumiy er maydoni XIX asr o'rtalarida 200 ming kvadrat km ni tashqil etgan.

Davlatni oliy hukumdor - amir idora etgan bo'lib mutloq monarhiya edi.

Mamlakat quyidagi bekliklarga bo'lib boshqarilgan: Chorjo'y, Karmana, Ziyovuddin, Nurota, Xatarchi, Xatob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog', Guzor, Boysezi, qorategin, Denov, Xisor, Darvoza, Boljuvon, Shugnoy, Rushon, Kulob, qo'rg'ontepa, Kabadiyon, Sherobod, Kalif, Karki, Karokli, Xorazm, Buxoro davlat poytaxti bo'lib uni kushbegi idora qilgan.

Xorazmda qo'ng'irotlar xokimiyati XVIII asrning 60 - yillaridanoq qo'lga kiritilgan bo'lsalarda 1804 yil Abdulg'ozining taxtdan tushirib Oltuzarning (1804-1806y) taxtga chiqishi rasman boshqaruvni boshlab berdi. Geografik jihatdan Xiva xonligi Xorazm voxasini qamrab olgan bo'lib shimolda Orol, janubda ko'chmanchi turkmanlar, sharqda esa Buxoro erlari bilan chegaradosh bo'lgan. Davlat mutloq monarxiya bo'lib boshqaruv xon qo'lida edi. Ma'muriy -

xududiy jihatdan Xiva xonligi beklik viloyat va noiblikka bo'lingan. Xozarasp, Gurlash, Xonka, Ko'xna Urganch, qo'shko'prik, Pitnak, Xazovot, Kiyot, Shoboz, Shovot, Toshxovuz, Ambarmanok, Urganch, Xo'jayli, Shumanay, qo'ng'iroq, kabi beklik va viloyatlar yana Beshariq, Kiyotqo'ngiroq kabi noibliklar mavjud bo'lgan. Xuddi Buxorodagidek poytaxt shaxar Xiva bosh vazir tomonidan boshqarilgan.

1709 yili Popda avval Chodak xojalarining so'ng min qabilasining taxtga chiqishi bilan qo'qon Buxoro xonligidan mustaqil idora qilina boshlandi. qo'qonda xam boshqaruv mutloq xokimiyat xon qo'lida bo'lgan. Ma'muriy-xududiy jixatdan esa beklarga bo'lib boshqarilgan. qo'qon, Margilon, O'sh, Andijon, Shaxrixon, Baliqchi, Novkent, Buloqboshi, Aravon, Koson, Suxz Maxram, Bobodaxon, Xo'jand, O'ratepa, Namangan, Turkiston va Toshkent. Nomlanishidan ko'rinib turibdiki, qo'qon erlari hozirgi Toshkent, Jizzax, Farg'ona, Andijon, Namangan, qirg'izistonning O'sh va Sheralobod, Tojikistonning Xo'jand (eski leninobod) viloyatlarini o'z ichiga olgan bo'lib yana Tojikistonning qorategin, Darboz, Roshan, Shugkon, Vakon, erlariga rahbarlik qilgan. qirg'izistonning Tolos, Issiqko'l atrofidagi erlarni xam bosib olgan.

Xuddi erlaridek xonliklar axolisi xam rang-barang bo'lgan. Buxoro amirligining umumiy axolisi 2 million kishi bo'lib ular asosan, qashqadaryo voxasida (500 ming), Zarafshon vodiysida (300-350 ming), Sirdaryo voxasida (200 ming), Sharqiy Buxoroda (500 ming) yashar edilar. Xususan, Buxoro shaxrida 50 ming, Samarqand shaxrida xam 50 ming kishi istiqomat qilgan. Axolining 57%ni o'zbeklar tashkil etar edi. Ular orasida mangit, sakroy, qo'ng'iroq, jabgu, karluk, qalmoq, naymon, qipchoq, yuz, ming kabilari ko'pchilik edi. O'zbeklar o'troqlashgan bo'lib Zarafshon qashqadaryo, Surxandaryo, voxasining qishloq va shaxarlarida istiqomat qilganlar. O'troqlashgan axoli xisoblanmish jonliklar xam ko'pchilik edi. Amirlikning shimoliy - sharqida chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qozoqlar, Amudaryoning o'ng soxilida yarim ko'chmanchi turkmanlar (vaqtincha qaram) yashagan. Shaxarlarda ayniqsa Buxoroda 3 mingga yaqin tatarlar istiqomat qilgan. Yana turk - qarluqlar, arablar, yaxudiylar, forslar, xindlar yashashgan bo'lib ular ozchilikni tashkil qilganlar.

Xiva axolisi xaqida gap ketganda Buxoro xonligidagidek ko'p yoki qo'ramas emasdi. Axolining ko'pchiligini o'zbeklar tashkil etgan bo'lib qo'ng'iroq, Naymon, qiyot, Uyg'ur, Nukuz, Kangli, Xitoy, qipchoq qabilari ustunlik qilar edi. Xonlik axolisining ? qismini tashkil etuvchi, o'gizlar avlodidan bo'lmish turkmanlar Amudaryoning chap soxilida yashashgan. Amudaryoning quyi qismida, daryo atrofida yashagan o'zbek qabilalarining asosiy mashg'uloti dexqonchilik va xunarmandchilik bo'lsa, turkmanlar chorvachilik bilan shug'illanganlar. Orol dengizining janubiy qismlari Amudaryoning quyilish qismi bilan birga qoraqalpoklar eri bo'lgan. Ularning asosiy mashg'ulotlari dexqonchilik, chorvachilik, baliqchilik va ovchilik bo'lgan. qo'qon xonligi ham ko'p millatli davlat bo'lgan. Umumiy axolisi 3 milion atrofida bo'lib ko'pchilikni o'zbeklar tashkil etgan. Mamlakat xayotida etakchi o'rinda turuvchi o'zbeklar asosan vodiylardagi shaxar va qishloqlarda yashashgan.

Asosiy mashg'uloti xunarmandchilik va dexqonchilik. Son jixatdan ikkinchi o'rinda turuvchi tojiklar xonlikning O'ratepa, Xo'jand, qashbodom, Isfara, qoratepa, Sux, Rishton, Chust, Kosonsoy, xududlarida ko'pchilikni tashkil etganlar. Ular xam o'troqlashgan axoli bo'lib dexqonchilik va xunarmandchilik bilan ko'prok shug'ullanganlar.

Xonlikka qarashli Sirdaryoning quyi oqimida, Chimkent, Avliyoota, Turkiston xududida asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan qozoqlar yashagan. qirg'izlar (qoraqirgizlar) Farg'ona vodiysining shimoliy - sharqiy, sharqiy va janubiy qismlarida, Tolos, Chuy vodiylarida, asosan tog' va tog'oldi xududlarida yashashgan. Ularning asosiy mashg'uloti chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Ilgari Tyan-shan' qirg'izlariga bo'lingan. XIX asrda umumiy qirg'izlar, deb nomlanuvchi bu xalq xonlikning siyosiy xayotida muxim o'rin egallagan. XIX asrda Issiqko'l atrofida 300 mingdan orti qirgizlar yashaganligi to'g'risida ma'lumot bor.

Xonlikning asosiy tarkibini tashkil qiluvchi yana bir xalq qoraqalpoklar bo'lib Farg'ona vodiysining markaziy xududlarida, qo'qon, Namangan, Andijon, O'sh, Marg'ilon xududlarida ko'pchilikni tashkil etganlar. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha bu xalq jungorlarning XVIII

asrdagi bosqini sababli o'z erlaridan ko'chib bir qismi Sirdaryoning o'rta oqimiga, ikkinchi qismi esa shu er orqali Farg'ona vodiysiga ko'chib ketganlar. Xitoy fedoallarining 1756-1758 yillarda qashg'arga qilgan talonchilik yurishlari oqibatida 80 mingdan ortiq qashg'arlik uyg'urlar Farg'ona vodiysiga ko'chib keldilar. Uyg'urlar vodiyni O'sh, Andijon, Shaxrixon, Yozyovon xududlarida o'z qishloqlarini tashkil qilganlar.

qo'qon xonligi xududida rus va tatar millatiga mansub axoli xam yashagan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, XIX asrning o'rtalarida qo'qon shaxrining o'zida 100 mingdan ortiq rus va tatar axolisi yashagan. Ularni yana Toshkent shaxrida uchratish mumkin edi. Bu millat vakillarining O'rta Osiyoga ko'chib kelishi savdo bilan bog'liq. Bundan tashqari tatarlar o'qish uchun xam kelganlar. O'rta Osiyoning Buxoro, Toshkent, qo'qon kabi katta shaxarlarida yana yaxudiy jamoalarini xam uchratish mumkin edi. Shu tariqa XIX asrda yirik shaxarlarda "kugay maxallalar" vujudga keldi. Ozchilikni tashkil etuvchi bu xalqlar savdo, xunarmandchilik va yana dexqonchilik bilan shug'ullanishgan.

Xonliklarda erga egalik qilishning asosiy 3 ta turi mavjud bo'lgan: mulki sultoni (davlat erlari), xususiy erlar, vaqf erlari. Xonliklar agrar davlat bo'lganligi uchun erga e'tibor kuchli bo'lgan. Buxoroda XVIII - XIX asrlarda dexqonchilikning muxim tarmog'i sug'orma dexqonchilik bo'lib bunday erlarda an'anaviy ekinlar etishtirilgan (asosan boshqali ekinlar). Sanoat ekinlaridan paxta ko'p ekilar edi. Pilla tarqoq bo'lsada rivojlangan. Dexqonchilik maxsulotlarining chorvachilik va xunarmandchilik maxsulotlari bilan ayrboshlanishi, ya'ni mexnat taqsimoti bosh tarmoq - dexqonchilik rivojlanishini tezlashtirdi. Dexqonchilikdagi mexnat taqsimoti o'sib borib maxsus maxsulot etishtiruvchi xududlar vujudga keldi. Sun'iy sug'orish inshootlari qurilishi jadallashdi. Zarafshonda Juy - qurama, Juy -Sarozi kanallari qazildi. XVIII asrning 50 yillarida Dargom Kanalining tug'oni (Zarafshonda) tiklandi. Sheroz va Urgutda ariqlar tozalandi, yangi ariqlar qazildi. Kashkadaryo va Oqdaryodan ariqlar chiqarildi. Shoxmurod davrida Zarafshondan Urgut erlarini sug'oruvchi taymog' arig'i, Surgut erlarini sug'oruvchi to'g'iz arig'i qazilgan. XVIII asrda Sharqiy va g'arbiy Buxoroda ko'chmanchilarning o'troqlashuvi kuchaydi. Zarafshonda suv ayirg'ich ko'prigi, Tuyatortar kanali, Oq chupsoy suv ombori, Voxishdan o'nlab ariqlar qurildi.

Xiva xonligida sun'iy sug'orish inshootlarining qurilishida xon va yirik amaldorlar tashabbus ko'rsatganlar. Arab Muxammadxon turk qal'asidan Kuygun tomonga qazitgan kanal, Abulg'oz Boxodirxon qazdirgan g'ozibod kanalining ta'mirlanishi, Anushaxon davrida qurilgan Shaxobod (uzunligi 14 km eni 30 metr, chuqurligi 3,5 metr), Urmush (uzunligi 96 km, eni 17,5 m), kanallari, Ali Sulton qurdirgan Toshli yormish kanali xamda mankitarna (XVII), Emish Yaran, Omonquli, Ingichka, Ixlos, qilich Niyozboy (1815), Yangiyor va Korako'z (XIX), Shoxmurod (1846), Raxmonberdiboy, Tashsako (1828), Ko'xna Urganch - Xonyop (1831), qoraqalpog', Xonobod (1847), Sipoxiy, Muxammadamin (1850), XIX asrning 50 yillarigi Kaltaminor, Bogyop, Amirobod, Saribiy kanallari va boshqalar shular jumlasidandir.

qo'qon xonligida xam suv inshootlari barpo etishga katta e'tibor berilgan. Xonlikdagi tabiiy suv man'ei Sirdaryo bo'g'lib undan tashqari Sux, Isfara, Shoximardon, Poshshota, Isfayram, Novkat, Oqbura, qorabura, Kosonsoy va boshqa katta - kichik daryo va soylar, Toshkent atrofini sug'oruvchi Chirchiq va Oxangaron daryolari mavjud. XVIII asr oxirida - XIX asrning 1 yarmida xonlar va ayrim kishilar boshchiligida sun'iy sug'orish inshootlari qurildi. Olimxon (1801-1810) va Umarxon (1810-1822) davrlarida ayniqsa, erlar o'zlashtirish uchun kanallar, ariqlar qazildi. Bu kanaldan jami 96 ta ariq chiqarilgan. 1819 yili Umarxon davrida yangi ariq kengaytirildi va o'zaytirildi (100 chakirim). 1819 - 1821 yillarda Shaxrixonsoy kovlanib "Naxri Umarxoniy" nomini olgan 101 chaqirimli kanal qazildi. U qoradaryodan suv oladigan bo'ldi. Muxammad Alixon davrida (1822 - 1841) Sirdaryoning chap qirg'og'ida Gurtepa, Momoxon arig'i qazildi. Chirchiqdan Bo'zsuv, Zaxarik kanallari qazildi. 1860 yillarda esa Xonarik, Ulug'if kabi kanallar qazildi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i xar uchala xonlikda xam sug'orma dexqonchilik bo'lgan. qo'qon xonligida xam bug'doy, arpa, tariq, sholi, paxta, no'xot, mosh, loviya, kunok kabi ekinlar ko'p ekilgan. 1813 - 1814 yillarda qo'qonda bo'lgan F. Nazarov xonlikda paxta va tut daraxti ko'p ekanligi xaqida ma'lumot bergan edi.

Etishtirilgan pilla chet elga, asosan, Rossiyaga eksport qilingan. Bundan tashqari vodiya bog'dorchilik, sabzavotchilik va polizchilik yaxshi rivojlangan.

Adabiyotlar.

1. Abdulg`oziy, Shajaran Turk, T. «Cho`lpon» 1992 yil.
2. Vasifiy. Zayduddin, Badoe` ul-vaqoe` («Nodir voqealari») T., 1979 y
3. Bobobekov. X. Qo`qon tarixi, T. 1996 yil.
4. Bobobekov. X. Narodnie dvijenie v Kokandskom xanstve..... T. 1990
5. Nabiev R. Qo`qon tarixi, T. 1984 yil.
6. Qosimov. Y. Qo`qon xonligi tarixi ocherklari, N. 1993 yil.
7. Raximbekov R. U Dontsova Z, N O`rta Osiyo tabiatini geografik o`rganish tarixi, Namangan 1992 yil.
8. Tarixiy geografiya, ma`ruzalar matni. N. 2001 yil.

8 - mavzu. Rossiya imperiyasining O`rta Osiyoni istilo qilishi tarixiy geografiyasi. **Reja**

1. Rossiya imperiyasi istilosi geografiyasi.
2. Ma`muriy xududiy bo`linishi.
3. Turkiston axolisi.
4. Agrar siyosat (Er- suv siyosati)
5. Sanoatning bir tamonlama rivojlanishi.

1714-1717 yillardagi Bekovich-Cherkasskiy va Buxgal'ts ekspeditsiyalarining muvaffaqiyatga uchrashi rus xukumatining rejasiz shoshilinch xarakat qilmaslik to`g`risida uylantirib qo`ydi. Aslida ruslarning O`rta Osiyoni bosib olishga xarakati bundanda oldinroq boshlangan. Boshqacha qilib aytganda Astraxan, qozoq, xonliklarining bosib olinishi, Sibir kengliklariga kirib borish, 1586 yili Yumen', 1587 yili Tobol'sk qal'alarining qurilishi. qozog'iston erlariga suqilib kirish uchun tayyorgarlik, deb bilish mumkin. Bu xarakat Petr 1 davrida keng tus olib 1716 yili Omsk, 1718 yili Semipalatinsk, 1719-20 yili Ust-Kamenegorsk, 1734 yili Orenburg, 1743 yili Troitsk, 1752 yili Petrapavlovsk kabi xarbiy kal'alar kurildi. X.Ziyaevning yozishicha Rossiya XVIII asrda O`rta Osiyoga chegaradosh va qozog'iston erlarida 46 ta qal'a va 96 ta qal'achalar barpo etgan. Shu bilan qo`qon xonligiga qarashli Chimqo`rg'on, Kumish va boshqa qo`rg'onlarni buzdirib tashladi. 1847 yili Sirdaryo o`zani yaqinida Raim (Aralsk), keyinrok Ettisuv (Olatog') da Kopol ispoxkomlarining qurilishi bilan Ruslar janubga yanada yaqinroq kelib qoldilar.

Kazok qabilalari, qo`qon-Kazok, qo`qon-qipchoq, Buxoro-qo`qon, Buxoro-Kazok, munosabatlarining xar bir keskinlashuvidan Ruslar siyosiy soxada foydalandilar (1839 yilgi Perovskiy yurishi kabi). Y Murkroford, D. Trebek, F. Berg, A. Berns, D. Abbot, Ch. Stoddart, Kanolli, R. Shekspir, A. Tod kabi ingliz missiyalari Ruslarning O`rta Osiyoga yurishini tezlashtirdi. (AqSh dagi 1861-1865 yillardagi fuqarolar urushi!) Ruslarning birinchi amaliy muvaffaqiyati (1852 yilgi muvaffaqiyatsizlikdan so`ng) xarakati 1853 yili Oqmachitning bosib olinishi bo`ldi. Shu bilan Sirdaryo liniyasi (chizig'i) tashkil etildi: Aralsk istexkomidan boshlab janubga daryo soxili bo`ylab 1-form (Kazalinsk), 2-form (qarmoqchi)| 3-form (sobiq Kumushqo`rg'on) dan Perovskiy (Oq machit)gacha Sirdaryo va Sibir' liniyalari O`rta Osiyo ichkarisiga xujum qilish uchun muxim plasdarmilar vazifasini o`tardi. Pozitsiya yanada mustaxkamlanib 1854 yili Vernoe (Olma-ota) istexkomi qurildi. 1853-1856 yilgi qirim urishi ruslarni O`rta Osiyodan chalg'itdi. 1860 yili qo`qonliklar va ruslar o`rtasidagi to`qnashuvdan so`ng Pishpak va To`qmoq istexkomlari egallandi. 1861 yili esa Yangiqo`rg'on qal'asi egallandi. 1864 yili Avliyoota jang bilan egallandi (4 iyun'). 12 iyunda esa Turkiston shaxri egallandi. Avliyootani ishg'ol qilgan palkovnik Cheriyaev otryadi palkovnik Lerx otryadi bilan birlashib 1864 yil 21 sentyabrda Chimkentni shturm qildilar. Lekin 27 sentyabrdagi Toshkent qamali

muvaqqiyatsiz yakunlandi. 1865 yil 28 aprelda Niyozbek, 1865 yil 17 iyunda esa Toshkent egallandi. 1866 yili Jizzax egallanib Toshkent, Xo`jand, Chirchiqorti, o`lkalari Rossiya tarkibiga kiritildi. 1867 yili markazi Toshkent bo`lgan Sirdaryo va markazi Verniy (Olma-ota) bo`lgan Ettisuv viloyatlarini o`z ichiga olgan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi.

Chor Rossiyasining Buxoro amirligi ustiga yurishi ikki bosqichdan iborat bo`ldi. Birinchi bosqich 1866 yil bo`lib O`ratepa, Jizzax, Yangiqo`rg'on kabi erlar ishg'ol etilgan. Ikkinchi bosqich esa 1868 yil bo`lib shu yil 1 mayda Cho`lponota, 2 may kuni Samarqand ruslar tomonidan egallandi. 18 may Kattaqo`rg'on jangsiz taslim bo`ldi. Buxoro taqdirini xal qilgan jang Zirabuloq jangi bo`lib, shundan so`ng amirlik va ruslar tomonidan shartnoma imzolandi. Shartnoma mazmuni quyidagicha bo`ldi:

- 1., Rossiya ixtiyoriga o`tgan erlar, chegaralar ko`rsatilgan.
2. Amirlik xududidagi barcha rus fuqarolariga ochiq savdo qilish, xoxlagan joylarida karvonsaroylar qurish huquqi berildi. Amir ularning xavfsizligiga javobgar.
3. Rossiya shaxarlarida xam, Buxoro shaxarlarida xam xar ikkala davlat fukorolariga savdo qilish xquqi beriladi.
4. Savdo va bosh olishining qonuniy bo`lishi uchun rus savlogarlari o`zlariga Karvonboshilar saylab olish xuquqiga ega.
5. Rossiyadan Buxoroga, Rossiyaga kelgan tovarlardan bir xil 2,5% miqdorida bosh olish belgilangan.

1872 yili Peterburgda Turkiston, Orenburg general-gubernatorlari va Kavkazdagi Podsho noiblari ishtirokidagi maxfiy kengashda Xiva xonligiga yurish to`g`risida kelishib oldilar. 1873 yili general Kaufman qo`mondonligidagi Turkiston general-gubernatorligi qo`shinlari (22 ta rota, 1800 kazak, 18 ta to`p). Sharq tomonidan, general Vervovkin rahbarligidagi Orenburg general-gubernatorligi qo`shinlari (15 rota, 600 kazak, 8 to`p) va palkovnik Lomakin boshchiligidagi Kavkaz qo`shinlari (12 rota, 800 kazak, 8 to`p) g'arb va shimoliy g'arb tomonidan Xivaga yurish boshladilar. Yurishga imperator xonadoni aloxida e`tibor bilan qaradi. 1873 yilning o`zidayoq Xiva shaxri zabt etilib 12 avgustda Kaufman va xon (Muxammad Raximxon II) o`rtasida shartnoma (Gandamiyonda) imzolandi. Shartnomaga ko`ra: Xonlik siyosiy huquqlardan maxrum bo`ldi, ruslardan iborat Devon tuzildi, Kun Amudaryoning o`ng soxilidagi barcha erlar Rossiya ixtiyoriga o`tdi, rus sanoatchi va savdogarlari xonlik xududining xoxlagan erida bohsiz erkin ish olib borish huquqiga ega bo`ldi, xonlik 2 million. 200 ming tovon puli to`lashga majbur etildi. 1880-1881 yillar Kaspiyorti erlarini bosib olish yakunlandi.

Chor Rossiyasi bosib olingan xududlarni ma`muriy xududiy bo`linishida milliy, ijtimoiy-iqtisodiy kabi asoslarga e`tibor bermay chegaraladi. 1876 yil 19 fevralda faqat Farg'ona vodiysi bilan chegaralanib qolgan qo`qon xonligi tugatilib Farog'ona viloyati tashkil etildi va Turkiston general-gubernatorligi ixtiyoriga beriladi. Turkiston general-gubernatorligi er maydoni Frantsiya, Germaniya va Avstriya-Vengriya imperiyalari er maydoniga teng edi. Turkiston general-gubernatorligi 1865 yil "Dasht komissiyasi" ma`lumotlaridan so`ng Vazirlar maxkamasi qarori bilan qabul qilingan. Unga Ettisuv va Sirdaryo viloyatlari kiritilgan. Yil sayin general-gubernatorlik xududi kengayib bordi. XX asr boshlariga kelganida Turkiston general-gubernatorligining 5 ta viloyati mavjud edi. Viloyatlar tumanlarga bo`lib boshqarilgan, tumanlar esa uchastkalarga bo`lingan.

1. Samarqand viloyati tumanlari-Jizzax, Kattaqo`rg'on, Xo`jand, Samarqand.
2. Sirdaryo viloyati tumanlari-Toshkent, Avliyoota, Kazoli, Perovsk, Chimkent, Amudaryo.
3. Farg'ona viloyati tumanlari-Marg'ilon, Andijon, qo`qon, Namangan, O`sh.
4. Ettisuv viloyati tumanlari-Verniy, Jarkent, Kopal, Lepsenek, Pishpak, Prjevalsk.
5. Kaspiyorti viloyati tumanlari- Ashxabot, Krasnovodsk, Mangishloq, Marv, Tajan.

O`lkadagi viloyat va tuman boshqarmalari shaxarlarda joylashgan. Toshkent, Samarqand, qo`qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Ashxabot, Turkistonning asosiy shaxarlari xisoblangan. Chimkent, Termiz, Jizzax, Kattaqo`rg'on kabi shaxarlar xam mavqe tuta boshlagan edi. O`lkaga kelgan dastlabki ruslar asosan xarbiylar bo`lsa, ularning ortidan savdogarlar kela boshladi. Ya`ni

savdogarlar shaxarlarda doimiy yashashga o'rgandilar. Shaxarlarda ruslar yashaydigan daxalar paydo bo'ldi. Rus fuqarolarini ko'paytirish maqsadida ayrim shaxarlarga imtiyozlar berila boshlandi. Bu shaxarda xunarmandchilik korxonalari va fabrikalar ochgan shaxslardan soliq va majburiyatlar olishmas edi. Savdogarlar xam sanoatchilar kabi imtiyozga ega bo'ldi. Bunday imtiyozga Ettisuv viloyatidagi Seriopal va Kopal, Sirdaryo viloyatidagi Toshkent, Xo'jand, Jizzax, Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Perovsk, Kazoli shaxarlariga ega bo'ldi.

Imperator Aleksandr II ning topshirig'iga ko'ra 1882-1884 yillarda Turkiston o'lkasi taftish qilingan. F.Girsning ma'lumot berishicha Turkistonda umumiy 2,406,000 kishi istiqomat qilgan. Shundan 1,200,000 kishi erkaklar bo'lgan. XX asr boshiga kelib esa o'lka axolisi 7,464,100 kishiga etgan. Buxoro amirligida 2,236,437 kishi, Xiva xonligida esa 640 ming kishi yashagan.

Turkiston istilosidan so'ng bir qator qonunlar, shu jumladan, 1886 yilgi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida" gi nizom er egaligidagi Yangi o'zgarishlarini boshladi. Nizomning mazmuni quyidagicha edi:

1.Yer davlat mulki, deb e'lon qilindi. O'troq aholiga jamoa bo'lib foydalanish uchyn berildi. Kuchmanchi chorvadorlarga esa jamoa bo'lib foydalanish uchun cheklanmagan muddatga berildi. qisqasi, barcha erlar davlat ixtiyoriga o'tkazildi.

2.O'troq yerlar Vasiqalar, qozilar qarorlariga qaramasdan amalda undan foydalanayotgan odamniki, deb belgilandi. Shu sababli ijaradagi erlar undan foydalanayotgan kishilar ixtiyoriga (merosiy foydalanish uchun) berildi. Bunday qarorning sababi Chorizm mahaliy feadallar bilan kurashda keng halq ommasiga tayanish edi.

3. Vaqf yerlari ilgaridek qoldirildi, lekin ayrim hollarda uni davlat ixtiyoriga o'tkazish mumkinligi, belgilandi.

4. Sobiq imtiyozli shaxsiy er egalaridan davlat mulki hisobida soliq olinadigan bo'ldi.

5. Shahardan tashqarida Rus aholisi uchun ajratish taqiqlandi.

6.Yevropaliklar uchun (ruslar uchun ham) mahaliy aholiga qarashli erlarni sotib olish mutloq taqiqlandi. Ushbu qonun 1890 yillar oxirigacha o'z kuchida bo'ldi ?!

Turkistondagi er-suv soatida rus dvaryanlari va burjuaziyaning bir-biriga qarama-qarshi fikrlari mavjud edi: davlat ixtiyoridagi Kreposmnoy dehqonlar va erkin er egasi bo'lgan dehqon. Maslahatchi Gerts boshchiligidagi taftish kamissiyasi yakunlarida Turkiston, umuman Rossiya uchun erkin er egalari mavjudligi foydali ekanligi aytilgan. Lekin, imperator, vazirlar va Kengash a'zolari ko'proq dvaryanlar manfaatlarini ko'zlab, ish tutganlar. Erlarning jamoalarga birlashtirilishi Bilan soliq yig'ishda "doiraviy javobgarlik" joriy etildi. Bunda soliq birmaqbir jamoadan oshkor edi. Uning yana bir afzallik tomoni to'lanmagan soliq uchun jamoadosh to'lashga majbur bular edi. Sudxo'rlar ham bundan oqilona foydalanar edi. Soliq yig'ishda boylarga ozroq, kambag'allarga to'g'ri kelishi to'g'risida xujjatlar saqlanib qolgan.

Chor Rossiyaning Turkistondagi er-suv isloxatining yana bir xususiyati kuchirish siyosatidir. 1886 yilgi nizomdagi "bo'sh davlaterlari" bu siyosat uchun ayni muddao bo'ldi. 1875- 1890 yillarda (15 yil davomida) Turkistonga 1300 ta oila kuchib kelib 19 ta rus qishlog'i tashkil topdi. 1891-1892 yillardagi Rossiyadagi ocharchilik ommaviy kuchishga sabab bo'ldi. 1892 yildan esa o'zboshimcha kelganlarga ham er uchastkalari berishga ruxsat berildi. Rossiyada dehqonlar harakatidan xavfsiragan pomeschchiklar ham rus mushuklarining kuchib kelishiga (siyosat chirog'ining) qarshilik qilmas edi. XX asr boshlariga kelib Turkistonlagi rus aholisining soni 197.420 taga etdi. Ularning aksariyati hozirgi qozag'iston va qirg'iziston xududlariga to'g'ri kelar edi.

Turkistondan Rossiyaga olib chiqib ketila boshlangan xom Ashe asosan paxta va pilla edi. 1885 yili paxta maydoni 41.4 ming tanobni tashkil etgan bo'lsa, 1915 yilga kelib bu ko'rsatkich 541.9 ming tanobga etdi (13 barobar o'sdi). 1884 yildan boshlab Rossiya sanoati uchun zarur bo'lgan paxtaning "Amerika" navi ekila boshlandi. 1889 yili shu Navli paxta 50 ming tanobga ekilgan bo'lsa 1895 yili 100 ming tanob, 1901 yili esa 174026 tanobga ekildi. XX asrning boshlarida paxtachilik Turkiston sanoati va qishloq xujaligi yalpi mahsulotining 40% ni,

don 37% ni tashkil etdi. 1915 yili Turkistondan Rossiyaga olib chiqib ketilayotgan paxta 2.426.298 pudga etdi. 1905 yili bu ko'rsatkich 566.878 pud edi, xolos.

O'lkasa sanoatning xunarmandchilik sohasi saqlanib qolgan bo'lib ular, asosan, uy - ruzg'or buyumlari yasash, tayyorlash bilan band edi. Masalan, kigiz, na'mat, duradgorlik, egar-jabdug', qaychi, pichoq, bolta, tesha, ketmon . . . kabi temirchilik, shoyi, bo'z, atlas to'qish, do'ppichilik, kalish, mahsi tayyorlash kabi to'qish, ishlov berish hunarmandchiligi, rangli metallardan uy ro'zg'or buyumlari tayyorlash va zargarlik, Samarqand, Maarg'ilon, qo'qon, Andijon, Buxoro shaharlari hunarmandchilik rivojlangna shaharlar hisoblanar edi. XIX asrning ikkinchi yarmida rus sanoati maxsulotlarining kirib kelishi hunarmandchilikni inqirozga olib keldi. Shu davrdan boshlab o'lkada paxtani qayta ishlash bilan sa'noat vujudga kela boshladi. Paxta tozalash yog', sovun pishirish korxonalari shular jumlasidandir. Birinchi paxta tozalash zavodi 1874 yili Toshkentda qurildi. 1880 yili Andijonda, 1881 yili Kattaqo'rqonda shunday zavod qurildi. 1880-1914 yillar mobaynida 220 ta paxta tozalash zavodlari qurildi. 1913 yili Buxoro Amirligida 26 ta, 1917 yili Xiva xonligida 36 ta paxta tozalash zavodi bo'lgan. O'lkada qurilgan paxta tozalash zavodlarining egalarining ko'pchiligi rus sanoatchilari edilar. Yog' ishlab chiqaruvchi dastlabki zavod 1884 yili qo'qon va Toshkentda 1897 yili Kattaqo'rg'onda qurildi. Yog' zavodlarining ko'pchiligi keyinroq Farg'onada qurilgan. XX asr boshlariga kelib monopol birlashmalar vujudga kela boshladi. 1915 yil holida 5 ta firmani birlashtirgan "Beshbosh" savdo-sanoat shirkati vujudga keldi.

Adabiyotlar.

1. Abduraxmanova. N.A. Sitema kolonial'nogo upravleniya Turkistane, Tashkent. 1976 yil.
2. Eroshkin N. P. Istorii gosudasrtvennix uchrejdeniy dorevoltsionnoy Rossii. M. 1968 yil.
3. Ziyaev. X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va xukumronligiga qarshi kurash. T. 1998 yil.
4. Choriev. Z. Turkiston mardikorlari: Safarbarlik va uni oqibatlar. T. 1999 yil.
5. Xal'fin N.A. Rossiya i xanstva sredney Azii. M. 1974 yil.
6. Xal'fin N.A. Politiki Rossiya v Sredney Azii. M. 1974 yil.
7. Raximbekov R. U Dontsova Z. N. O'rta Osiyo tabiatini o'rganish tarixi, Toshkent 1982 yil.
8. Tarixiy geografiya, ma'ruzalar matni. N. 2001 yil.
9. Yo'ldashev A. Agrarnie otnoshenie v Turkistane. T. 1972 yil.

9 – mavzu. O'zbekistonning sovet davridagi tarixiy geografiyasi

Reja.

1. Oktyabr to'ntarishidan keyingi iqtisodiy o'zgarishlar.
2. Ma'muriy – hududiy chegaralanish.
3. Kolxozlashtirish.
4. Qishloq xo'jaligi.
5. Ekologik muammolar.
6. Sanoatning bir tomonlama rivojlanishi.

Bolshevoylar dohiysi Sho'ro Rossiyasini sanoati rivoj topgan ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqish vazifasini qo'ydi. Ammo O'zbekiston singari mustamlaka mamlakatlarga nisbatan bu siyosat mutlaqo boshqacha maqsadlarda - Markaz manfaati asosida amalga oshirildi. 1925 yil dekabrda VKP (b) XIV s'yezdi «sosalistik industrlashtirish» yo'lini avj oldirishni e'lon qildi. Stalin rahnamoligidagi o'ta sanoatlashtirish tarafdorlari uning sur'atini keskin tezlashtirish maqsadida mablag'larni qishloq xo'jaligi hisobidan sanoatga olish rejasini ilgari surdilar. Ularning muholiflari sanoatlashtirish siyosatini yoqlagan holda, uni aholining moddiy ahvolini,

turmush sharoitlarini yaxshilash va qishloq xo'jaligida kooperasiyani asta-sekin ixtiyoriy ravishda amalga oshirish bilan birgalikda olib borishni taklif qildilar. Biroq, bu yo'l keskin rad etildi. Oqibatda sanoatlashtirishning sub'yektivlashtirishga asoslangan stalincha usuli butun mamlakatda, jumladan, O'zbekistonda ham bosh yo'nalish bo'lib qoldi.

Shu bilan birga Respublikamizda uning salbiy ko'rinishlari ulkaning o'ziga xos iqtisodiy ahvoli tufayli yanadi ortdi. Eng asosiysi - SSSR ning xalq xo'jalik majmuida O'zbekistonning roli va o'rni ittifoq hukumati tomonidan majburan belgilab berildi.

Lekin O'zbekiston uchun sanoati qurilishining keng sur'atda jadallashtirish nihoyatda zarur edi. Chunki, Respublika iqtisodiyoti 20-30 yillar chegarasida ham agrar xususiyatga egaligicha qolayotgan edi. 1927 yilda O'zbekiston xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligining salmog'i 61,6 % , sanoatning salmog'i 38,4 % tashqil etar, shu bilan sanoat ishlab chiqarishning 90 % qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlashga asoslangan edi.

Garchi hayot muammolar bilan to'lib-toshib ketgan bo'lsada, besh yillik rejalarda xalq yelkasiga asossiz va amaliy jihatdan bajarib bo'lmaydigan vazifalar yuklangan bo'lsa-da, O'zbekiston xalqi o'z kuch-qudratini, idroki va mahoratini to'liq namoyon qildi. Birinchi besh yillik (1928-1932) davrida O'zbekistonda 289 ta sanoat korxonasi qurildi va ishga tushirildi, 79 ta korxona qayta tashqil etildi, sanoatning ishlab chiqarish fondlari uch barobar, neft qazib chiqarish 2,5 barobar, metal ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari 6 barobar, sement ishlab chiqarish uch yarim barobar ortdi.

Ikkinchi besh yillik (1933-1937) davrida 189 ta turli sanoat korxonalari va elektr stansiyalari barpo etildi. Urushdan oldingi uchinchi besh yillikda sanoat rivojlanishida yangi qadam qo'yildi. Urushning boshlanishiga kelib 134 ta sanoat korxonasi ishga tushirildi. Urushdan oldingi besh yilliklar davrida sanoatning xalq xo'jaligida egallagan salmog'i 1928 yildagi 43 % dan 1940 yilda 70% ga yetdi. Urush arafasiga kelib sanoat potentsiali 1445 ta yirik va o'rtacha sanoat korxonalarini o'z ichiga olar edi. 1925 -1940 yillarda qurilib ishga tushirilgan bunday korxonalar jumlasiga Bo'zsuvi GESi, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Termiz, Asaka shaharlarida issiqlik elektrostansiyalari, Toshkent, Samarqand, Buxorodagi to'qimachilik fabrikalari, Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozlik zavodi, Farg'ona konserva, Quvasoy sement va oxaq zavodlari, Toshkent «Ortoq» tamaki fabrikasi, ko'plab paxta tozalash, sut-yog' tayyorlash, sovun pishirish kabi zavodlarni kiritish mumkin. Sanoatlashtirish natijasida respublikamizda ishchilar sinfining soni keskin oshdi. «1937 yilga kelib sanoat ishchilarining umumiy miqdori 181 ming kishidan iborat bo'ldi».

Biroq, sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirish chog'ida jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi. Birinchidan, ixtisoslashtirish bahonasida respublikamizda asosan paxtachilikni rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan sanoat tarmoqlari hamda yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari vujudga keltirildi. Og'ir sanoat, mashinasozlik va boshqa yetakchi tarmoqlarni rivojlantirishga e'tibor berilmadi.

Ikkinchidan, sanoatni kadrlar bilan ta'minlash jarayoni ziddiyatli xususiyatga ega bo'ldi. Sanoat korxonalari uchun zarur bo'lgan kadrlar asosan Rossiyadan keltirilgan. Ular orasida mahalliy millat vakillari ozchilikni tashqil qilar edi.

Uchinchidan, sanoatlashtirish ma'muriy-buyruqbozlik asosida amalga oshirildi. Sanoat korxonalari qurilish uchun qo'shimcha mablag'larni izlab topish maqsadida aholi o'rtasida majburiy yo'l bilan zayomlar tarqatildi. Sanoat qurilishlariga odamlar majburiy tarzda yuborildi. 1940 yil 20 iyundagi mehnat intizomini yaxshilashga qaratilgan farmonga ko'ra ishga kechikib kelganligi uchun jinoiy javobgarlik joriy qilindi. Natijada minglab ishchilar va texnik xodimlar turmalarga tashlanib, mahbuslarga aylantirildi.

Xullas, 20-30 yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatini bosh maqsadi respublikani istiqbolda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borishini ta'minlaydigan iqtisodiy poydevordan mahrum qilish va uni sho'rolar xo'jalik mexanizmining bir buyrug'iga aylantirishdan iborat edi. Sho'rolar tomonidan 20-yillarning oxiri 30 yillarida amalga oshirilgan va o'zining mash'um oqibatlarini qoldirgan tadbirlardan yana biri qishloq xo'jaligini jamoalashtirish siyosati edi. Bu masala «Lenincha sosializm qurish rejasi» ning tarkibiy qismi

hisoblanadi. 1921-1922 yillardagi agrar islohot, 1925-29 yillardagi yer-suv islohotlari sho'rolar hukumatini qoniqtirmadi. 1929 yil kuzidan boshlab yoppasiga kollektivlashtirish siyosati amalga oshirila boshladi. Ya'ni, kooperativlashtirishning xilma-xil shakllarini tugatish, mavjud bo'lgan bir qancha kooperativ tizimlarini davlatlashtirish yo'liga o'tdi. Kooperasiyalarni barcha turlari va sohalari buyicha rivojlantirish siyosatini yoppasiga jamoalashtirish yo'li bilan almashtirdi. Bu yo'l esa ixtiyoriylik prinsiplari asosida emas, balki «yuqoridan belgilash» yo'li bilan amalga oshirilardi. O'zbekiston kompartiyasi MQ 1930 yil 17 fevralda «kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» qaror qabul qildi. 1925-29 yillarda yer-suv islohoti davridayoq katta yer egalarining aksariyat qismlari tugatilgan edi. 1930 yil fevraldan boshlab avj olgan quloq xo'jaliklarni tugatish kompaniyasi davrida qonunlar qo'pol ravishda buzilib, inson huquqlari toptaldi. Natijada, Farg'ona, Bog'dod, Chust kabi tumanlarda jamoalashtirishga qarshi dehqonlar isyon ko'tardilar, bu harakatlar zo'rlik bilan bostirildi. Quloq xo'jaliklari ro'yxatini tuzishda yakka qishloq xo'jaligi solig'i to'laydigan, o'ziga to'q dehqon xo'jaliklari asos qilib olindi. Bu ro'yxat asosan moliya organlari tomonidan tuzilardi. Quloqlar ro'yxatini muttasil kengaytirib borish hisobiga nafaqat o'rta hol balki, kambag'allar ham yoppasiga kollektivlashtirish davri qatag'onlik siyosatining girdobiga tortildilar.

Faqat 1930 yilning o'zida respublikada «boy» yoki «quloq» xo'jaliklar toifasiga kiritilgan 2648 ta o'rtacha xo'jalik tugatildi. 1931 yilning avgustiga kelib yana 3828 ta «quloq xo'jaliklari» tugatildi, respublikadan tashqariga - Ukrainaga Sibir va Shimoliy Kavkazga 3871 «quloq oilasi» surgun qilindi. 1933 yilda surgun qilingan «quloq» xo'jaliklari soni 5500 taga yetdi.

1932 yil oxirlariga kelib barcha dehqon xo'jaliklarini 81,7 %, 1937 yilda 95 % , 1939 yilda 99,2 % i jamoalashtirilgan edi.

«Jamoalashtirish» ning ajralmas bo'g'ini bo'lgan davlat xo'jaliklarini MTS va sovxoz shaklidagi agrokorxonalarni tashqil qilishga ham jiddiy e'tibor berildi.

Yoppasiga jamoalashtirish Respublikamiz qishloq xo'jaligida paxta yakka hokimligining kuchayishiga sharoit yaratib berdi. 1929-1932 yillarda g'o'za ekiladigan yer maydonlari 550 ming gektardan 928 ming gektarga kengaytirildi, yalpi paxta hosili esa 652 ming tonnadan 750 ming tonnaga yetkazildi. 1932 yili Respublika Sobiq Ittifoq bo'yicha paxta hosilining 60% ini berdi. Mana shu paytdan boshlab xorijdan paxta olib kelish to'xtatildi. Yuqorida ta'kidlanganidek yoppasiga jamoalashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish siyosati o'zining xunuk oqibatlarini qoldirdi:

1.Ma'lumki, chorizm hukmronligi davrida butun O'rta Osiyo xom ashyo bazasiga aylangan edi. Jamoalashtirish natijasida Respublikamiz qaytadan, balkim kuchaytirilgan formada xom ashyo omborxonasiga aylantirildi.

2.Odamlarda ishonchsizlik kayfiyatini uyg'otdi, ko'plab odamlar boshqa joylarga qochishga majbur bo'ldilar, chorvalarni ko'p miqdorda suyib yubordilar, bu esa chorva tuyog'ini keskin kamayishiga olib keldi.

3.Ma'naviy va ahloqiy qadriyatlar toptaldi.

4.Minglab kishilar qatag'on qilindi, yohud Ukraina va Sibirga surgun qilindi.

5.Jamoalashtirish asrlar davomida shakllanib kelgan odamlardagi yerga bo'lgan egalik hissini yo'qotib, begonalik xislatlarini vujudga kelishiga olib keldi. Umuman qishloq xo'jaligini rivojlantirish o'rniga oxir oqibat uni tanazzulga olib keldi.

20-30 yillarda O'zbekistonda «madaniy inqilob» siyosati «shaklan milliy va mazmunan socialistik» madaniyatni rivojlantirish qobig'iga o'rab amalga oshirildi.

Ma'lumki, O'zbek xalqi boy madaniy merosga ega bo'lib, u asrlar mobaynida sayqal topib kelgan. Sho'ro mustamlakachilari chorizm siyosatini davom ettirib, O'zbek xalqining boy madaniyatiga hujum uyushtirdilar, chunki ular xalqimizni ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yo'q qilmasalar O'zbekistonni o'z asoratlarida uzoq saqlab qololmasliklarini yaxshi tushunar edilar.

«Xoh o'tmishda, xoh bugun bo'lsin, boshqa millat, davlatni o'ziga qaram qilish niyatida harakat qilgan, qilayotgan kuchlar doimo bir siyosatni yuritganlar, yuritadilar: ya'ni qaram xalqning ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yo'q qilish, undan judo etish».

«Shaklan milliy va mazmunan socialistik» madaniyat uchun kurash dasturi xuddi ana shu mudhish vazifani bajarishga xizmat qildi, bu g'oyani ijrochilari «madaniy inqilob» yasab, o'zlaricha bir zumda xalqimizni boy merosini yo'qqa chiqardilar, O'zbek xalqini yoppasiga savodsiz deb e'lon qildilar. 1925 yilda O'zbekistonda 97 ta vaqf maktablari va 1,5 mingdan ortiq eski «Qadim» va «Jadid» maktablari faoliyat ko'rsatmoqda edi. Ammo 1928 yilga kelib Sho'ro hukumati O'zbekistonda eski milliy maktablar faoliyatini batamom ta'qiqlab qo'ydi.

20-30 yillarda O'zbekistonning siyosiy iqtisodiy va madaniy hayotida Sovet tuzumining totalitar va byurokratik illatlarning ildiz otishi.

20-yillarda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Farg'ona vodiysi, Xorazm, Buxoroda istiqlol uchun kurashning davom etishi, uning zo'ravonlik bilan bostirilishi. Milliy masalaning keskinlashuvi. O'lkada yangi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish masalalari. 1920-21 yillardagi er-suv islohoti va uning xunuk oqibatlari. Xo'jalik tuzulmalari: Ishchi uyushmasi.

Texnika ekinlarini ko'paytirish-paxtachilikni qayta tiklash va sug'orish ishlari. Er va suv solig'i. Kooperatsiyalar va shireatlarning tuzilishi. Mahalliy rahbarlar: N. To'raqulov, Otaboev, I. Xidiralievlar faoliyati.

Markaziy Osiyoda milliy chegaralanishning o'tkazilishi va yagona Turkistonning sun'iy ataylab parchalab yuborilishi. O'zbekiston SSR va O'zbekiston Kompartiyasining tashkil topishi. O'zbekiston SSR ni SSSR tarkibiga kiritilishi. O'zbekiston SSR ning xududi, aholisi, uning tarkibi. Milliy chegaralanishdagi xatolar va ularning oqibatlari. A. Ikromov, Y. Oxunboboev, F. Xo'jaev, V. Ivanov, A. Rahimboev, Q. Nurmuhammedov, Q. Avazov, A. Dosnazarovlar faoliyati.

Qoraqalpog'istonning ijtimoiy-siyosiy ahvoli. Qoraqalpog'iston muxtor jumhuriyatining tashkil topishi.

O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosati. Yangi sanoat tarmoqlari va sanoat shaharlarining vujudga kelishi. Malakali ishchilar. Muhandislar va texnik xodimlarni tayyorlash masalalari. Markazdan ko'plab rusiy zabon aholini ko'chiribkeltirilishi. Sanoat taraqqiyotidagi yutuqlar va nuqsonlar. Temir va avtomobil yo'llarini qurilishi. Katta O'zbekiston trakti (Toshkent-Termiz). Aloqa vositalari.

Agrar siyosat. 1925-1929 yillarda o'tkazilgan er-suv islohoti. Paxta mustaqilligiga erishish uchun kurash. Qishloq xo'jaligini zo'rlik bilan jamoatlashtirish siyosati va uning og'ir oqibatlari. MTS larning tashkil etilishi. Yangi suv islohotlari inshootlari qurish, umumxalq harakati. Katta Farg'ona qo'z ketgan, Shumanoy kanallarining xalq hashari bilan qurilishi. Chorvachilik, pillachilik, meva-sabzavot etishtirish sohasidagi ishlar.

Madaniy hayot. Xalq maorifi. Oliy va o'rta maxsus bilimgozlarining ochilishi. Milliy ziyolilarning shakllanishidagi o'ziga xos tomonlar "Hujum" harakatining uyushtirilishi. Maishiy hayotdagi an'analarga daxl qilinishi. Ayollarni paranji tashlash, ochilish masalalari. Eski va yangi imlo masalalari. Arab imlosidan voz kechilishi va uning oqibatlari. Savodsizlikni tugatish uchun kurash. Madaniy-ma'rifiy masalalar. Lotin imlosidan kirill imlosiga o'tilishi, uning maqsad va oqibatlari.

Adabiyot va san'atning rivojlanishiga sotsializmning g'ov bilishi. Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Hamza, Mannon Uyg'ur, tamaraxonim, Halima Nosirova, N. Davkvrev, A. Dabo'lov, A. Utenov, M. Dariboev, A. Begimov.

Ilm-fan. O'zbekiston fan komiteti, SSSR FA ning O'zbekiston filiali (O'zFAN) ning tashkil etilishi. Qoriniyozov T. , Hoshimov O. Respublika oliy o'quv yurtlarining O'zbekiston tuprog'i, o'simliklari, hayvonot olami, er-suv resurslari, foydali qazilmalarni qidirib topish yo'lidagi ilmiy tadqiqiy ishlari. O'zbekiston tarixi fanining markscha-lenincha metodologiya asosida rivojlanishi va undagi cheklanishlar. Ya. G'ulomov, I. Nigmatov, R. N. Nabiev, O. Jumaev, S. Azimjonova, Sadridan Ayniy, S. Majitov, Ya. Dosumov, M. Nurmuhammedov.

Ijtimoiy-siyosiy ahvol. Ma'muriy buyruqbozlik tizimini qaror topishi. Yakka hokimiyatchilikning kuchayishi. 18 lar guruhi. "Inog'omovchilik", "Qosimovchilik" guruhlarida haqida uydurma va haqiqat. Stalincha davlat sotsializmning amalga oshirilishi. Siyosiy qatag'onlik ildizlari va uning og'ir oqibatlari. A. Ikromov, F. Xo'jaev va boshqa siyosiy davlat arboblarning qonunsiz qatl etilishi. O'zbek ziyolilarining qatag'on etilishi va uning madaniyatimizga etkazgan zararli oqibatlari. Fitrat, Cho'lpon, A. Qodiriy, U. Nosirlarning taqdiri.

O'zbekiston SSR II jahon urishidan SSSR tarkibida og'ir ahvolda chiqdi. Urish davrida qishloqdan ko'p maxsulotlar olinishiga qaramasdan deyarli xech narsa berilmadi. Stalinning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, markazning tayziqi ahvolni yanada og'irlashtirdi. Belgilangan 5 yillik rejalarni bajarishning imkoniyatlari yo'q edi. O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun bor yo'g'i 7% mablag' ajratilar edi. Vaholanki O'zbekiston agrar davlat edi. Davlatning qishloq xo'jaligiga beradigan yordami faqat texnika etkazib berish bilan cheklanib qolmoqda edi. qishloq xo'jalik maxsulotlari etishtirish urishdan oldingigiga nisbatan ancha kam edi. Faqat 1960 yillarga kelibgina maxsulot etishtirish sezilarli darajada o'sti. Paxtachilik etakchilik tarmoq bo'lganligi tufayli kompleks mexanizatsiyalashga etibor berildi. Boshqa tarmoqlarda esa ahvol yomon edi. Masalan, sabzavot ekini 24%, pichan to'plash 24%, fermalar 39 %, parrandachilik 42% mexanizatsiyalashtirildi. qishloq xo'jaligi mehnatkashlarining 90 % jismoniy mehnat bilan shug'ullanishar edi.

Sanoat. Paxta monopolyasining o'rnatilishi va qattiq markaziy rejalashtirish ikkinchi jahon urishidan so'ng sanoatni rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Belgilangan 5 yillik rejalarni amalda bajarish imkoniyatlari cheklangan edi. Sanoatni rivojlantirishda ekstensiv usuldan foydalanildi. Shuni aytib o'tish kerakki sanoatni rivojlantirishda paxta monopolyasi asos qilib olingan edi. Yangi Fan texnika yutiqalari, ilg'or texnologiya tadbiriq etilmadi. Besh yillik rejalarga ko'ra O'zbekiston 1970 yilga kelib gaz qazib chiqarish, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish bo'yicha ittifoqda uchinchi, mashinasozlik va metalga ishlov berish bo'yicha to'rtinchi o'ringa chiqishi belgilangan edi. Bunday rejalar, majburlash aholining pinkasini quritar edi. Respublikada sanoatning rivojlanishi shunday og'ir sharotda olib borildi. Xar bir besh yillikda o'rtacha 100 tadan sanoat ob'ektlari ishga tushirilgan. 1985 yilga kelib O'zbekistonda bir yarim mingdan ortiq yirik ishlab chiqarish birlashmalari, korxonalar bor edi. Sanoat mahsulotlari xajmi esa 1940 yilga nisbatan 20 baravardan ko'p edi. Ayniqsa paxtachilik bilan bog'liq tarmoqlar yaxshi rivojlandi. Mashinasozlik (traktorsozlik), Kime, neft', ko'mir, gaz, kon-ruda, oltin qazib olish va Ayniqsa energetika jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Yigirma yil (1960-1980) moboynda Angren, Navoiy, Chervog, Toshkent kabi yirik elektrostantsiyalar barpo etildi. Umumiy quvvati 3 mln kVt. bo'lgan Markaziy Osiyodagi eng yirik Sirdaryo GRAS i qurildi. 1985 yilga kelib O'zbekiston elektr ishlab chiqarish bo'yicha 1940 yildagiga nisbatan 180 barobarga etdi.

Sanoatning mashinasozlik (qishloq xo'jaligi mash.) muhim tarmoqqa aylandi. Sanoat ishlab chiqarishdagi aholining 66,3%i shu tarmoqda band edi. Ushbu tarmoq yalpi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 57,7%ini tashkil etar edi. Lekin O'zbekistonda faqat chetdan keltirilgan ehtiyot qismlar yig'ililar edi. Metalga ishlov berishda ham shunday ahvol, ya'ni metal Rossiyadan keltirililar edi. 1980-yillar boshlarida chetdan ehtiyot qismlar olib kelib yig'iladigan 100 dan ortik sanoat korxonalar mavjudl bo'lgan. TTZ, "Toshqishloqmash", "O'zbekqishloqmash", "Chirchiqqishloqmash", Toshkent ekskavator zavodi kabi korxonalar mahsulotlariga cheta talab katta edi. 1970-1980 yillarda O'zbekiston ittifoqda paxtachilikka mo'ljallangan qishloq xo'jalik mashinalarining deyarli barchasini, to'qimachilik sanoati uchun 40% mahsulot ishlab chiqargan.

Bog'dorchilik, sabzavotchilik, uzumchilik kabi tarmoqlar uchun esa mashinalar ishlab chiqarilmasdi. Shuning uchun qishloq xo'jaligining tarmoqlarini mehanizatsiyalash sust edi.

Sanoatning yirik tarmog'i ximiya sanoati rivojlandi. 1940 yili dastlabki elektr ximiya kambinati qurilgan edi. 1947 yili qo'qon superfosfat zavodi, 1955 yili Samarqand superfosfat zavodi. Farg'ona, Navoi, Olmaliqda ximiya zavodlari barpo etildi. 50-60 yillarda ximiya

sanoatining Yangi tarmog'i gidroliz sanoati yaratildi. Plastmassalar, su'niy tolalar, o'g'itlar, dorilar ishlab chiqarila boshladi. Ximiyaviy zavodlar Ittifoqdagi shunday zavodlarning 10 % ini tashkil etar eli. Ximiya sanoatini rivojlanishi faqat ijobiy natijalarga ega emas edi. Ximiya zavodlari aholi zinch joylashgan punkitlarda bo'lganligi sababli uning hafi ham tez tarqaldi. Suv, havo, qishloq xo'jaligi mahsulotlari zaharlandi. Aholi orasida turli kasalliklar ko'paydi. 1970-1980 yillarda sanoat ishlab chiqarishida pasayish sezildi. Maxsulot sifatiham, unumdorlik ham pasaydi. Davlat rejalari ham bajarilmay qola boshladi. 1975 yili Respublikadagi 527 ta korxona ishlab chiqarish rejasini bajarmadi. Mulk egasizligi, Raqobatning yo'qligi satsialistik musobaqalar, majburiyatlar sanoatning rivojlanishiga ham to'sqinlik qildi.

Sanoat korxonalarining Respublika bo'ylab joylashuvi ham bir xil emas edi. Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysida ya'ni O'zbekiston hududining 5 %i da butun sanoat potentsialining 65% i joylashgan edi. Respublikanin Shimoliy va Janubiy qismlarida, Ayniqsa, qoraqolpog'istonda sanoat qurilishi past darajada edi.

Adabiyotlar.

1. O'zbekistonning yangi tarixi II-kitob. T. 2000 yil. (O'zbekiston sovet mustamalakachiligi davrida)
2. O'zbekiston SSR tarixi III-tom. T. 1991 yil.
3. Tug'on Z. V. «Bo'linganni bo'ri er». Xotiralar. T. 1997 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi . Toshkent 1994 yil.
5. Aminov R. X. O'zbekistonda sovet xokimiyatining agrar siyosati va uni soxalashtiruvchilar. Toshkent. 1972 yil.
6. Qosimov Y. Namangan voxasini sug'orish tarixi. Toshkent 1988 yil.

13 – Mavzu. Mustaqillik davri tarixiy geografiyasi.

Reja:

1. O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.
2. Iqtisodiyotda yuz bergan o'zgarishlar, bozor infratuzulmasining shakllanishi.
3. Qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan islohotlar, uning vazifalari va yo'nalishlari.

Aslida mustaqil O'zbekiston hududida, aniqrog'i ko'hna Turon zaminida bozor munosabatlari yangilik emas. Qadimdan ajdodlarimiz hunarmandlar ishlab chiqargan turfa xil mahsulotlarini, tabiiy boyliklarini xorijiy mamlakatlarga olib chiqib savdo qilganlar, mol ayirboshlaganlar. Faqatgina so'nggi mustamlaka yillarida chor Rossiyasining, sho'rolar hokimiyatining iqtisodiy islohotlar o'tkazadigan laboratoriyasiga aylanib qolgan edik xolos. Endi bunday tajriba maydoni rolini o'ynovchilikdan qutildik, o'zimizning milliy an'analarimizni tiklab yana iqtisodiyotni rivojlantirishga kirishdik. O'zbekiston tanlagan yo'l bozor iqtisodini shakllantirishdir.

Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy tamoyillari yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilib, bu tamoyillar mazmuni quyidagicha:

-iqtisod siyosatdan ustun turib mafkuraviy tayziqlarsiz, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog'i kerak:

-davlat bosh islohotchi o'rnida bo'lib, uning yo'nalishlarini belgilab beradi va amalga oshiradi:

-bozor munosabatlariga o'tish qonun ustivorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga amal qilinishi shart:

-bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini kuchli himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o'tkazish;

-bozor iqtisodiyotiga o'tish evolyusion yo'l bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilmog'i zarur.

Bozor munosabatlariga o'tishda iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqilib, uning tub maqsadi-markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishdan iboratdir.

Bozor munosabati bu jihatdan klassik kapitalistik va socialistik iqtisodiy tizimdan farq qiladi.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra ustivor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi.

Birinchi bosqichda birdaniga ikki vazifani hal qilish kerak:

Ma'muriy buyruqbozlik tizimini og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va yangisini qurmay, eskisini buzmaslik qabilida ish ko'rish kerak. Bu o'tish jarayonida asosiy e'tiborni yangi bozor munosabatlarining huquqiy bazasini vujudga keltirish, ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berishga qaratmog'i kerak.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy sharoitlaridan biri sifatida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish amalga oshiriladi. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy buyruqbozlik buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, mulkdorlar sinfi shakllandi, xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligi oshdi.

Mulkni xususiylashtirish va ko'p ukladli iqtisodni shakllantirish O'zbekistonda ikki bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich 1992-1993 yillari amalga oshirildi. Bu davrda asosan maishiy xizmat, savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, qayta ishlash korxonalari mulk shakli o'zgartirilib, mulkning ijara, jamoa, aksiyadorlik shakllari vujudga keldi. Uy-joylar xususiylashtirildi.

Qishloq xo'jaligida 770 kolxoz va sovxozlar xususiylashtirilib, jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi. Birinchi bosqichda mulk davlat tasarrufidan chiqishi jarayonida mulkdorlar sinfi shakllandi.

Ikkinchi bosqich O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 21 yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq aksiyadorlik jamiyatlari tashqil etilib, korxonalar aksialarini chiqardilar, auksion savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, xususiylashtirishni yoppasiga olib borish ko'zda tutildi.

Aloqa, transport, geologiqidiruv, yoqilg'i-energetika komplekslari xususiylashtirilmadi. Ayrim sohalarda-kimyoy, oltin qazish, paxta tozalash, tog'-kon sanoatida 51 % aksiya davlat ixtiyorida qoladigan bo'ldi.

1994 yil oxirigacha 54 ming korxona mulk shaklini o'zgartirdi (xususiy, aksiyadorlik, jamoa, ijara va x.k.). Natijada respublikada nodavlat sektorning iqtisodiyotdagi ulushi ortib bordi. 1995 yili sanoat mahsulotining 97 %i nodavlat sektorga to'g'ri keldi.

Yurtboshimiz I.A. Karimov bu boradagi ishlarni tahlil qilib, quyidagi fikrni bildirdi:

«...iqtisodiy munosabatlarda, ayniqsa mulk masalalarida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturini amalga oshirish natijasida, mamlakatimizda haqiqiy ko'p tarmoqli iqtisodiyot shakllantirildi, nodavlat sektor mustahkamlandi va iqtisodiyotimizda faol rol o'ynay boshladi»(I.A.Karimov. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Toshkent. «O'zbekiston», 1996, 13- bet.).

Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasidagi nutqida yana shu masalaga to'xtalib, shunday dedi:

«Biz-xususiy mulkning miqyosi va ulushi uzluksiz o'sib boradigan ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish tarafdorimiz. Dunyo tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyatda tom ma'nodagi mulkdorlar sinfining ko'pchilikni tashqil etishi ijtimoiy hayotdagi barqarorlik va farovonlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi»(I.A. Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz.-Namangan haqiqati,-2000.-26 yanv.).

2. Iqtisodiyotimizdagi o'zgarishlar masalasida to'xtaladigan bo'lsak «SSSR tarqalib ketgandan so'ng barcha milliy respublikalar, jumladan O'zbekistonning iqtisodiyoti o'tirib qoladi», -degan bashoratlar puch ekanligini o'z ko'zimiz bilan ko'rib turibmiz. Aksincha, sobiq ittifoqdan ajralib chiqqan mustaqil bo'lgan davlatlar ichida O'zbekistonning iqtisodiyoti barqaror rivojlanib bormoqda, ishlab chiqarishning keskin kamayishi va ommaviy ihsizlikning oldi olinib qolindi. Istiqloлга erishgan O'zbekiston tarixida ilk bor 1995 yili neft mustaqilligiga erishdi. 2006 yili ichki yalpi mahsulot ishlab chiqarish 7,3 %, sanoat ishlab chiqarish 10,8 % ga ortdi. 2006 yilning o'zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida qo'shimcha ravishda 290 ming yangi ish o'rni yaratildi. Bu esa, mamlakatimizda ochilgan yangi ish joylarining 50%dan ortig'ini tashkil etadi. 2007 yilning boshida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining soni qariyb 350 mingtaga yetdi. Yoki 2000 yildagiga nisbatan 2,3 marta ko'paydi. Bugungi kunda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 42,1% ni tashkil etmoqda.

O'zbekistonda neft va gaz kondensati ishlab chiqarish 1990 yili 2,8 mln.tonna bo'lsa, 1997 yili 7,9 mln.tonnaga yetdi va chetga neft sotish qobiliyatiga ega bo'ldi. Aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash yuzasidan katta yutuqlarga erishildi.

O'zbekistonning jahondagi ko'p davlatlar bilan hamkorligi kengayib bormoqda. «Chet el investisiyalari to'g'risida», «Chet el investorlari huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida» qonunlarining qabul qilinishi jahonning ko'plab davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni o'rnatishga, bir qancha jahon banklari bilan shartnomalar imzolashga olib kelib, bu ham makroiqtisodiyotni yaxshilashga olib keldi.

II jahon urushidan keyingi tarix shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarning hech biri xorij sarmoyasiz taraqqiy etmagan. O'zbekiston ham shu yo'ldan rivojlanib, hozirgi kunda xorijiy davlatlar bilan birgalikda 3200 ta qo'shma korxonalar qurildi va ishlamoqda.

O'zbekistonda ahvol barqaror bo'lganligi uchun ham 1994 yili 10 mln. AQSh dollari hisobida xorij sarmoyasi o'zlashtirilgan bo'lsa, bu miqdor 1998 yili 114,5 mln. AQSh dollariga yetdi.

Amerikaning Kolorado shtatidagi «Nyumont» firmasi bilan Muruntovda qo'shma korxona qurilib, «Zarafshon-Nyumont» korxonasi o'z ishi natijasini ikki yilda ko'rsatdi.

O'zbekistonning istiqloli mashinasozlik sanoatini, ayniqsa, avtomobilsozlik sanoatini rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasida «UZ-DAEWOO» avto ko'shma korxonasi qurilib, yengil avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. 1993 yili GFR bilan O'zbekiston o'rtasida shartnoma imzolaniб, «Mercedes-Bens AT» korporasiyasi Xorazmda «Do'stlik» avtomobil zavodida ish boshladi. 1994 yildan boshlab yuk avtomobillarini ishlab chiqardi. 1995 yili «O'zavtosanoat» uyushmasi bilan Turkiyaning «Kochxolding» kompaniyasi o'rtasida shartnoma imzolaniб, 1999 yildan Samarqandning So'g'diyona mavzeida avtobus zavodi qurilib, faoliyat yurita boshladi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar o'tkazish ham biz uchun yangilik emas. O'zbek dehqoni o'z boshidan qancha islohotlarni o'tkazmadi deysiz. Natijasichi? Sho'rolar zamonida «dehqonlar» termini o'z mohiyatini yo'qotdi. Uncha uzoq emas, 80-yillarda kolxozchilarning bajargan ishlariga xaq to'lash normativlarida bir ish kuni (yetti soat) 20 sotix yagana qilsa, bir norma ish hisoblanib, unga 3 so'm 27 tiyin haq belgilangan. Ko'z oldingizda keltiring 20 sotih yagana qilish uchun (qator orasi 60 sm bo'lganda) 3200 metr egat ustidan deyarli emaklab o'tish kerak. Urug'likning «klassiga» unuvchanligiga qarab, 1 metrga 30-35 dona chigit qadaladi. Shundan o'rtacha 25ta chigit unib chiqsa, 20 sotixda 80 ming ko'chat bo'ladi. Aslida 1 metrda 5tadan, jami 20 sotihda 16 ming ko'chat saqlanishi lozim. Yaganalash jarayonida ortiqcha 64 ming ming ko'chatni holatiga qarab olib tashlash kerak. Endi kolxozchi bir kunda 7 soat (430 minut) qonun bo'yicha ishlasa, har minutda 152 tadan ko'chatni yulib, etakka solib, ekin maydonidan chetga olib chiqib tashlashi kerak.

Yoki 15 sotix g'o'za birinchi chopiq qilinsa, 3 so'm 15 tiyin haq beriladi. 15 sotix-agar qatorlarning orasi 60 sm, uzunligi 100 metr bo'lsa, 25 qator yoki 2500 metr bo'ladi. Bundan tashqari, chopiqda qatorning har ikki tomoniga ketmon urish kerak. Demak, 5000 metr.

Agrotexnika bo'yicha imkoni bo'yicha yaqin, chuqur qilib topish talab etiladi. Agar, har 10 sm yerga bittadan ketmon urilganda, 50 ming marta urish kerak. Bu bir minutda 119 martadan ketmonni ko'tarib tushirishini taqazo etadi. Yoki kolxozchining 159 marta urishiga 1 tiyindan ish haqi to'g'ri keladi.

Mana sizga jamoa xo'jaligida (kolxoz) ish haqi to'lash normativlari Bundan tashqari, 80-yillardagi «paxta ishi» o'zbek dehqonlarining obro'yini butunlay tushirib yubordigina emas, balki jamoa xo'jaligini hayotiy ekanligini, bu xo'jalikdagi mulk begonalashtirilganligini yaqqol ko'rsatib qo'ydi.

Shuning uchun ham, mustaqillikdan so'ng Respublikamiz qishloq xo'jaligida tub islohotlarni amalga oshirish eng asosiy vazifalardan biri bo'lib qoldi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariga tezroq o'tishida, uning rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Islohotlarni huquqiy asoslarini yaratish maqsadida, Respublika Oliy Majlisining XI sessiyasida Prezidentimiz I. Karimov tashabbusi bilan «Yer kodeksi», «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Qonunlarning yaratilishida yurtboshimiz bevosita o'zlari ishtirok etib, shunday degan edilar: «Biz mana shu qonunlarni amalga oshirmoqchi bo'lsak, joylarda ularni targ'ib qilish ishlarini yaxshi yo'lga qo'yishimiz lozim. Toki, bu qonunlar bizga nima beradi, degan masala har bir insonning ongiga yetib borsin»(I.Karimov. Respublika Oliy Majlisi XI sessiyasi. Sh.Mamanabiyev. Shirkat xo'jaligi nima? Qonun himoyasida. №1.-2000.-B.15).

Shu bilan birga yurtboshimiz mavjud ishlab turgan jamoa xo'jaliklarini yuritishning yangicha shakli-shirkat xo'jaliklariga aylantirish o'ta mas'uliyatli ish ekanligini, unda aslo shoshma-shosharlikka, yuzakichilikka yo'l qo'yib bo'lmasligini ham ta'kidlab o'tgandilar. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasi 1998 yil 15 iyul kuni «Qishloq xo'jaligini isloh qilishga oid qonun hujjatlariga qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) tuzish chora-tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qilindi. Respublikamiz miqyosida 1998 yili 65ta jamoa xo'jaliklari shirkat xo'jaligiga aylantirildi. 1999 yilning birinchi choragida bu ko'rsatgich 432 tani tashqil qildi (I.Karimov. Respublika Oliy Majlisi XI sessiyasi. Sh.Mamanabiyev. Shirkat xo'jaligi nima? Qonun himoyasida. №1.-2000.-B.15). Qishloq xo'jalik korxonalarini shirkat xo'jaliklariga aylantirish masalasining bir tomoni holos. Eng asosiy masala- shirkat xo'jaliklarida oila pudratini joriy etish orqali ichki xo'jalik munosabatlarini takomillashtirish, bevosita mahsulot ishlab chiqaruvchilarning manfaatdorligini oshirish orqali qishloq xo'jaligini rivojlantirish. Bu borada Buxoro, Andijon, Namangan viloyatlarida tahsinga sazovor ishlar olib borilmoqda.

O'tkazilayotgan islohotlar natijalaridan dastlabki xulosalar shundan iboratki, hamma yerda ham bu masalaga ko'ngildagidek e'tibor berilmayapti. Aholi orasida ba'zan «shirkat xo'jaliklari tuzilmoqda, lekin ularning jamoa xo'jaliklaridan farqi sezilmayapti» degan gaplarni eshitib qolamiz.

O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonunga ko'ra, qishloq xo'jaligi shirkati qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirishga mo'ljallangan, mulkiy pay usuliga hamda oila (jamoa) pudratiga asoslangan fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashtiradigan yuridik shaxs huquqlariga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yektdir. Shirkat xo'jaliklaridan farqli o'laroq, jamoa xo'jaliklari asosiy ishlab chiqarish vositalari umumiy bo'lgan, jamoa mehnatiga asoslangan qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni birgalikda yuritish maqsadida ixtiyoriy ravishda birlashgan dehqonlarning tashqilotidir.

Shirkat xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- shirkat a'zolariga ixtiyoriy ravishda kirish va chiqish;
- shirkatning ish faoliyatida a'zolarining o'z mehnati bilan ishtirok etishining shart ekanligi;
- ichki xo'jalik munosabatlarini shartnomalar tuzish yo'li bilan, tenglik tamoyiliga amal qilib, oila pudrati asosida tashqil etish;

- shirkat a'zolari bilan hisob-kitob qilishda amalda bajarilgan ishlarning hajmi va sifatiga chek usulida haq to'lashni tashqil etish;
- yakuniy daromadni shirkat a'zolari o'rtasida ularning mulkiy paylariga muvofiq taqsimlash;
- yer uchastkalaridan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanish, yerlarni muhofaza qilinishi va tuproq unumdorligining oshirilishini ta'minlash;
- shirkatning bir a'zosi bir ovozga ega;
- shirkat xo'jaligining ish faoliyati ustidan shirkat a'zolari tomonidan shirkat nizomida nazarda tutilgan tartibda nazorat qilish.

Shirkat xo'jaligining mulk shakli bo'yicha ham jamoa xo'jaliklaridan farqi va afzalliklari mavjud bo'lib, ular quyidagilar: Shirkat xo'jaligining mulki uning a'zolari mulkidan tashqil topadi. Bunda har bir a'zoning mulki umumiy mulkning qismidan iborat, mulk egalari-paychilar boshqaruvda ishtirok etadi, boqimandalik tugatiladi, real manfaatdorlik ortadi va yil yakunida a'zolar xo'jalik daromadidan dividend olish huquqiga ega bo'ladilar. Jamoa xo'jaligida esa, mulk jamoaniki, ammo egasi noma'lum.

2000 yilga kelib respublikada davlatga qarashli bo'lmagan sektor mustahkamlandi va yetakchi o'rinni egallab, 1991 yil 63%ni tashkil qilgan bo'lsa, 1999 yil sentabr oyiga kelib qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmining 98,4%ini egalladi.

Hozirgi paytda respublikamizda 190 mingga yaqin fermer xo'jaligi faoliyat yuritmoqda va ularda salkam 1,4 mln kishi mehnat qilmoqda. Agar 2000 yilda yetishtirilgan paxta hosilining 21%i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2006 yilda bu ko'rsatkich 86%dan oshib ketdi.

Xulosa: Qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan islohotlarning maqsadi-qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirish. Qishloq xo'jaligi respublika iqtisodiyotini taraqqiy ettirishda ustivor soha hisoblanganligi uchun ham bu sohaga katta e'tibor berilmoqda. Aholining daromadlarini bozor bilan bog'liq bo'lgan yangidn-yangi manbaalari ochilmoqda. Masalan, tadbirkorlik, aksiyadorlik dividendlari, tomorqa mahsulotlarini sotish va h.k.

Milliy bank, moliya tizimi rivojlanib bormoqda.

Adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. - Toshkent: O'zbekiston, 1993 y.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent: O'zbekiston, 1993 y.
3. Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Toshkent, O'zbekiston, 1996 y.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. Namangan haqiqati.-2000.-26 yanv.
5. Karimov I.A. 2006 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi //Xalq so'zi.-2007.-13 fev.
6. Abdurasulov R. Peshonangda bori shumi? Mushtum.-1989.-№10.
7. Mamanboyev Sh. Shirkat xo'jaligi nima? Qonun himoyasida.-2000.-№1.-B.15
8. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis fakultetlari talabalri uchun darslik / R. Murtazayevaningumuiy tahriri ostida.-T.: Yangi asr avlodi, 2003.-676b.